ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2020

3-maxsus son
(may-iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

J. Usarov, Z. Sangirova	6	Tabiiy fanlarni o'qitishda blok-modul tizimiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablar
S. Qorayev, M. Xusanova	11	Professional ta'limda kasb-hunar maktablari faoliyatini sifatli tashkil etish masalalari
K. Suyarov	16	Ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va pedagogik shart-sharoitlar
M. Tilakova, N. Eshmonova	22	Kreativ qobiliyat va uni takomillashtirish mexanizmlarining ilmiy-pedagogik talqini
O. Yo'ldoshev	26	O'quvchilar aksiologik tarbiyasi va texnogen sivilizatsiya: sabab, oqibat va natija
M. Qurbonova	29	Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati
M. Islamova	33	Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

G. Ernazarova, M. Qurbonova	37	Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang'ich sinf 'quvchilarining o'quv-bilish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar
U. Yaxshiyev	43	Ta'lim sharoitida chiziqli diofant tenglamalarini yechishda ijodkorlikning uzviy birligi va ahamiyati
Z. Erkaboyeva, I. Lapasova	48	Funksiyalarning qiymatlar sohasini aniqlash metodikasi

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

A. Raxmonov	51	Zamonaviy o'quv mashg'uloti va ta'limning o'ziga xos imkoniyatlari

TA'LIMDA MENEJMENT

I. Qodirov	55	Zamonaviy umumta'lim maktablari boshqaruvida rahbarlik mahorati va mas'uliyati

MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

S. Mahkamova, M. Asadullayeva	60	Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda qo'shiqchilik san'atining tutgan o'rni
M. Muxitdinova, M. Xalilova	64	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini musiqa tarbiyasi vositasi sifatida qo'llashning xususiyatlari

TA'LIMDA SOTSIYOLOGIYA VA STATISTIKA

D. Ismoilova	69	Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim mazmunini prognostika qilish

EKOLOGIK TA'LIM

S, Qorayev 73 Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri asosida o'quvchilarda ekologik madaniyatni yuksaltirishning muhim xususiyatlari

TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

M. Shermatov 78 Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion yondashuvlar

M. Yakubova 84 Ta'lim-tarbiya jarayonida kreativ yondashuvning dolzarbligi va uning ahamiyati

G. Sharipova 89 Klaster tizimida o'quvchilarning o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi

PSIXOLOGIYA

J. Usarov, N. Eshnaev, T. Maratov 93 Oilaviy inqirozning bolalar psixologiyasiga salbiy ta'sirini bartaraf etish mexanizmi

J. Usarov, N. Eshnayev 97 Ta'lim tizimida amaliyotchi psixolog kompetentligi va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni

TA'LIM TARIXI

S. Abdijalilova, X. Kadirova, A. Kadirova 102 Xalq pedagogikasida milliy dunyoqarashni va mehnatsevarlikni shakllantirishda klaster yondashuv

A. O'tayev 107 Bo'lajak pedagog kadrlarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy-tarixiy meroslar bilan tanishtirishning ahamiyati

MEDIA TA'LIM

X. Xudoyqulov, F. Jumanova 112 Globallashuv davrida axborot kommunikatsion texnologiyalarning ta'lim oluvchilar ongiga ta'siri

ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

А. Бурханов, С. Аминов 116 Некоторые вопросы социализации воспитания и обучения

А. Бурханов, Р. Шермухамедов 120 Сущность воспитания и его место в целостной структуре образовательного процесса

Г. Эрназарова 124 Совершенствование профессионального образования на основе акмеологического подхода

МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ж. Равшанов 129 Методика использования терминов в преподавании предмета "История"

ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Г. Абдуллаева 132 Научно-педагогический кластер как основа формирования инклюзивной образовательной среды

ПСИХОЛОГИЯ

Ш. Абдусаматова 138 Мотивация как фактор успешности в обучении и в дальнейшей трудовой деятельности

PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERI: EHTIYOJ, ZARURAT, NATIJA

Dunyo xalqi buyuk o'zgarishlar davrida yashamoqda. Telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari tushuncha va tasavvurlarimizni o‘zgartirib yubormoqda. Ayrim hollarda axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiyalar hayotimizni qamragani sayin odob va axloq, yozvuzlik va ezgulik, halollik va jo‘mardlik haqidagi ko‘nikmalarimiz ham o‘zgarayotgandek, nazarimda. “Virtual avlod” paydo bo‘layotgani, bu avlod ayni tushunchalarga virtual nigoh ila qarayotgani bor gap.

Ayni paytda butun dunyo aholisini tashvishga solgan koronavirus (COVID-19) infeksiyasi oqibatida yuzaga kelgan karantin sharoitida “Virtual avlod”ning vitrual olamini qaysidir ma’noda oqlash mumkindir. Lekin pandemiya sharoitda yangi paydo bo‘lgan har qanday narsa, biror millatning ma’naviyatiga ta’sir qilmasagina, uning asrlar sinovidan o‘tgan ezgu anana, urf-odatlari, qadriyatlari yashab qoladi.

Shu ma’noda ta’lim tizimi o‘z ildizlarini ilm-fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, voqelik bilan bog‘lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyalashgan taqdirdagina katta natijalarga erishish mumkin.

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo‘lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o‘z tarkibiga kiruvchi ta’limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta’lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta’lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti rektori, fan arbobi, professor G.I. Muxamedovning “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija” nomli maqolasi e’lon qilindi, unda olim ta’lim tizimi, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omili ekanligini hamda ta’lim o‘z ildizlarini ilm-fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, hayot bilan bog‘lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishgan taqdirdagina o‘z oldiga qo‘ygan natijalarga erisha oladi, fan, ta’lim-tarbiya va iqtisodiyotning o‘zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini ta’minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalariga tatbiq eta olgan davlat esa taraqqiyotga erishadi”, – deya ta’kidlanadi.

Ta’lim tizimini rivojlantirishning klasteri ta’lim berish, o‘quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog‘liq umumiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi.

Bunda ta’lim muassasalari va jamiyat boshqa manfaatdor tomonlarining o‘zaro uzviy va uzluksiz aloqasini ta’minlash, ta’lim jarayonining pirovard mahsuli – har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni yetishtirish va jamiyatga naf keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, ma’naviy, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Chunki kadrlar bilim saviyasi va raqobatbardoshligi iqtisodiy ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo‘jaligi va jamiyatning boshqa sohalari taraqqiyoti va raqobatbardoshligining asosidir.

Quyidagilar klaster tizimining subyektlari sifatida ishtirok etadi:

– talabalar, magistrantlar va doktorantlar pedagogik amaliyot o‘taydigan, ta’limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan, o‘quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o‘taydigan maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy va qo‘shimcha ta’lim muassasalari;

– ta’limning turli darajalaridagi yangilanishlarga muvofiq ravishda kattalarning qo‘shimcha ta’limi tizimi muassasalari, bolalar va o‘smirlarning maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;

– hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan va uni belgilaydigan ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;

– pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;

– xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar.

Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda har bir subyekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish yuritadi. Klaster tizimi subyektlari bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma’naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta’siri hamda ahamiyatini kengaytiradi.

Ta’lim klasteri faoliyatining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

– pedagogika sohasida samarali vorisiylikni ta’minlash va eng yaxshi o‘quvchilarni pedagog kasbiga targ‘ib qilish;

– pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini amaliyotga tayangan holda va manfaatdor subyektlar bilan samarali aloqasini intensiv ta’minlagan holda olib borish;

– bo‘lajak ta’lim mutaxassislarini innovatsion tajribaga ega bo‘lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish;

– yosh mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarni egallash davrini qisqartirish;

– talabalarni bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirok etishini ta’minlash;

– pedagogik ta’limda yangi avlod o‘quv, o‘quv-metodik, ilmiy adabiyotlar, vositalar va didaktik materiallar majmuasini yaratish;

– pedagogik ta’lim ilmiy, ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish;

– pedagogik ta’limni rivojlantirishning dolzarb masalalari atrofida intellektual resurslarni integratsiyalash;

– ta’lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlarini izlab topish va ta’limga tatbiq etish;

– ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish;

– pedagog kadrlarni tayyorlashda maktabgacha, o‘rta ta’lim va OTM hamda boshqa talabgorlar bilan o‘zaro tezkor qayta bog‘lanish imkoniyatini yaratish;

– pedagogik ta’lim bo‘g‘inlari o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘liqlik va hamkorlik zaruriyatini ilmiy asoslash.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion klaster ta’limda ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta’minlaydigan, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik muassasalarda to‘plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlarni ta’lim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga yetib borishini samarali amalga oshiradigan eng muhim tizimdir. Demak, ta’limda innovatsion klaster tizimdagi barcha yo‘nalishlarni qamrab oluvchi yangicha rivojlanishning samarali uslubidir. Sodda qilib aytganda, ta’limda innovatsion klaster taraqqiyot yo‘lida bir yoqadan bosh chiqarib ishlashning yangicha shaklidir.

Jabbor USAROV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika" fakulteti dekani, p.f.d.
Zamira SANGIROVA,
Respublika Ta'lim Markazi xodimi

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA BLOK-MODUL TIZIMIGA QO'YILADIGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLAR

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuv, bu yondashuvni modernizatsiya qilish sifatida tabiiy fanlarni o'qitishda blok-modul tizimiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablar hamda mazkur muammo yuzasidan respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Ta'lim, innovatsiya, yondashuv, ilmiy xabardorlik kompetensiyasi, amaliy kompetensiya, modernizatsiya, blok-model.

В статье рассматривается инновационный подход в системе образования, компетентностные требования, предъявляемые к блокчейн-модульной системе преподавания естественных наук в качестве модернизации данного подхода, а также проводимая в нашей республике работа по данной проблеме.

Ключевые слова. Образование, инновации, подход, научная осведомленность, прикладная компетенция, модернизация, блокчейн-модель.

The article discusses the innovative approach in the education system, the competence requirements for the blockchain-modular system of natural science teaching as a modernization of this approach, as well as the work carried out in our Republic on this problem.

Key words. Education, innovation, approach, scientific awareness, applied competence, modernization, blockchain model.

Tabiatni o'rganishga bo'lgan intilish insoniyatning ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlangan va bugungi ilm-fanning yuksak taraqqiyot darajasiga qaramasdan, hozirda ham o'zining ma'nosini yo'qotgan emas. U paytlarda tabiat haqidagi ilmiy ma'lumotlarning yetarli emasligi insonlarning axborot bilan ta'minlanish imkoniyatiyatini cheklagan bo'lsa, bugungi kunda axborotlar hajmining o'ta kengligi ular orasidan muhimlarini ajratib olish muammosini keltirib chiqarmoqda.

Mazkur muammo pedagogik qarashlar, ta'limdagi yondashuvlarning modernizatsiya qilishni, ya'ni ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Bunday modellar amaliyoti sifatida ta'limga innovatsion klaster yondashuv va fanlarni blok-modul tizimini keltirib o'tish mumkin.

O'quvchilarning tabiat to'g'risidagi ilmiy jihatdan boxabarligi ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirishda, tabiat qonunlarini asoslab berishda biologiya, tabiiyot va geografiya, fizika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlik asoslari o'quv predmetlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiatda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko‘rsatadigan ta’sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan tabiiy va iqtisodiy fanlarni bitta blok-modul sifatida qarash va ularning asosiy vazifasini belgilab olish zarur bo‘ladi. Demak, “Tabiiy va iqtisodiy fanlar” blok-modul o‘z ichiga biologiya, tabiiyot va geografiya, fizika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlik asoslari o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi.

Umumta’lim fanlari qaysi blok-modulga kirmasin, o‘quvchilarning ularni tashkil etgan fanlarni o‘zlashtirishlari uchun o‘quv motivi ustuvorlik qiladi. O‘quvchining ichki motivatsiyasining qanchalik shakllanganligi tabiiy va iqtisodiy fanlarga qiziqishi, atrof-muhit muammolarini anglashi va uni hal qilishda muhim qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda tabiiy va sotsial muhitga ta’sirini tahlil qilishda muhim o‘rin egallaydi.

Blok-modulning bunday tanlanishiga yana bir sabab fanlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashlariga yo‘naltirilganligi, shu bilan birga, o‘quvchilar inson faoliyatining tabiatga salbiy va ijobiy ta’siri, zamon va makon miqyosidagi global ekologik muammolarni va tabiat oldida javobgarlik hissini tushunishi, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Zamon talabidagi bunday kadrlarni tayyorlash yuzasidan dunyo tajribasiga nazar tashlasak, xorijiy mamlakatlarda o‘quvchilar olgan bilimlarnini amaliyot bilan bog‘lash g‘oyasi singdirilganligiga guvoh bo‘lamiz. Misol tariqasida ba’zilariga to‘xtalamiz.

STEAM ta’limi asosida tabiiy va iqtisodiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi **(PISA, TIMSS)** talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy, kreativ fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni yosh avlod ongiga singdirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Guvoh bo‘lganingdek, fizika va astronomiya o‘quv predmetlarini o‘qitishda o‘quvchilar tabiat hodisalarini va asosiy fizik jarayonlarni anglash bilan birga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda fizika va astronomiya qonunlarini qo‘llashni o‘rganishadi. Fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bunday qo‘nikmalarga ega bo‘lish sharti ayni paytda tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-moduli bo‘yicha o‘quvchilarda rivojlantiriladigan umumiy kompetensiyalarni, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilariga qo‘yiladigan minimal talablarni belgilab olish zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday kompetensiyalarning birinchisi, ilmiy xabardorlik kompetensiyasi bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchilar:

– nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

– kundalik hayotda kuzatiladigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo‘llaydi;

– hodisalarni kuzatadi, tadqiqotlar, tajribalar o‘tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblar (sekundomer, tarozi, o‘lchov tasmasi, termometr va h.k.) yordamida o‘lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi;

– turli axborot manbalarida berilgan ma’lumotlarni tahlil qiladi, saralaydi, ulardan ta’limiy maqsadlarda foydalanadi va muloqot jarayonida bildirilgan fikrlarni tushunadi, mustaqil va ijodiy fikrlaydi;

– jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘ladi hamda o‘z faoliyatini kreativ rivojlantira oladi;

– tabiiy va boshqa resurslarning jamiyatdagi o‘rni hamda shaxsiy faoliyatidagi ahamiyatini biladi;

– insonning atrof-muhitga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishini tushuntiradi hamda global va mintaqaviy ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini ayta oladi;

– ekologik muammoni hal etish yo‘llari va g‘oyalarini ilgari suradi, o‘z fikrini bayon etadi;

– salomatlik va sog‘lom turmush tarzining nazariy hamda amaliy asoslarini biladi.

– tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-moduli bo‘yicha o‘quvchilarda rivojlantirilishi ko‘zda tutilgan ikkinchi, amaliy kompetensiyalarda qo‘yidagi talablar belgilangan:

– turli axborot manbalaridan zaruriy ma’lumotlarni topa oladi, shaxsiy va kasbiy faoliyatida qo‘llaydi;

– tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo‘llaydi;

– turli jihozlardan oqilona foydalanadi, xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi;

– o‘z turmushi va yashayotgan hududining barqaror rivojlanishiga amaliy ko‘nikmalarini safarbar etadi;

– mavjud imkoniyat va resurslarini innovatsion faoliyatga yo‘naltira oladi va xalq farovonligiga ijobiy hissa qo‘shadi;

– insoniyat va tabiatning uzviyligini anglagan holda, tabiiy boyliklaridan samarali foydalanadi;

– atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etadi hamda asraydi va o‘z faoliyatida sog‘lom turmush tarziga amal qiladi;

– kundalik faoliyatida ijodiy va mantiqan fikrlab, o‘zining intellektual rivojlanishini ongli rejalashtiradi, o‘quv faoliyati natijalarini nazorat qiladi va baholay oladi.

O‘quvchilarning ilmiy xabardorlik va amaliy kompetensiyalarni egallashlari uchun, kompetent kadr sifatida namoyon bo‘lishi uchun, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish va umuminsoniy fazilatlariga ega bo‘lish uchun, Vatanni sevishga, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lishga, yangiliklarga intilishga va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishga, ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur. Quyida fizika fanining kundalik hayotda qo‘llanishi va zarurligi yuzasidan qisqacha fikrimizni keltiramiz.

Fiziklar o‘lchashlarga juda jiddiy qarashadi va boshqa fanlar va umuman jamiyat ko‘plab ajoyib o‘lchash asboblari va texnikalari ixtirosining samarali ta’siridan foyda ko‘rishgan. Zamonaviy muhandislik, shuningdek, dizayn, qurilish, optimallashtirish va aloqa kabi sohalar aniq o‘lchovlarga bog‘liq. Aniq o‘lchovlar ko‘plab ilg‘or texnologik dasturlarni amalga oshirishga imkon beradi. Misollar, materiallarni o‘rganish va boshqarish, geofizika va biologiya kabi turli sohalarda erishilgan yutuqlarni o‘z ichiga oladi. Magnit-rezonans tomografiya (MRT) skanerlari kabi murakkab asboblardan foy-

dalangan holda o‘lchov olish tibbiy tashxis qo‘yish uchun yordam beradigan va davolanish to‘g‘risida qaror qabul qilinadigan ko‘plab ma’lumotlarni taqdim etish uchun ham muhimdir.

Misol tariqasida “O‘lchovlar” mavzusini keltiramiz. Mavzuga kirishda quyidagi yo‘naltiruvchi savollar berilgan:

– O‘lchov standartlari qanday o‘rnatiladi?

– Nega noaniqlik barcha o‘lchovlarga xos?

– Noaniqliklarni qanday aniqlash mumkin? Agar kerak bo‘lsa, ularni qanday kamaytirish mumkin?

– Nima uchun o‘lchovlardagi noaniqlikning ahamiyati bor?

– Fizikaviy miqdorlarni hisoblash mahoratining foydasi qanday va uni qanday rivojlantirish mumkin?

O‘lchovlar	**Ta’lim natijalari** Talabalar quyidagilarga qodir bo‘lishlari kerak:
Fizikaviy miqdorlar va Xalqaro birliklar tizimi (SI)	a) quyidagi bazaviy miqdorlarni va ularning SI birliklarini eslang: massa (kg), uzunlik (m), vaqt (s), oqim (A), harorat (K), modda miqdori (mol). b) har qanday moddaning bitta molida 6,02 × 1023 zarrachalar mavjudligi va Avogadro N_A=6,02×10^{23} mol^{-1} raqamidan foydalanilganligi aytiladi. c) ifoda etilgan birliklarni asosiy birliklarning mahsulotlari yoki kvotensiyalari sifatida va tegishli ravishda “Asosiy miqdorlar, belgilar va birliklarning qisqacha mazmuni”da ko‘rsatilgan nomlangan birliklardan foydalaning. d) fizik tenglamalarning bir xilligini tekshirish uchun SI tayanch birliklaridan foydalaning. e) ASE nashridagi belgilar, ramzlar va tizimlar (The ASE Companion to 16–19 Science, 2000)da ko‘rsatilganidek, grafika o‘qlari va jadval ustunlarini belgilash uchun konvensiyalarni tushunish va ulardan foydalanishni anglatadi. f) ikkala tayanch va hosil bo‘lgan birliklarning o‘nlik kasrlarini yoki ko‘paytmalarini ko‘rsatish uchun quyidagi prefikslardan va ularning belgilaridan foydalaning: pico (p), nano (n), micro (μ), milli (m), centi (c), deci (d), kilo (k), mega (M), giga (G), tera (T). g) o‘quv dasturiga kiritilgan fizikaviy miqdorlarni oqilona baholash.
Skalyar va vektorlar	a) skalyar va vektor miqdorlarini farqlang va ularning har biriga misollar keltiring. b) Koplanarvektorlarni qo‘shish va ayirish. c) vektorni ikkita perpendikulyar komponent sifatida ifodalang.
Xatolar va noaniqliklar	a) tizimli xatolar (shu jumladan, nol xato) va tasodifiy xatolar o‘rtasidagi farqni tushunish. b) aniqlik va to‘g‘rilik o‘rtasidagi farqni tushunish. c) olingan miqdordagi noaniqlikni haqiqiy, kasrli, foizli noaniqliklarni qo‘shish yoki sonlarni almashtirish orqali baholang (qat’iy statistik ishlov berish shart emas).

O‘quvchilarni rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari, xalqaro innovatsion yondashuvlar, olgan bilimlarni xalqaro baholash reyting tizimi talablari asosida o‘qitish borasida ham bir qator ishlar olib borilmoqda. Masalan, “Issiqlik va temperatura” mavzusi yuzasidan quyidagi namunadagi kabi mashqlar berish tavsiya etiladi:

Komilda ikkita bir xil magnit va ikkita mix bor.

1) U “A” mangitni stol ustidagi mix magnitga tortilmaguncha siljitdi;

2) U “V” mangitni stol ustidagi mix magnitga tortilmaguncha



3) Siljitdi.

U “A” mangit mixni 15 sm dan tortishini va “V” mangit esa mixni 10 sm dan tortilishini aniqladi.

Sanjarning ta’kidlashicha, ikkala magnit ham bir xil darajada kuchlidir.

Siz ham shunday fikrdamisiz? (Bitta katakchani belgilang.)	Ha Yo‘q

Javobingizni izohlang.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy va texnologik yutuqlar bizning hayotimizga, bir-birimiz bilan qanday o‘zaro aloqa qilishimizga ta’sir ko‘rsatgani sababli, odamlarda fanning asosiy g‘oyalarini va ilmiy izlanish bilan bog‘liq amaliyotni tushunishni rivojlantiradigan ilmiy ta’limni taklif qilish juda muhimdir. Bu o‘z navbatida, ularga ilm-fan bilan bog‘liq masalalar va ushbu yutuqlar tufayli yuzaga keladigan muammolar to‘g‘risida qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Bunday shaxslarni rivojlantirish uchun ilmiy ta’lim sohasidagi tadqiqotlar fan mahsulotlarini o‘qitish (masalan, asosiy g‘oyalar, nazariyalar va modellar), fan jarayonlari va fanning tabiati o‘rtasida muvozanatni saqlash zarurligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.uza,uz

2. Suyarov K. va boshqalar. Fizika. Akademik litsey talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. 176-184 betlar. – T.: O‘qituvchi, 2002. 303 bet.

3. Muxamedov G‘.I., Xo‘jamqulov U.N. “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ta’rif, tavsif, tasnif. Uslubiy qo‘llanma, Chirchiq. 2019-y.

4. Беспалко В.П. Психологические парадоксы образования // Педагогика. –2000. №5. – С. 13-20.

5. Swinfen, T. C., & Association for Science Education. (2000). Signs, symbols and systematics: The ASE companion to 16–19 science. Hatfield, Herts: AssociationforScienceEducation.

6. Adams, S., &Allday, J. (2000). Advanced physics. Oxford, United Kingdom: Oxford University Press. (ISBN:9780199146802)

Samaridin QORAYEV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Muqaddas XUSANOVA,
Toshkent viloyati Toshkent tumani 12-umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi

PROFESSIONAL TA’LIMDA KASB-HUNAR MAKTABLARI FAOLIYATINI SIFATLI TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada professional ta’limda kasb-hunar maktablari faoliyatini sifatli tashkil etishda uchrashi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni yechish yo‘llari, kasb-hunar maktablarida mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish choralari, mashg‘ulotlarni tashkil etishda pedagoglarning o‘rni tahlil etilgan. Shuningdek, muallif kasb-hunar maktablarini tashkil etish va ularning samaradorligini oshirishning yo‘llarini ko‘rsatib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Professional ta’lim, uzluksizlik, kasb-hunar maktabi, mashg‘ulot, pedagog-muhandis, integratsiya, samaradorlik, malaka, tahlil, muammo, tabaqalashtirmoq.

В статье анализируются проблемы, с которыми можно столкнуться при качественной организации деятельности профессиональных школ в профессиональном образовании, способы их употребления, меры по эффективной организации занятий в профессиональных школах, роль педагогов в организации занятий. Автор также указал на пути организации профессиональных школ и повышения их эффективности.

Ключевые слова. Профессиональное образование, непрерывность, профессиональная школа, обучение, педагог-инженер, интеграция, эффективность, квалификация, анализ, проблема, дифференциация.

The article analyzes the problems that can be encountered in the qualitative organization of professional schools in professional education, ways of using them, measures for effective organization of classes in professional schools, the role of teachers in the organization of classes. The author also pointed out ways to organize professional schools and improve their effectiveness.

Key words. Professional education, continuity, professional school, training, teacher-engineer, integration, efficiency, qualification, analysis, problem, differentiation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son farmoni umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimi o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Farmonda beligilanishicha, “boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim muassasalariga Xalqaro tasniflagich bo‘yicha asosiy ta’lim dasturlaridan tashqari quyi darajadagi ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash huquqi beriladi. Tizimda mos ravishda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim dasturlari joriy etilgan

kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlardan iborat professional ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etiladi”.[1]

Farmonda 2020-2021 o‘quv yilidan tashkil etiladigan kasb-hunar maktablari fanlarning integratsiyalashgan dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirish, ularga 2 yil davomida kunduzgi ta’lim shaklida kasb-hunarga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni tatbiq etilishi begilab qo‘yilgan.

Ushbu hujjatlarda malakali mutaxassislar tayyorlashning yuqori sifatini va ularning amaliy ko‘nikmalarni yanada samarali egallashini ta’minlash, ta’lim-tarbiya tizimini shakllantirish, ta’lim mazmunini yangilash, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning didaktik qonuniyatlari va tamoyillarini ishlab chiqish, Davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish, fan dasturlari, darsliklarning yangi avlodi, o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish muhim vazifa sifatida hal qilinishi lozimligi ta’kidlab o‘tilgan.

Bu borada quyidagi vazifalar amalga oshirish talab etiladi:

– birinchidan, kasb-hunar ta’limi mazmunini modernizatsiyalash talablari asosida kasbga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni va texnologiyasi tuzilmasida kasbiy faoliyat elementlarini belgilab olish;

– ikkinchidan, kasbga yo‘naltirilgan tayyorgarlik bosqichlarini ta’lim mazmuni va texnologiyasi talablariga asoslangan holda belgilab olish;

– uchinchidan, kasbiy tayyorgarlik mazmunini ishlab chiqishda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar o‘rni va tarkibini aniqlash;

– to‘rtinchidan, kasb-hunar maktablarida tayyorlanayotgan o‘quvchilar kompetentligini ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mohiyat jihatidan kasbga yo‘naltirilgan yondashuv kasb-hunar maktablarini tashkil etishda kasbiylashtirish yo‘nalishi ustuvorligini ta’minlash, ushbu jarayonning tuzilmasini belgilash hamda kasbiy ta’limni tashkil etishga qaratiladi. O‘quvchining mustaqil ravishda zamonaviy fikr yuritgan holda kasbiy faoliyat yo‘nalishlarini tanlashi va amalga oshirishi uchun quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi lozim:

– zakovatlilik, ya’ni bir qarashda oddiy bo‘lgan holatlardagi muammolarni ko‘ra bilish, atrofdagi hodisalarni nafaqat kuzata olish, balki ularning sodir bo‘lish sabablarini ham anglay bilish;

– ijodiy bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish, ya’ni kuzatilayotgan hodisalarni egallangan bilimlar bilan umumlashtirish, xulosa qilish hamda yangi bilimlarni keltirib chiqara olish;

– fikrlash jarayonlarini ratsional boshqara olish, ya’ni bir qancha tushunchalarni bitta umumiysi bilan almashtira olish, ko‘plab hodisalardan asosiysini ajrata olish;

– o‘z fikrini to‘g‘ri va batafsil ifodalash, nutqining ravonligi, ya’ni muammo, g‘oya yechimlarini so‘z, raqam, fazoviy-vizual shakldagi axborotlar shaklida tez va to‘g‘ri ifodalay olish;

– ijodiy mushohadaning kengligi, ya’ni hal qilinayotgan muammoni e’tibordan qochirmagan holda, keng fikrlay olish;

– hozirjavoblik, ya’ni zarur ma’lumotlarni tez va aniq topa bilish xususiyati;

– muammoni tahlil qilish va baholay olish, ya’ni o‘rganilayotgan muammoning yechimlaridan ma’qulini tanlay olish;

– ishni oxiriga yetkaza olish, ya’ni ko‘zlangan g‘oyani to‘siq va qiyinchiliklarni bartaraf qilgan holda oxirigacha amalga oshirish;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son farmoni. www.uza.uz

– tafakkurning moslashuvchanligi, ya’ni vaziyat o‘zgarishiga mos ravishda fikrlash yo‘nalishini o‘zgartira olish.

Natijada, kasbga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish quyidagi maqsadlarga erishishga xizmat qiladi:

– kasbiy ta’lim dasturidagi alohida fanlarni chuqurlashtirib o‘rganish;

– kasbiy ta’lim mazmunini tabaqalashtirish;

– turli toifadagi o‘quvchilar qobiliyat, o‘ziga xos mayl va ehtiyojlariga mos holda mukammal ta’lim olishlariga erishiladi;

– o‘quvchilarning ijtimoiy muhitga chuqurroq kirib borish imkoniyatlarini kengaytirish, umumiy va kasbiy ta’lim o‘rtasidagi uzluksizlikka erishish, mashg‘ulot dasturlarini o‘zlashtirishga yanada samarali tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Bu, o‘z navbatida, kasb-hunar maktablarida mashg‘ulotlarni davr talablari asosida tashkil etish, o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, o‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlash, axborot resurslari va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, didaktik sharoitlarni aniqlash, ularga bilimli va yuksak pedagogik mahoratga ega, izlanuvchan pedagog-muhandislarni jalb etishni hamda ularning kasbiy malakasini muntazam oshirib borishni talab etadi.

O‘quvchilarning maktablarda olgan nazariy bilimlarini kelgusi kasbiy faoliyatida to‘g‘ri amalga oshirishda kasb-hunar maktablari muhim hisoblanadi. Bu davrda ularning egallayotgan kasbiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablarida bo‘lg‘usi mutaxassis o‘z kasbini amaliy jihatdan chuqur egallashi uchun imkoniyat yaratiladi, kasbiy ko‘nikmalar to‘la shakllanish imkoniyatlari ro‘yobga chiqadi. Bu kelgusida o‘quvchining o‘z ishining mohir ustasi bo‘lib yetishishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kasb-hunar maktablarining xarakterli jihati shundaki, unda o‘quvchining egallayotgan kasbi bo‘yicha kelgusida mustaqil kasbiy faoliyat yuritishi kerak bo‘lgan sharoit yaratiladi. Bu mashg‘ulot dasturida belgilangan vazifalarni bajarilishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, ya’ni maktablarda olgan nazariy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash, kasbiy faoliyatini to‘la amalga oshira olish ko‘nikma hamda malakalarini shakllantiradi.

Mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchining barcha fanlar bo‘yicha tayyorgarligi davom ettiriladi va o‘rganilgan fan asoslari bu jarayonda yanada chuqurlashtiriladi. Natijada, bo‘lg‘usi kasb egasining tayyorgarlik darajasi o‘sadi. Kasbga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni ilmiy-amaliy o‘quv manbalar, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash, ularga mohir pedagog-muhandislarni jalb etish, uzluksiz ta’lim tizimi bo‘yicha tajriba almashish, bilim va ko‘nikmalarini tiklash, ularni to‘ldirish va yangilash, kelajakka qaratilgan yuqoridagi qarorlarda belgilangan vazifalarni yechishga yordam beradi.

Tahlillar, kasb-hunar maktablarini tashkil etish va boshqarish muammolari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish, shuningdek, ularning yechimlarini topish bugungi kunning muammolaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda kasb-hunar maktablari uchun darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv materiallari yaratish, pedagog-muhandislar uchun uslubiy qo‘llanma hamda majmualarni tashkil etish va boshqarish metodikalarini yaratish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda tashkil etilgan kasb-hunar kollejlarida o‘quv jarayonini tashkil etish borasida tadqiqot olib borgan olimlar Q.Olimov, L.Uzoqovalarning ta’kidlashicha,

kasb-hunar kollejlarining kundalik faoliyatlari ustidan muntazam nazoratning o‘rnatilmaganligi, o‘quvchilar kollejgacha bo‘lgan davrda kasblar haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lmaganligi, kasbiy qonunlar, pedagogik va axborot texnologiyalar mohiyatidan kam xabardor ekanligi ta’kidlab o‘tiladi. Tadqiqotchilar mazkur holatning vujudga kelishida o‘ziga xos o‘rin tutayotgan sabablar quyidagilar ekanligini ko‘rsatadi:

– o‘quv amaliyotining bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi;

– o‘quv amaliyoti uchun moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog-muhandislarning yetishmasligi;

– sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda dadaktik materiallarning kamligi;

– fan va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi;

– o‘quvchilarning mehnat bozorida raqobatga etarlicha tayyor emasligi;

– ko‘pchilik o‘quvchilarda bozor munosabatlari, o‘zi egallayotgan kasb-hunar imkoniyatlari to‘g‘risida ko‘proq xayoliy taassurotlar ustunlik qilishi;

– o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash sifatli olib borilmasligi;

– bo‘sh o‘zlashtiradigan o‘quvchilar bilan ishlashda muayyan tizimning yo‘qligi;

– o‘quvchilarning to‘garaklar ishi va boshqa tadbirlarga sust jalb qilinishi;

– qo‘llanilayotgan ta’lim metodlarining turli xarakterga ega emasligi;

– o‘quvchilarning kasbga yo‘naltirilishidagi kamchiliklar.

Yuqoridagi tahlillar manbalarni o‘rganish va umumlashtirish asosida kasb-hunar maktablarini tashkil etish va boshqarishga alohida yondashishga harakat qildik.

Tahlillar natijasida olib borilgan turdosh muammolar to‘g‘risidagi manbalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan harakat natijasida kasb-hunar maktablarini tashkil etish va uning samaradorligini oshirishning quyidagi yo‘llarini aniqladik.

1. Tashkil etiladigan kasb-hunar maktablari mazmuni ta’lim muassasalari yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarni qamrab olishi. Ma’lumki, ayni vaqtda respublikamizda turli soha va yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan muassasalar mavjud. Ularda amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar mazmuniga kasbiy fanlarning asoslari, faoliyat mazmuni singdirib yuborilsa, o‘quvchilar tomonidan egallanayotgan nazariy bilimlarni qo‘llashga oid ko‘nikma va malakani shakllantirishga imkon tug‘iladi hamda ularda o‘zlari egallayotgan muayyan sohaga oid kasbiy bilimlarning egallanishi ta’minlanadi. Kasb-hunar maktablarida dars beruvchi pedagog-muhandislar bilan kasbiy bilim asoslarining uyg‘unlashuvi ta’minlanadi.

2. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi dastur va darsliklarning yetarli darajada bo‘lishi. Ayni vaqtda kasb fanlari oldida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar mazmunini belgilab berishning nazariy asoslarini aniqlash kabi dolzarb vazifa turibdi. Ushbu muammoning ilmiy yechimi uning samaradorligini oshirishda muhimdir.

3. Mashg‘ulotlarni o‘tkazishda maxsus pedagogik hamda amaliy ma’lumotga ega bo‘lgan pedagog-muhandislarning jalb etilishi. Ma’lumki, qator oliy ta’lim muassasalarida kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan, biroq bu borada amalga oshirilayotgan ishlar mavjud ehtiyojlarni qondira olmaydi. Mazkur holatning asosiy sabablari — bu o‘qituvchilarni tayyorlash fakultetiga qabul jarayonida kam o‘rin ajratilishi.

4. Kasbiy madaniyatni yuksaltirish, ta'lim dasturlari vazifalariga muvofiq kasb-hunar maktablarini tashkil etilishini nazarda tutib, mazkur muammoning yechimi nihoyatda zarurligini e’tirof etish lozim.

5. Mashg‘ulot o‘tkazuvchi pedagog-muhandislarning kasbiy bilim hamda pedagogik mahoratida oshirib borish. Ushbu holat amalga oshirilayotgan mashg‘ulot samaradorligini oshirish yo‘lidagi jiddiy to‘siq. Shu maqsadda uni o‘tkazuvchi pedagog-mu-

handislarning kasbiy va pedagogik bilimlarini oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni tashkil etish lozim.

6. O‘quvchilarda kasbiy bilimlarni egallashga nisbatan qiziqish, faollik talab darajasida shakllantirish. Ushbu holat ham o‘z-o‘zidan mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga imkon beradi. O‘quvchilarga kasbiy bilimlarni egallashning amaliy ahamiyatini tushuntirish, kasbiy fan asoslarini o‘rganishga nisbatan qiziqishni shakllantirish lozim. Bu mashg‘ulot samaradorligini oshirishga erishishni ma’lum darajada kafolatlaydi.

7. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha muassasalari o‘rtasida mustahkam hamkorlikning o‘rnatilishiga erishish. Mazkur hamkorlikning o‘rnatilishiga erishish o‘quvchilarning kasbiy bilimdonlik darajasini izchil nazorat qilib borish, uning shaxsiy hayotida vujudga keladigan muammolarni bartaraf etishda kasbiy bilimlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Tahlillar zamonaviy ta’lim sharoitida professional ta’limni tashkil etishni ilmiy-nazariy va amaliy-metodik jihatdan yetarlicha o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, professional ta’lim samaradorligini oshirishdagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘lida muayyan harakatlarni amalga oshirish natijasida, uning samaradorligi ma’lum darajada ta’minlanadi. Buning uchun mazkur ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan mashg‘ulot mazmuni, shakli, vositalari va metodlarini aniqlash, uni amalga oshirish yo‘llarini belgilab berish muhim ahamiyatga ega.

Xullas, mamlakatimiz ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha sa’y-harakatlar yetuk kadrlar tayyorlash, o‘z iqtidori va iste’dodini to‘la-to‘kis namoyon eta oladigan, hayotda o‘z o‘rnini topishga qodir barkamol shaxslarni voyaga yetkazishga yo‘naltirilgan. Bugungi kunda o‘z samarasini berayotgan bunday ishlar kelajakda mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini, hayotimiz farovonligini yanada oshirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son farmoni. www.uza.uz

2. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Ashurova S. YU. va boshq. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T.: Fan, 2004. 119-b.

Kusharbay SUYAROV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti “Fizika” kafedrasi dotsenti v.b.

TA’LIM OLUVCHILARDA O‘QUV-TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmasini shakllantirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va pedagogik shart-sharoitlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ta’lim jarayoniga qo‘llaniladigan o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini aks ettirgan ta’lim texnologiyasiga asoslan gan tamoyillarni aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. O‘quv-tadqiqot ishi, o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmasi, didaktik jarayon, omil, pedagogik shart-sharoitlar, moddiy va metodik ta’minot.

В статье рассмотрены факторы и педагогические условия, влияющие на процесс формирования у учащихся учебно-исследовательских навыков. Также автор изложил принципы, основанные на образовательной технологии, отражающие учебно-исследовательскую деятельность, применяемую к образовательному процессу.

Ключевые слова. Учебно-исследовательская работа, учебно-исследовательские умения, дидактический процесс, фактор, педагогические условия, материальные и методические обеспечения.

The article considers the factors and pedagogical conditions that affect the process of formation of students ‘ educational and research skills. The author also outlined the principles based on educational technology, reflecting the educational and research activities applied to the educational process.

Key words. Educational research work, educational research skills, didactic process, factor, pedagogical conditions, material and methodological support.

Bugungi kunda mutaxassislardan nafaqat yuqori malakaga ega bo‘lish, balki olingan natijalarni taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, yechimlarning yaxshi va maqbul shaklini tanlash hamda ulardan yangi o‘zlashtirgan bilimlarni amaliyotga qo‘llashda komtensiyaviy yondashuvni talab etmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kadrlar salohiyatiga, soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi, bilimi, tashabbuskorligi, qobiliyati, ijodkorligi va tadqiqotchiligiga bog‘liq. Shunday ekan, o‘quvchilarni o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlash, ularda maqsadga intiluvchanlik sifatlarini shakllantirish zarur.

O‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishi, yangi bilimlarni mustaqil egallashi, ta’lim va fanning rivojlanish istiqbollarini ko‘ra bilishi, ulardagi bag‘rikenglik, qobiliyat, izlanish faolligi kabi shaxsiy sifatlar rivojlanadi. Bundan ko‘rinadiki, ta’lim tizimida o‘quv tadqiqot ishlari va

o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga qodir bo‘lgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Ma’lumki, fizika o‘qitish jarayonida DTS talablariga ko‘ra, fizika o‘quv jihozlaridan bevosita foydalanish va eksperimental topshiriqlarni bajarish, tajriba natijalarini ishlash hamda unga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq qilishni bilishlari bo‘yicha o‘quvchilarda zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish nazarda tutilgan.[1]

Fizikani o‘rganishga mo‘ljallangan ta’lim dasturlari mohiyatiga ko‘ra aytish mumkinki, o‘quvchilarni o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishga o‘rgatish, ularni fizik tajribalar asosida tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish, fizika ta’limining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. O‘quvchilardagi shaxsiy intellektual-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng maqbul yo‘llaridan biri — bu o‘quvchilarni o‘quv-tadqiqot ishiga, ya’ni tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullanishga yo‘naltirishdan iborat.

O‘qitish tizimida tadqiqotchilik faoliyati – samarali bilim olish shakli bo‘lib, bu jarayonda ta’lim oluvchilarda aqliy va amaliy mehnat qobiliyati shakllanadi. O‘quvchi bilimni turli manbalar (ma’ruza, kitoblar va Internet tizimi)dan oladi, turli fizik tajribalarni o‘tkazadi va ularning natijalarini tahlil qilib, fan va texnika yutuqlari bilan tanishadi. Natijada, o‘quvchida o‘quv-tadqiqot ishi rejasini tuzish va uni bajarish, hisobot yozish, kichik o‘quv anjumanlarga ma’ruza va taqdimotni tayyorlash hamda uni taqdimot qilish kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

O‘quv tadqiqotchilik faoliyati – ta’lim texnologiyasi bo‘lib, u o‘quv tadqiqotda vosita sifatida qo‘llaniladi. Tadqiqotchilik faoliyati, tadqiqot ishining rahbari mutaxassis rahbarligida, atrof-muhit hodisalari to‘g‘risidagi tasavvurlarini yaratishga qaratilgan, shuningdek, oldindan yechimi noma’lum bo‘lgan masala o‘quvchilar tomonidan yechilishi mumkin deb faraz qiladi. O‘quv-tadqiqot ishi – ta’limdagi jarayon bo‘lib, u tadqiqotchilik faoliyati texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.[2]

Ta’lim jarayoniga qo‘llaniladigan o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini aks ettirgan ta’lim texnologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslangan bo‘lib, bunda:

Birinchi tamoyil – ijtimoiy buyurtma sifatida davlatimiz talablariga mosligi (barkamol avlodni tarbiyalash);

Ikkinchi tamoyil – yaxlitlik (jarayon yagona maqsad atrofida uyg‘unlashtiriladi va natija shaxsning intellektual salohiyatini hamda uning ijodiy qobiliyatini rivojlanishiga qaratiladi);

Uchinchi tamoyil – ilmiylik (tadqiqot ishida bayon qilanayotgan ma’lumotlar fan-texnika taraqqiyotiga mos kelishi, mustaqil o‘zlashtirgan yangi bilimlarni boshqa manbalar bilan solishtirish);

To‘rtinchi tamoyil **–** nazariya va amaliyot birligi (olgan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi shakllangan) bo‘lishi lozim.

Shuni alohida qayd etish lozimki, tadqiqotchilik faoliyati ilmiy asoslangan bilimlarni egallash usuli sifatida mantiqiy tizimlashtirilgan mulohazalarning alohida turi asosida quriladi. Bunda tadqiqotchilik faoliyatining tarkibiy qismi motiv, mazmun, maqsad va baholashdan iborat bo‘lib, ular o‘quv-tadqiqot faoliyati yo‘nalgan obyektida, o‘quv-tadqiqot ishining ta’minotida (o‘quv adabiyotlari, jihozlar), o‘quv-tadqiqot ishining bajarilish jarayonida faoliyatning beradigan mahsuli sifatida mantiqiy izchillik, uzviylik va tizimlilik talablariga amal qilinadi.

Tadqiqotchilik ko‘nikmasi – o‘quvchining individual psixologik xususiyati bo‘lib, unda bir qancha ko‘rinishdagi amaliy faoliyat (tadqiqot ishiga oid ma’lumotlarni yig‘ish, fizik tajribini

[1] Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standarti. – T., 2017 y.

[2] Савенков А.И. Исследовательское обучение и проектирование в современном образовании // Исследовательская работа школьников. – М., 2004. №1. – С. 22-32.

o‘tkazish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dasturlaridan foydalanish)lar samarali amalga oshiriladi. Tadqiqotchilik ko‘nikmasining asosini aqliy mehnat, ijodiy faoliyat tashkil qiladi. Bularga ish g‘oyasini tushunish, o‘zining mustaqil fikrini bayon etish, yuzaga keladigan muammoni mustaqil hal qilish, amaliy harakatlarni tez va to‘g‘ri bajarishlari natijasida o‘quvchida o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni o‘qitish maqsadlari bilan uzviy bog‘liq. O‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarining o‘ziga xosligi va tavsifi o‘qitish mazmunida aks etadi, uning shakllanganlik darajasi esa didaktik jarayon natijasi hisoblanadi.

I.P. Podlasiy[3] o‘qitishda didaktik jarayonning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi to‘rt omilni ajratib ko‘rsatgan:

1) o‘quv materiali;
2) tashkiliy-pedagogik ta’sir;
3) o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi;
4) vaqt.

O‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ularda fizik eksperimentlar asosida o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarni shakllantirish muammosini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. I.P. Podlasiyning mazkur omillar haqidagi qarashlari mazmunini tadqiqotimiz misolida ko‘rish mumkin.

Birinchi omil – o‘quv materiali. Fizika o‘qitishdagi o‘quv materiallariga mos va o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan mazmunini aniqlashtirib olinadi. Podlasiy bunday mazmun haqida gapirganda, u muayyan ta’lim muassasasida o‘zlashtirish uchun tanlangan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimidan iborat deb qaragan. Uning fikrini quvvatlagan holda, eng avvalo, o‘quvchilarida fizik tajribalar asosida o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish mazmunini ishlab chiqishda qanday tamoyillardan foydalanish zarurligi masalasini hal etish lozim. Quyidagi tamoyillar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq:

– ilmiylik (o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatida tayaniladigan asosiy tushunchalar, qonuniyatlarni o‘rganishning nazarda tutilishi);

– tizimlilik (sinfda va sinfdan tashqarida bajariladigan fizik eksperimentlarni qamrab oluvchi majmuaviy yondashuv mazmunini ishlab chiqish va joriy etish hisobiga erishiladi);

– izchillik (o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati davomida o‘quvchiga berilgan har bir yangi topshiriq avval bajarilgan topshiriqqa tayaniladigan bo‘lishligi);

– tushunarlilik (bilishga oid bo‘lgan namoyish tajribalari, amaliy mashg‘ulot, ijodiy topshiriq va ijodiy masalalar, o‘quv-tadqiqotchilik masalalari, muammolarni yechish imkoniyatlaridan foydalanish orqali ta’minlanadi);

– o‘quv-tadqiqot ishi o‘quvchilarning yoshiga xos qobiliyatiga va imkoniyatlari bilan mos bo‘lishi.

Ikkinchi omil – tashkiliy-pedagogik ta’sir. Sinfda va sinfdan tashqarida mashg‘ulotlarda tashkiliy-pedagogik ta’sir etuvchi omillar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. O‘qitish uslublari. O‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda suhbat, ma’ruza, munozara, mashqlar, ijodiy turdagi eksperimental masalalarni yechish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlar, bilishga oid namoyish tajribalar, muammoli vaziyatlarni yaratish metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

2. O‘quv-tadqiqot faoliyatini tashkil etish. O‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qitishning turli shakllaridan foydalaniladi: individual, guruhli va frontal.

3 Подласый И.П. Педагогика: 100 вопросов – 100 ответов. – М.: “Владос-пресс”, 2006. – С.156-159.

3. Axborot ta'minoti. O'quv-tadqiqot ishi ehtiyoji uchun yangi ma'lumotlarni yig'ish muhim sanaladi. To'plangan ma'lumotlar esa fan asoslarining axborot ta'minotini ta'minlaydi va o'quv-tadqiqot ishining samarali yakunlanishiga xizmat qiladi.

4. Nazorat qilish va natijalarni baholash. O'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini nazorat qilish orqali ma'lum natijalarga erishiladi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar ishi baholanadi: olingan axborotlardan samarali foydalanishi; ishni tashkil etish va uni bajarish ketma-ketligi; tadqiqot ishidagi fizik hodisaning mohiyatini bilishga bo'lgan munosabati; ijodiy fikrlash darajalari; tadqiqot ishining natijalari bo'yicha tayyorlangan hisoboti, xulosasi va taqdimoti.

Didaktik jarayon samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi uchinchi omil – o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi (umumiy tayyorgarlik, ya'ni o'quv-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun tayanch bilimlarning mavjudligi, izlanish faolligining shakllanganligi, psixologik xususiyatlari, shaxsiy sifatlar va boshqalar);

To'rtinchi omil – vaqt (vaqtni to'g'ri taqsimlash va undan unumli foydalanish).

O'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni yuqorida sanab o'tilgan omillarning majmuaviy yondashuvni joriy etilishi o'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish imkonini beradi.

Innovatsion dasturlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish ta'lim muassasalarining moddiy-texnik zaxirasini zamonaviylashtirish masalasini hal etish bilan bog'liq. Yuqorida sanab o'tilgan omillar qatoriga o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi yana bir omil – ta'lim muassasasining metodik resurs zaxiralarini kiritish mumkin. Chunki o'qitishda ta'lim muassasasining moddiy ta'minoti muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasining moddiy-texnik zaxirasi ta'limni samarali tashkil etishda va fizik tajribalar asosida o'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi, bevosita o'quv-fan laboratoriya xonalarining jihozlanganligiga hamda ta'lim muassasasining o'quv vositalari (zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik dasturiy vositalar va o'qitishnig boshqa zamonaviy didaktik vositalari) bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Ushbu omilni ta'minlash ko'p jihatdan o'quv muassasasida ta'limni boshqarish sifati, metodist olimlar va har bir pedagogning kasb mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim mazmuni faqat obyektiv bilim bilan emas, balki faoliyatli shaklda ham ifoda etiladi (faol kommunikativ jarayonni tashkil qilish, hamkorlikda ijodiy ishlash munosabatlari, o'quv-tadqiqotchilik faoliyatida nazariy bilimlarni qo'llash va shu kabilar). Bunday ta'lim mazmuni samaradorligini barcha zarur o'quv jihozlari va vositalari yetarlicha mavjud bo'lgan holdagina samarali amalga oshirish mumkin. Shu bois darsliklar, uni o'qitish metodikalari, ta'limning zamonaviy texnologik vositalarini o'z ichiga qamrab oluvchi o'quv-metodik majmualarini yaratish dolzarb masala hisoblanadi.

Ta'lim mazmunining o'zgarishi o'quv yuklamasi va uni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish usulining o'zgarishiga olib keladi. Aytib o'tilganlardan ko'rinadiki, uchinchi omil, ya'ni o'quv tarbiya jarayonini talab darajasida tashkil qilish, o'quvchilarda fizik eksperimentlar asosida o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish muammosini hal qilishda muhim omillardan hisoblanadi. Darhaqiqat, metodik shart-sharoitlar aniq bir natijaga erishish maqsadida o'qituvchi tomonidan u yoki bu darajada ongli ravishda loyihalangan ta'lim jarayonining borishiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi sharoit hisoblanadi. Demak, bundan ko'rinadiki, individ psixikasini, bilim, ko'nikma va malakalarni samarali shakllantirish uchun muhim pedagogik shart-sharoitlarni oldindan loyihalash zarur.

Mazkur pedagogik shart-sharoitlarning har birini quyida qisqacha qarab o‘tamiz. O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi eng *birinchi pedagogik shart-sharoit* **–** bu ta’lim mazmuni va uning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish. Fan o‘qituvchisi o‘quvchiga o‘quv fani o‘tishni boshlagandan turli mavzular (Tajribalarni o‘tkazishga bo‘lgan qiziqish – bu fan olamiga qo‘yilgan dastlabki qadam”,“Kuzatish, tajribalar o‘tkazish va tahlil qilish – ilmiy kashfiyotlarning manbai”, “Olim bo‘lsang olam seniki”, “Buyuk olimlar nomi tarixda abadiy qoladi”, “Abu Rayhon Beruniy, M.Ulug‘bek, I.Nyuton, G.Galiley, Kyurilari sulolasi”, “O‘zbekistonda maktab yaratgan olimlar” kabi)da suhbatlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqot ishlariga qiziqish o‘yg‘otilsa, hamda o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga uzluksiz tayyorlash tizimi kompetentlik nuqtai nazaridan ishlab chiqishi, ularda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarining shakllanishiga asos bo‘ladi.

Ikkinchi pedagogik shart-sharoit – o‘quv-tadqiqot mashg‘ulotlarini tashkil etish va ularning tashkiliy-metodik ta’minotini ta’minlash. Ushbu shart-sharoit dolzarbligi, bizning fikrimizcha, ta’lim muassasasi o‘quvchilarida faoliyatning asosiy turi o‘quv-bilish, o‘rganish jarayonidan iborat bo‘lib, keyinchalik u tadqiqotchilik faoliyatiga aylanadi. Uni tashkil qilish va amalga oshirish sifati, eng avvalo, ta’lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyati bilan belgilanadi. O‘quv muassasasida ta’lim samaradorligini oshirishning eng asosiy vositasi, birinchi navbatda, pedagogik tizimning ilmiy-metodik, moddiy-texnik, ijtimoiy-madaniy ta’minotining majmuaviy tizimi mavjudligi, ikkinchidan, ta’lim muassasasida yuqori malakali kadrlarning mavjudligi hisoblanadi. Ma’lumki, ta’lim natijalari ko‘p jihatdan o‘qituvchining o‘qitishni tashkil qilishiga va uni o‘tkazish bo‘yicha sarflagan mehnati, bilimi, mahorati hamda pedagogik tajribasiga mutanosib bo‘ladi.

O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning *uchinchi pedagogik shart-sharoiti* **–** o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining muvaffaqiyati o‘quv mashg‘ulotlarini faol tashkil etish hamda o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va tadqiqotchilik faoliyatiga individual tayyorligi bilan ham belgilanadi.

O‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslangan texnologiyalar hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchining o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish bo‘yicha metodik faoliyati muhim sanaladi. Bunday pedagogik jarayonda o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil bilim olish va rivojlanish subyektiga aylanadi. Hozirgi kunda ta’lim sohasida keng qo‘llanilayotgan kontekstli yondashuv ana shunday ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Fizika o‘qitishning yangi va an’anaviy shakllari va metodlari yordamida amalga oshiriladigan ta’limning kontekstli turining asosiy xususiyati predmetli va ilmiy mazmundagi o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatni modellashtirish hisoblanadi.

Bugungi kunda fizika o‘qitishda o‘quvchi shaxsini faollashtirish strategiyasi ustuvorlik kasb etmoqda. Bunga ta’lim jarayonini o‘qitishning faol metodlari va shakllarini qo‘llagan holda tashkil etish orqali erishiladi, ya’ni ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi va kontekstli yondashuvga tayaniladi. Bunda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik-pedagogik sharoitlar, uning obyektiv va subyektiv tomonlariga bog‘liq bo‘lib, uning obyektiv tomonlari:

a) bu pedagog bilan bog‘liq bo‘lgan sharoit: o‘qituvchidagi pedagogik qobiliyatlar (tashkilotchilik, muloqot qila olish, tadqiqotchilik, ilmiy- bilish qobiliyatlari) shaklanganligi; o‘qituvchi o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini shunday tashkil etishi kerakki, bunda o‘quvchi qiziqish bilan o‘quv-tadqiqot ishini bajarsin va o‘z xohishi bilan o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini egallashga harakat qilsin; o‘qituvchi o‘quvchiga o‘quv-tadqiqot ishini berishda maqsadni

aniq qo‘yib va uni bajarilish jarayonida o‘quvchi bilan hamkorlikda samimiy munosabatda shug‘ullanadi, maqsadga intilish uchun unda motivlarni uyg‘otadi.

b) o‘quv qobiliyatini shakllantirish bilan bog‘liq sharoit: o‘quv muassasasida o‘quv adabiyotlari (shuningdek, qo‘shimcha adabiyotlar, ma’lumotnomalar), Internet tizimi, o‘quv-laboratoriya jihozlari yetarli darajada ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Subyektiv, ya’ni o‘quvchi shaxsi bilan bog‘liq tomonlar: o‘quvchining yangi bilimlarni egallashi uchun o‘z ustida ishlashi, mustaqil fikrlashi, maqsadga erishish uchun o‘zida qiziqish hosil qilishi, erishgan yutuqlarini o‘ziga ishonch hosil qilib, o‘quv-amaliy anjuman qatnashchilari oldida namoyon qilishga bo‘lgan ehtirosi.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktab bitiruvchilari bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi bilan birga, kelgusidagi kasbiy funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyor bo‘lishi kerak. Zamon talabidan kelib chiqqan holda bugungi kunda o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishning didaktik tizimi (amaliy mashg‘ulotlarga oid topshiriqlar, o‘quv-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar, o‘quvchilarning topshiriqlarni mustaqil bajarishlari uchun yo‘riqnomalar, tadqiqot ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiya dasturlaridan foydalanish)ni ishlab chiqilishini taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.

2. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standarti. – T., 2017-y.

3. Подласый И.П. Педагогика: 100 вопросов – 100 ответов. – М.: “Владос-пресс”, 2006. – С.156-159.

4. Савенков А.И. Исследовательское обучение и проектирование в современном образовании // Исследовательская работа школьников. – М., 2004. №1. – С. 22-32.

Mavjuda TILAKOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi dotsenti v.b.
Nodira Eshmonova,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi o‘qituvchisi

KREATIV QOBILIYAT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARINING ILMIY-PEDAGOGIK TALQINI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘quvchi shaxsini ma’naviy, intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantirish, dolzarb ahamiyatga ega ijtimoiy-pedagogik masala, kreativlik, kreativ qobiliyatlar haqida so‘z borgan. Shu bilan birga, intellekt, intellektual faoliyat, ijod, ijodkorlik, intellektual ijodkorlik, qobiliyatlar, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, ijodiy tasavvur, intellektual-ijodiy jarayon, mexanizm – tabiat qonunlariga ko‘ra amal qiladigan hodisa yoki harakatlar tizimi, amalga oshishiga ko‘maklashuvchi qurilma yoxud asboblar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Kreativ, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, shaxs kreativi, qiziqish, emosional-ijobiy, ijodiy kayfiyat, tarixiy-madaniy, milliy-tarixiy, jahon qadriyati.

Сегодня креативность – важный критерий личности, фактор ее целостного развития. Поэтому в государственной образовательной политике креативности – активному творчеству на интеллектуальном уровне, естественно, на познавательной основе, в настоящее время придается особенное внимание. В образовательной политике Узбекистана среди развития основных качеств и способностей обучающихся выделены творческие – творческий потенциал личности. С особенным вниманием к интеллектуально-творческому мышлению. Что вполне правомерно, поскольку сегодня требуется новое мышление – смелое, оригинальное, творческое, инициативное, конструктивное, инновационно-новаторское.

Ключевой слова. Креатив, креативному изучению учащимися 8-9-ых классов, развития креативных способностей, креативное изучение – о креативе, рол и значение креатива в духовном, интеллектуально-творческих способностях.

Today creativity is the important criterion of the person, the factor of his complete development. Therefore in the state educational policy of creativity - at intellectual level, naturally, on an informative basis, the especial attention now is given to active creativity. In the educational policy of Uzbekistan among development of the basic qualities and abilities trained are allocated creative - potential of the person with special attention to intellectual-creative thinking. That is quite lawful, as the new thinking - courageous, original, creative, initiative, constructive, is innovative-innovative today is required.

Key words. Original, creative, initiative, constructive, innovative, yeducation, develop ment, basic, quality, level, thinking.

Zamonaviy o‘quvchi shaxsini ma‘naviy, intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega. Ijtimoiy-pedagogik va ustuvor masala sifatida kreativlik, kreativ qobiliyatlar, intellekt, intellektual faoliyat, ijod, ijodkorlik, intellektual ijodkorlik, ijodiy tasavvur, intelellektual-ijodiy jarayon, faoliyat kabi tushunchalarni o‘rganadi.

Shaxsning muhim mezoni uning yaxlit tarzda rivojlanishi motiv – ehtiyojni qanoatlantirish uchun ongli ravishda harakat qilish, kreativni rivojlantirishga qaratilgan yuqori emosional-ijobiy kayfiyat, tarixiy-madaniy yodgorliklarni badiiy-estetik tarzda idrok qilish, "O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklari kreativ o‘rganish" mavzusidagi sinfdan tashqari mashg‘ulotlar mazmunining o‘quvchilar kreativ – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tarixiy-madaniy, milliy-tarixiy ahamiyat va jahon qadriyati sifatidagi obyektga e’tibor berishdir. Hozirgi zamon shaxsi kreativining muammosi yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Rivojlanayotgan jamiyatga ijodiy, eng avvalo, intellektual-ijodiy, dadil, noan’anaviy va o‘ziga xos tarzda fikrlashga, muammolarni samarali hal qilishga qodir bo‘lgan shaxslar zarur.

Bugungi kunda o‘zini faoliyatning har xil turlarida namoyon etuvchi kreativ shaxslar kerak. Shaxsning muhim mezoni – uning yaxlit tarzda rivojlanishining omilidir. Shuning uchun davlat ta’lim siyosatida kreativlikka – intellektual darajadagi faol ijodga alohida e’tibor berilmoqda.[1]

Ijodiy faoliyat jarayonida qobiliyatning hissiy idrokdan abstrakt tafakkur sari o‘sishi, amaliy empirik tajriba negizida rivojlanib borishi kuzatiladi. Qobiliyat rivojlanishning dastlabki bosqichi maktab davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilarda ijodkorlik bo‘yicha boshlang‘ich tushunchalar shakllanadi. O‘quvchilarning kreativ-ijodiy faoliyatga yo‘naltirishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutib, unda o‘quvchilar ijodkorlik faoliyatini o‘zlashtiradilar hamda o‘qituvchi rahbarligida ununig muayyan shakli bilan mustaqil shug‘ullanadilar.

O‘quvchilarning intellektual-ijodiy faoliyati – bu tarixiy-madaniy obyektni, uni tarixiy-madaniy va badiiy-estetik jihatdan idrok qilishga nutqiy shaklda anglash va aks ettirishga – o‘z bilimlari va taassurotlarini boshqalarga uzatish uchun aniq bir maqsadda yo‘naltirilgan faol fikriy-ijodiy faoliyatdir. O‘quvchilarga bu faoliyatning uning har xil turlarida takomillashtirilishini rag‘batlantiradigan sifatlar va qobiliyatlar zarur. Masalan, emosional madaniyat, predmet (obyekt)ni idrok qilishning kuchliligi va chuqurligi, texnologik, mantiqiy-tahliliy fikrlash, ijodiy tasavvur, umumlashtirilgan tarzda “his etish” va boshqalar.

O‘quvchilar faoliyat to‘g‘risida qandaydir tasavvurga egadir. Biroq faoliyat turlari to‘g‘risidagi aniq-nazariy jihatdan emas, balki shu vaqtning o‘zida, bu bilimlarga nisbatan qiziqishni sezsalar-da, ular faoliyatning strukturaviy-darajali jihatlari, texnologiyasi va sxemasi to‘g‘risida mulohaza yurita olmaydilar. Shuning uchun ularni faoliyat nazariyasi va amaliyoti, xususan, birinchi navbatda, axborot-idrok qilishga oid sohada va milliy va jahon qadriyati hisoblangan qadimiy me’morchilikning yeng buyuk tarixiy-madaniy yodgorliklarini badiiy-estetik tarzda idrok qilish bo‘yicha intellektual-ijodiy kurs bilan tanishtirish lozim.

Motiv – ehtiyojni qanoatlantirish uchun ongli ravishda harakat qilish xohishi, ya’ni istak, mayl – uning qanoatlanishini talab qiladigan ehtiyoj sifatida rivojlangan ongli ravishdagi qiziqish. Inontirish, ishonch, axloqiy-psixologik va psixologik-pedagogik ta’sirlar (ko‘rsatmalar) ostida, emosional-psixologik muhitda, shaxsiyatli ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqarli kreativ faoliyatning istiqbolini ochish bilan vujudga keladi.

Motiv va motivasiya to‘g‘risida yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda quyidagi fikrlarni alohida ta’kidlaymiz: jarayonni motiv vositasida – ijtimoiy-shaxsiyatli omillar ta’sirida faollashtirish lozim, u muntazam ravishda rivojlangan va boyitilgan holda shaxsning strukturasiga kiradigan ijobiy motivasiyaning madadiga ehtiyoj sezadi, ayniqsa, agarda tashqi omillar shaxsiyatli omillarga tayangan bo‘lsalar. O‘quvchilar bilan olib boriladigan motivasiyaviy ishda qiziqishlar va ehtiyojlarning birligi muhim. Bu O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini ularning majmuida – shaxs kreativini takomillashtirish maqsadlarida emosional-faol tarzda kreativ ravishda idrok qilishga oid ehtiyojiy faoliyatni asoslab beradi.

[1] Mirziyoyev Sh. Bugungi ma’rifatga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/ustuvor/. 05.09.2019.

Shunday qilib, kreativni rivojlantirishga qaratilgan yuqori emosional-ijobiy kayfiyat, keyin esa – unga bo‘lgan ehtiyoj seziladi. Ko‘rib chiqilgan psixologik jihat pedagogik tag ma’noga ega va tadqiq qilinayotgan jarayonning nazariy-pedagogik va nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqishda psixologik-pedagogik mo'ljal sifatida xizmat qiladi.

“O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklari: kreativ o‘rganish” mavzusidagi sinfdan tashqari mashg‘ulotlar mazmunining o‘quvchilar kreativ – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik modeli:

– o‘quvchilar bilan olib boriladigan motivasiyaviy ish;

– psixologik-pedagogik tuzilishi – mo'ljal;

– lug‘aviy-tushunchaviy ish;

– O‘zbekiston hududidagi eng buyuk me’morchilik yodgorliklari to‘g‘risidagi tarixiy-madaniy axborot;

– O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini tadqiq qilishdagi kreativ o‘rganish;

– intellektual-ijodiy amaliyot;

– ijodiy topshiriqlar va intellektual-ijodiy ishlar, konsultasiyalar;

– intellektual-ijodiy “mahsulot”ni e’lon qilishga tayyorlash;

– intellektual-ijodiy “mahsulot”ning, kreativ qobiliyatlarning ijtimoiylashtirilishi;

– nazorat-yakuniy mashg‘ulot;

– erishilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish;

– o‘quvchilarni o‘z kreativ intellektual-ijodiy mo'ljallarini yanada o‘z-o‘zini takomillashtirishga yo‘naltirish.

Algoritmlar: tarixiy-madaniy materialni idrok qilish va tarixiy madaniy yodgorliklarni idrok qilish – tahlil qilishga oid atama.

Idrok qilish – tarixiy va madaniy yodgorliklarni tahlil qilish jarayoni analizi o‘quvchilarni quyidagilarga urg‘u berishga yo‘naltiradi:

1. Ixtiyoriy emosional-hissiy, subyektiv-shaxsiyatli idrok qilish, umuman aytganda, boshlang‘ich taassurot.

2. Yodgorlik to‘g‘risida axborot: tarixiy-madaniy, uning qurilishi, vazifasi to‘g‘risida.

3. Ikkilamchi ravishda idrok qilish (barcha rakurslarda) – ikkilamchi taassurotni anglab olish.

4. Idrok qilish – umumiy arxitektura qiyofasini, siluyetini, chiziqlarini, shaklini, kompozisiyani, tomonlarining konstruksiyalari taraflari, qismlari, parchalarini, tashqi-badiiy va estetik me’moriy-bezash san’atini, ichki-intererli me’moriy-bezash dekorini; tasviriy-ifodali vositalarini, ularning mazmun bilan o‘zaro nisbatini umumiy ma’no – so‘z-mazmundorligi va boshqa jihatlarini ifodalaydi – u davrda va hozirgi vaqtdagi.

5. Milliy qadriyat va jahon merosi sifatida ifodalanadigan yodgorlik to‘g‘risida mulohaza yuritish.

6. Yodgorlikka nisbatan o‘z munosabatini belgilash.

Shunday qilib, o‘quvchilardan qadimiy yodgorliklarni ifodalovchi: idrok qilish emosionalligi; yodgorlikni mazmuni va shakli birligida, reja – mo'ljal bo‘yicha o‘rganish maqsadga muvofiq; ko‘rish, qarash, bu qadriyatni anglab, tushunib olish; uning arxitektura-badiiy komponentlarini ajratish; inshootning, shu jumladan, uning yaxlit qiyofasidagi estetikasini ko‘rish; o‘zaro bog‘liqligini (qismlari va bir butun bo‘lagini) sintezlash, tahlil qilish, strukturalashtirish usullarini egallash; umumlashtirish; xulosa chiqarish; o‘z fikriga ega bo‘lish.

Qadimiy me’morchilik yodgorliklariga bag‘ishlangan o‘quvchilarning intellektual-ijodiy ishlariga nisbatan quyidagi oriyentir belgilangan: qiziqish, emosional-ijobiy, ijodiy kayfiyat; tarixiy-madaniy, milliy-tarixiy ahamiyat va jahon qadriyati sifatidagi obyektga e’tibor; qadimiy me’morchilik obyektining me’moriy-timsolli ifodaliligini his etish; ishda yodgorlik tasvirining borligi; ishning aniq bir maqsadining belgilanganligi; uning mazmunining rejalashtirilishi; materialning idrok qilish jozibaliligi; mantiqiyligi va izchilligi, ijodiy tasavvur

bilan bayon qilishning yorqinligi va ifodaliligi; qiziqarli material, tarixiy dalillar, voqealardan, dohiyona (Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek va boshqa shu kabi) shaxslar timsollaridan foydalanish; yodgorlikning nafaqat tarixiy-madaniy, balki me’moriy-badiiy qimmatligini, estetikasini, emosional ta’sirini, har yoqlama mangu qadriyatini ochib berish; o‘zining dadil mulohazasi va fikrini bildirgan holda asosiy mazmunning umumlashtirilishi bilan, yozilganni lo‘nda ravishda umumlashtirish; o‘z kreativining o‘z-o‘zini ochib berish va o‘z-o‘zini namoyon etish; foydalanilayotgan adabiyotlar ro‘yxatini keltirish.

O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini sinfdan tashqari o‘rganish jarayonida ko‘rib chiqilgan, o‘quvchilar kreativ – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik aspektlari haqqoniy va pedagogik jihatdan samaralidir, bu ushbu yoshdagi o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni va natijalariga bag‘ishlanadi.[2]

"O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklari: kreativ o‘rganish mavzusini sinfdan tashqari o‘rganish" jarayonida o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning ko‘rsatkichlari va mezonlarini keltiramiz.

Ko‘rsatkichlar: motivasiyaviy zamonaviy shaxsni takomillashtirishda kreativ rivojlanish zarurligining anglab olinishi, idrok qilishi, faoliyatli-ijodiy, aks ettiruvchi – intellektual-ijodiy, kommunikativ, o‘z-o‘zini takomillashtirishi tushiniladi.

O‘zbekiston tarixiy-madaniy merosini sinfdan tashqari kreativ o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning kreativ – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mezonlari:

1. O‘z kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga nisbatan qiziqish va motiv; o‘z kreativ potensialini rivojlantirish istagi.

2. “Kreativ” tushunchasini, undagi intellektual-ijodiy qobiliyatlarning muhimligi, roli va ahamiyatini bilish – tushunish – anglab olish.

3. O‘zbekiston hududidagi qadimiy-me’moriy yodgorliklarini faol kreativ-idrok qilish asosida o‘rganish.

– tarixiy-madaniy;

– badiiy-me’moriy.

4. Umri boqiy milliy tarixiy-madaniy meros va jahon boyligi hisoblangan O‘zbekiston qadimiy me’moriy yodgorliklari to‘g‘risidagi nazariy-amaliy topshiriqlar, ishlar, egallangan bilimlar va taassurotlarning har xil turlarini kreativ – intellektual-ijodiy tarzda aks ettirish.

5. O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklariga bag‘ishlangan intellektual-ijodiy ishlarni maktabdagi tadbirlarda chiqishlarning turli darajalarida tayyorlash va amalga oshirish.

6. O‘z kreativ – intellektual-ijodiy qobiliyatlarini, shaxs kreativini o‘z-o‘zini takomillashtirishga shay turish.

Xulosa qilib aytganda, kreativ qobiliyatlarning ixtisoslashuvi maktab o‘quvchilarining qiziqishlarini, ishlarning tanlanishini va faoliyatini belgilaydi. Shuning uchun o‘quvchilarning, ayniqsa, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar va tadbirlarda individuallashishiga e’tibor berish zarur. Shunday qilib, o‘quvchi shaxsining yoshi shaxs shakllanishining muhim davridir. Undan tashqari, bu yosh o‘z psixikasining xususiyatlari bo‘yicha kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga tayyor, bunga nisbatan to‘la anglangan ehtiyojga yega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Bugungi ma’rifatga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/ustuvor/. 05.09.2019.

2. Ермолаева-Томина Л.Б. Проблемы развития творческих способностей детей // Вопросы психологии, 1985. № 5. б. 166-167.

3. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб, 2000. – 120 б.

[2] Ilin Y.P. Motivasiya i motivы. – SPb, 2000. – 120 c.

Otabek YO‘LDOSHEV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

O‘QUVCHILAR AKSIOLOGIK TARBIYASI VA TEXNOGEN SIVILIZATSIYA: SABAB, OQIBAT VA NATIJA

Annotatsiya

Maqolada texnogen sivilizatsiyaning ijtimoiy hayotdagi ijobiy, salbiy oqibatlari, u keltirib chiqarayotgan muammo va sabablar hamda uning yechimlari, xususan, bu borada yoshlarning mulohazalari, munosabatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif texnogen sivilizatsiyaning murakkab ijtimoiy madaniyatlar jarayoni sifatida tushunishda maxsus yondashuvni talab qilinishini aytib o‘tgan.

Kalitso‘zlar. Axloq, globallashuv, shaxs, muhit, ijtimoiy muhit, madaniyat, texnogen, sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya.

В статье рассмотрены положительные, отрицательные последствия техногенной цивилизации в общественной жизни, проблемы и причины, вызываемые ею, а также ее решения, в частности, отзывы и отношение молодежи к этому вопросу. Автор также отметил, что техногенная цивилизация требует особого подхода к пониманию как сложный процесс социальной культуры.

Ключевые слова. Мораль, глобализация, личность, окружающая среда, социальная среда, культура, техногенный, цивилизация, техногенная цивилизация.

The article considers the positive and negative consequences of technogenic civilization in public life, the problems and causes caused by it, as well as its solutions, in particular, the feedback and attitude of young people to this issue. The author also noted that technogenic civilization requires a special approach to understanding as a complex process of social culture.

Key words. Morality, globalism, personality, environment, social environment, culture, technogen, civilization, technogen civilization.

Insoniyat sivilizatsiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda turli g‘oyalar va fikrlar to‘qnashuvining guvohi bo‘lamiz. Bu jarayonlarni o‘rganish bugun amalga oshirilayotgan ilmiiy-tadqiqot ishlarining baxs mavzusiga aylanib bormoqda.

O‘tgan XX asr insoniyat xotirasida o‘zining iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi bilan xarakterli xususiyatga ega bo‘ldi. Aynan shu davrda ilmiy kashfiyotlar, texnikaviy ixtirolar ishlab chiqarildi. Ushbu yaratilgan barcha yangiliklar texnogen rivojlanish, ya’ni sivilizatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lishiga olib keldi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu davr texnogen sivilizatsiya davri deb yuritila boshlandi.

Texnogen sivilizatsiya juda ko‘p global inqirozlarni vujudgaga keltirdi, shu ning uchun uning rivojlanish strategiyasi va qadriyatlar sistemasi muammo bo‘lib qoldi. Bu qadriyatlar nimalardan iborat? Bu savolga javob berish uchun sivilizatsiyaning rivojlanishini qarab chiqamiz. Umuman olganda, sivilizatsiyani ikkita katta turga bo‘lish mumkin: an’anaviy sivilizatsiya va g‘arb sivilizatsiyasi. G‘arb sivili-

zatsiyasini texnogen sivilizatsiya deb atash mumkin, chunki uning rivojlanishida doimiy izlanish va yangi texnologiyalarni qo‘llash asosiy rol o‘ynaydi. Unda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlovchi ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalanishdan tashqari ijtimoiy boshqarish va ijtimoiy kommunikasiya texnologiyalari ham muhim ahamiyatga ega.

XX asrning oxirgi o‘n yili davomida sivilizatsiyaga doir yangi va yangi konsepsiyalar, qarashlar, g‘oyalar yuzaga keldi. Masalan, yapon tarixchisi Sh. Ito madaniyat bobida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning asosiy sababini umumsayyoraviy sivilizatsiya bilan lokal sivilizatsiyaning o‘zaro aloqadorligidan izlaydi. Bunday konsepsiya va qarashlarning ta’siri o‘laroq yangi va yangi tushunchalar yuzaga kelmoqda: “markaziy sivilizatsiya” (D.Uilkinson), “sivilizatsiya jarayoni” (N.Elias), “bo‘lingan sivilizatsiya” (S.Xantington), “savodsizlik sivilizatsiyasi” (M. Nadin). Yangi va yangi muammolar kun tartibiga qo‘yilmoqda: sivilizatsiya – yovvoyilik manbai (S. Latush, P. Kaufman), o‘z-o‘zini madaniy identifikasiyalash va sivilizatsiyalar to‘qnashuvi (S. Xantington) va h.k.

O‘zbek falsafasida ham sivilizatsiyalar taraqqiyoti, hozirgi zamon sivilizatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan risolalar va maqolalar talaygina. Xususan, atoqli olima F. Sulaymonova sivilizatsiyalarning turli tiplari o‘rtasida dialektik aloqadorlik mavjudligini asoslab berishga muvaffaq bo‘ldi.

Texnogen sivilizatsiyani murakkab ijtimoiy madaniyatlar jarayoni sifatida tushunish maxsus yondashuvni talab qiladi. Eng murakkab bo‘lgan muammoni soddalashtirish va bir tomonlama talqin qilishga olib keladi. Uning manbalarini o‘tgan davrlardan topish mumkin, ammo uning ta’siri zamonaviy sivilizatsiyada jiddiy darajada kuchayib ketdi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, bugungi globallashuv sharoitida turli shakldagi, xususan, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurash, yosh avlodni bu xavf-xatardan asrash, ularda bu xavfga qarshi milliy g‘oya asosida immunitetni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani kabi, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g‘oyat o‘tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarda ko‘rish mumkin. G.Tillayevaning fikricha, “Texnologiyaning rivojlanishi tabiiy jarayonlarga o‘z ta’sirini kuchaytirdi, inson manfaatlariga mos ravishda tabiiy muhit unsurlari sun’iy muhit bilan almashtirildi. Bunday texnikaviy yondashuv tabiatni inson o‘z irodasiga bo‘ysundiradi, degan antroposentrik qarashga asoslangan.[1] XX asr oxiriga kelib, inson tomonidan yaratilgan texnosfera Yer biosferasi bilan tenglashdi. Bunda sun’iy texnomassa tabiiy biomassadan oshib ketdi. Hozirgi zamon globallashuvining olamshumul muammolari va yangi ijtimoiy-madaniy definisiyalar an’anaviy ekologik voqelikni aks ettiruvchi paradigmalarni tubdan o‘zgartirib yubordi”.

Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o‘rtasida integratsiya va demokratik aloqalarning kuchayishi, xorijiy investisiyalar kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, zamonaviy kommunikasiya va axborot texnologiyalarning, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli umuminsoniy qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

1 Tillayeva G.H. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – T.: Falsafa va huquq in-ti, 2009. 22-b.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, inson texnogen sivilizatsiyani to‘la nazorat qila olmas ekan. Texnogen sivilizatsiya yuksaklik va murakkabliklar bilan chambarchas bog‘liq. Muammolarning o‘lchami va insoniyatning imkoniyati darajasi o‘zimizga va olamga bo‘lgan munosabatni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. “Sivilizatsiya” tushunchasini XVI asrda ilk bor ishlatgan fransuz mutafakkiri M.Monten o‘z asarida mulohaza va adolatga asoslangan jamiyatni shunday nomlaydi.

XVIII asrda fransuz ma’rifatparvarlari asos solgan progress nazariyasida aqlga muvofiq barpo etilgan ideal jamiyat sari taraqqiyot sivilizatsiya deb atala boshlandi. XIX asrda ushbu tushuncha kishilik jamiyati taraqqiyotining bosqichlarini ifodalash uchun ishlatila boshlandi. L. Morgan, keyinchalik F. Engel’s insoniyat tarixining yovvoyilik va varvarlikdan keyingi davrini sivilizatsiya davri deb atadilar.

Umuman olganda, jamiyat farovonligi, yangilanish jarayonlari, yoshlarning yuksak salohiyati, yetukligi, mukammalligi va ijodiy rivoji bilan chambarchas bog‘liq ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini muntazam olib borish, bu tadqiqotlarda, tarbiyaning umumbashariy tamoyillari bilan birga milliy jihatlariga ham alohida e’tibor berish lozim; tarbiyada ijtimoiy muhit samaradorligiga erishish uchun ularning aqlli, dono, bilimdon, odobli, ijodiy va intellektual salohiyatga ega yetuk va mukammal shaxs sifatida shakllanishlarida ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy-huquqiy jihatlarini mustahkamlashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tillayeva G.H. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. –T.: Falsafa va huquq in-ti, 2009. 22-b.

2. Гизо Ф. История цивилизации в Европе. – М.: Территория будущего, 2007.

3. Энгельс Ф. Происхождение семьи, частной собственности и государства: в связи с исследованиями Льюиса Г. Моргана. – М.: УРСС, 2007.

4. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: Республика, 1994.

5. Данилевский Н. Россия и Европа: взгляд на культурные и политические отношения славянского мира к германо-романскому. – М.: Эксмо, 2003.

6. Тойнби А. Цивилизация перед судом истории. – Москва: АЙРИС ПРЕСС, 2006.

7. Шпенглер О. Закат Европы. Гештальт и действительность. Очерки морфологии мировой истории. – М.: Эксмо, 2006.

8. Вебер М. Аграрная история Древнего мира. – М.: Канон-пресс, 2001.

Maftuna QURBONOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq pedagogika
institut tadqiqodchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QUV-BILISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik, intellektual o‘yinlar va interfaol usullarning ahamiyati, ularning turlari hamda o‘tkazish uslubi haqida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar. Pedagogik texnologiya, kompetensiya, syujet, o‘yin, rol, element, qoida, mashq, vaqt, harakat, metodika, psixologik, pedagogik, shakl, vosita.

В статье речь идет о значении дидактических, интеллектуальных игр и интерактивных методов в формировании учебно-познавательных компетенций учащихся начальных классов, их видах и методах проведения.
Ключевые слова. Педагогическая технология, компетенция, сюжет, игра, роль, элемент, правило, упражнение, время, действие, методика, психологическая, педагогическая, форма, инструмент.

The article deals with the importance of didactic, intellectual games and interactive methods in the formation of educational and cognitive competencies of primary school students, their types and methods.
Key words. Pedagogical technology, competence, plot, game, role, element, rule, exercise, time, action, method, psychological, pedagogical, form, tool.

Hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biri – har tomonlama komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat bo‘lib, bu vazifa, asosan, o‘qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan. Boshqa fanlardan farqli o‘laroq, ona tili va adabiyot darslarida bunga ko‘prok e’tibor beriladi. Chunki adabiyot darsligidagi har bir asar, asarlardan olingan parcha, she’rlarning, ona tili darsligidagi mashq matnlarining bosh qahramoni komil inson bo‘lib, ular o‘quvchilarga ibrat qilib ko‘rsatiladi. Inson komil bo‘lishi uchun mustaqil fikr yurita olish shart. Mustaqil fikr yurita olgan insonlar esa ijodkor bo‘ladi. Demak, o‘qituvchining bosh vazifasi – o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.[1]

O‘quvchilarni ijodiy va mustaqil fikr yuritishga hamda nutqiy faollikka undovchi metodlardan biri – bu “Fikrni davom ettiring” usuli hisoblanadi. Masalan, ona tili darslarida matn yaratish va matn ustida ishlash vaqtida uni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Masalan, o‘qituvchi “Vatan” mavzusida mustaqil tarzda navbatma-navbat gap aytib, bog‘lanishli matn tuzish topshirig‘ini beradi. Birinchi o‘quvchi: *“Vatan –*

[1] Jalolova L. Interfaol metodlar asosida o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. – T., 2018. – B.267.

kindik qonimiz to‘kilgan yurt” desa; ikkinchi o‘quvchi: “Har bir inson o‘z Vatanini sevib, ardoqlab yashaydi”, deydi; *uchinchi o‘quvchi: “Zero, hadisi sharifda “Vatanni sevmoq iymondandir”* deb davom ettiradi. Shu tariqa barcha o‘quvchilardan mavzu doirasida qandaydir fikr bildirish talab etiladi. Bu usul ularni mustaqil fikrlashga, tezkor mushohadaga va ifoda imkoniyatining kengayishiga ijobiy ta’sir etadi.

O‘tilgan mavzular va yangi mavzuni yaxshiroq mustahkamlash uchun “Ha–yo‘q” o‘yini o‘tkaziladi. Bu o‘yin ham o‘quvchilarni faollikka, topqirlikka chorlaydi. Buning uchun sinf uch guruhga bo‘linadi va har bir guruhga quyidagicha savollar beriladi, masalan: birinchi guruh uchun savollar: 1, 12, 10, 7 sonlari kasr sonlarmi? (Yo‘q). Narsalarning miqdorini taqsimlab ko‘rsatadigan sonlar taqsim son deb ataladimi? (Ha)... Ikkinchi guruh uchun savollar: 0,5 yarim deb ataladimi? (Ha). Taqsim sonlar gapda aniqlovchi vazifasida keladimi? (Ha). Uchinchi guruh uchun savollar: Kasr soni yarim deb ham o‘qiladimi? (Ha). Beshtacha, yuzlarcha sonlari taqsim sonlarmi? (Yo‘q).

“Xotira mashqi” usuli o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlashga, teran fikrlashga, aniq va ravon so‘zlashga o‘rgatadi. Bu usulni qo‘llashdan avval o‘quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi va bellashuv o‘tkazilishi aytiladi, unda tezkorlik, xotira va bilimdonlik talab etilishi ta’kidlanadi. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga, masalan, ona tili yoki adabiyotga oid 10 ta so‘z (masalan, doston, g‘azal, ruboiy, lirika, tragediya, hikoya, roman ...tarzida)ni aytadi. O‘quvchilar belgilangan vaqt oralig‘ida yodida qolgan so‘zlarni yozuv taxtasida yozishadi, unutib qoldirilgan so‘zlarni guruh a’zolari to‘ldiradilar va ularga izoh berib, misollar keltiradilar. Qaysi guruh a’zolarining xotirasi va javoblari yaxshi bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

O‘quvchilarni matn yaratishga tayyorgarlik ishlarining mazmuni va usullari xususida to‘xtalamiz. Masalan, 1-sinf “Ona tili” darsligida 3-mashqda qish manzarasi, qishki bolalar o‘yinlari tasvirlangan rasm berilgan. Bu mashq asosida o‘qituvchi quyidagicha tayyorgarlik ishlari olib boradi: kuzatish uchun topshiriqlar beradi: qish fasliga xos belgilarni, tabiatdagi o‘zgarishlarni belgilab boring. Havoning keskin sovishi, qor yog‘ishi, suvning muzlashi, kunlarning qisqarishini kuzating va daftaringizga yozib boring; mashq uchun berilgan rasm asosida suhbat: rasmni kuzating. Rassom bizga nimalar haqida hikoya qilishni xohlabdi? Nima uchun rasmga qarab, rassom juda sovuq qish kunlarini tasvirlabdi degan fikrga bordingiz? (Ko‘p qor yog‘gan. Daraxtlar yalang‘och. Bolalar palto, etik, shapka va sharflarini kiyib, o‘rab olgan); Nima uchun bolalar xursand? Rassom sizning diqqatingizni nimaga qaratmoqchi bo‘lgan? (Rassom bolalarning xursandchiligini qishki o‘yinlar, qishdagi mashg‘ulotlari orqali ko‘rsatmoqchi bo‘lgan); rasmning mazmunini aniq va to‘liq ifodalovchi sarlavha toping (Qishki o‘yinlar, qorli tepalik, tepalikda qish); nutqiy tayyorgarlik. Qorni tasvirlovchi so‘zlar toping (oppoq, yumshoq, yopishuvchan, sovuq, muzdek, yaltiroq); daraxtlarning ko‘rinishini tasvirlovchi so‘zlar toping (yalang‘och, bargsiz, qordan shoxlari egilgan, tanasi jigarrang); osmonni tasvirlovchi so‘zlar toping (bulutli, qora bulutlar, tinik, ko‘m-ko‘k); qorboboni tasvirlovchi so‘zlar toping (oppoq, burni qizil, qoshi va ko‘zi qora, boshi dumaloq); bolalarning harakatini va holatini qaysi so‘zlar bilan ifodalash mumkin? (chopishyapti, yasashyapti, uchishyapti, otishyapti, sirpanishyapti, xursand, shod); bolalar kiyimlarining ranglarini ifodalovchi so‘zlar toping; rasmdagi bolalarning o‘zaro suhbatlarida foydalanishlari mumkin bo‘lgan salomlashish, murojaat, minnatdorlikni ifodalovchi so‘zlar toping; o‘quvchilarning kuzatganlari bilan rasmda ko‘rganlari o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash, ularni umumlashtirish va so‘zlab berish.[2]

[2] Masharipova U.A. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarni rasm asosida insho yozishga tayyorlash.

Mazkur bosqichma-bosqich ishlash metodi o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish imkonini beradi. Rasm yuzasidan olib boriladigan ishlar quyidagicha savol-topshiriqlar asosida murakkablashtirib boriladi: 1-topshiriq. Rasmni kuzating. Unda rassom qaysi vaqtni tasvirlagan? Rassom nima haqida hikoya qilishni xohlagan? Siz rasmga qarab nimalarni bilib olishingiz mumkin? 2-topshiriq. Nima uchun sinf va dars jarayoni tasvirlangan? 3-topshiriq. O‘quvchining darsdagi harakati va holatini ifodalovchi so‘zlarni qo‘llab gap tuzing.

O‘qituvchi har bir darsni o‘tish jarayonida qaysi metoddan foydalanishi, bu metodni amalga oshirishda qanday amallar, metodlar yordamga kelishi, shu bilan birga, dars jarayonining vositalari va shakllari xususida to‘la ma’lumotga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Mana shu o‘rinda o‘qituvchi uchun muallimlik faoliyatida zaruriy bo‘lgan suhbatni qiziqarli va ilmiy o‘tkazish, o‘quvchilarga axborotni ta’sirli va ishonuvchan yetkazish, ko‘rgazmali quroldan yoki texnika vositalaridan samarali foydalanish, o‘zining va boshqalarning tajribalaridan ongli, zaruriy holda mantiqiy va estetik prinsiplarga amal qilgan holda foydalanish kabi elementlarni aytib o‘tish joizdir.

Bunda o‘qituvchi imkoniyatlari o‘quvchilarning saviyasiga, bilim va malaka darajasiga, sinfning qiziqishi, emotsional darajasiga va boshqa jihatlarga ham bog‘liq bo‘lishi kerak. Aks holda yaxshi metod, mo‘ljallangan metod natija bermasligi mumkin. Masalan, o‘qituvchi muammoli dars metodidan foydalanmoqchi bo‘lsa-yu, o‘quvchilarning ilmiy bilim darajalari, qabul qilish, fikrlash, xulosalash qobiliyatlari bunga javob bermasa, o‘qituvchi o‘z maqsadiga erisha olmaydi.

Shuning uchun har bir dars bo‘yicha metod va metodlar tanlashi shakl va vositalardan foydalanishi, qisqasi, darsning struktur-sxemasi o‘qituvchi tomonidan yaxshi o‘ylab rejalashtirilgan bo‘lishi shart. Shularni e’tiborga olgan holda biz noan’anaviy ta’limni amalga oshirish borasidagi Sh.J.Yusupova tajriba va sinovdan o‘tkazgan, dars samaradorligini orttirishda ahamiyat kasb etgan “Tezyurar”, “Sharhlash” metodlarini bayon etishni lozim deb topdik.

Har qanday usul turli shakllar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, axborot metod ma’ruza, o‘quv filmini ko‘rsatish, darslik o‘qish kabi shakllardan tashkil topadi. Reproduktiv metodning shakllanishida esa suhbat, savol-javob, topshiriq kabilardan foydalaniladi. Biz quyida reproduktiv “Tezyurar” metodini savol-javob shakli asosida tashkil qilish haqida to‘xtalib o‘tish mumkin.

“Tezyurar” o‘tilgan mashg‘ulotlardagi nazariy va amaliy yangiliklar doimo takrorlanib turgandagina o‘quvchilarning xotirasiga muhrlanib qoladi. O‘quvchilar ishtirok qilgan o‘quv materialini uzoq vaqt xotirasida saqlab qolishiga erishish uchun doimo harakat qilishi darkor.

Kishi ongida aks etgan voqyea-hodisa yoki holatlarni, narsa buyumlarni mustahkamlash, saqlab qolishga ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng tiklashdan iborat aqliy faoliyat xotira sanaladi. Xotiraning qay darajada mustahkam ekani, xotirada qoldirish metodlariga va uni takrorlab turishga bog‘liqdir. Qolaversa, o‘quv materialining xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishi o‘quvchining o‘quv materialini to‘la idrok qilishi va uni amaliyotga tatbiq qilishiga bog‘lib.

“Tezyurar” metodida o‘tilgan va avval o‘tilgan mavzular doimo takrorlanadi. Bu takror faqat qoida aytish, yod olish asosda ko‘rilmasdan, mantiqiy fikrlash, idrok etish, mulohaza qilish, xulosa chiqarish, fikrni jamlash asosidagi javoblar bo‘yicha ko‘riladi.

Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya vaistiqbollar. Xalqaroilmiy konferensiya. – T., 2018. – B.480.

Biz tavsiya etayotgan mazkur metodda asosiy e’tibor o‘quvchi tomonidan qoidani aytishdan chekingan holda nazariy ma’lumotlarning amaliy tomonini aks ettiruvchi savol tuzishdan iboratdir.

Xulosa qilganda, bu metodda o‘quvchi o‘z bilimini o‘zi aniqlaydi, o‘zini o‘zi baholaydi. Ya’ni bilimi qay darajada ekanligiga tashxis qo‘yiladi va keyingi yangi mavzu bahsida shu tashxis asosida ularga bilim beriladi. Bu metodni o‘tkazish uchun o‘quvchilarga beriladigan savollar: tushunarli va aniq bo‘lishi; qisqa, aniq javob talab qiluvchi bo‘lishi; javobi “ha” va “yo‘q” so‘zlar bilan kelmasligi; savollar kitobiy bo‘lmasdan amaliyotdan olingan bo‘lishi; yangi va eski o‘tilgan mavzular bo‘yicha tayyorlanishi; o‘quvchilarni mushohada asosida javob berishlarini ta’minlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolova L. Interfaol metodlar asosida o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. – T., 2018. – B.267.

2. Masharipova U.A. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarni rasm asosida insho yozishga tayyorlash. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaroilmiy konferensiya. – T., 2018. – B.480.

3. Babanskiy Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. – T.: O‘qituvchi, 1990. – B. 4.

4. Yusupova Sh.J. Ona tili ta’limi samaradorligini oshirishda ilgor pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Pedagogika fanlari nomzodi…dis. – T., 1998. – 134 b.

Maftuna ISLAMOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq pedagogika instituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi tadqiqodchisi

YOSHLARDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada jamiyat uchun kreativ tafakkurli yoshlarni tayyorlash, ularni kreativ tafakkurga o‘rgatish, intellektini aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish, aqliy salohiyatni ishga sola olish qobiliyati, ya’ni kreativlikni tarbiyalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, pedagoglarning kreativlikni tarbiyalashga e’tibor qaratishlari hamda ba’zi mezonlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kreativ tafakkur, intellekt, aqliy salohiyat, kreativ fikrlar, g‘oyalar inkubatsiyasi, konsentratsiya jarayoni, analitik tahlil**,** analiz va sintez.

В данной статье рассматриваются вопросы воспитания креативного мышления молодежи в обществе, обучения креативному мышлению, свободного использования интеллекта целенаправленно, умения использовать интеллектуальный потенциал, то есть стимулирования творчества. Также было отмечено, что педагоги уделяют внимание воспитанию креативности, а также приведены некоторые критерии.

Ключевые слова. Креативное мышление, интеллект, умственные способности, креативное мышление, инкубация идей, процесс концентрации, аналитический анализ, анализ и синтез.

This article discusses the issues of educating young people in creative thinking in society, teaching creative thinking, the free use of intelligence purposefully, the ability to use intellectual potential, that is, stimulating creativity. It was also noted that teachers pay attention to the education of creativity, and some criteria are given.

Key words. Creative thinking, intelligence, mental abilities, creative thinking, incubation of ideas, concentration process, analytical analysis, analysis and synthesis.

Kreativ tafakkur jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichlarini egallash uchun xizmat qiladigan noan’anaviy fikrlash qobiliyati va taraqqiyot omillarini ta’minlashga yo‘naltirilgan tafakkur hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida eng quyi bosqichdan tortib eng yuqori darajalargacha kreativ tafakkur talab qilinadi. Chunki u jamiyat taraqqiyotining takomili, o‘sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo‘tadil saqlanishining vositasidir. Shu nuqtai nazardan pedagogik faoliyatda shunday o‘qitishni tashkil etish kerakki, o‘quvchi kreativ fikrlovchi, kelgusida zamonaviy jamiyat va ishlab chiqarishda muhim rejalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, asoslash, motivatsiyalash, nazorat qilish kabi funksiyalarni kreativ tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lsin.

Kreativ tafakkur inson ma’naviyati, tarbiyasi, bilimi, intellekti, iqtidori kabilarni ishlata olish qobiliyatini qamrab oladi. Demak, har bir fan o‘qituvchisi o‘quvchilarda mana shu xislatlarni pedagogik diagnostika metodlari orqali aniqlagan holda, uni shakllantirish va rivojlantirishi zarur. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni ong, tafakkur va aqlni barcha yo‘nalishlarda istiqbolni ko‘rish va anglashga o‘rgatish, ularda tafakkur

va aqlning peshqadamligi, tafakkurning noan’anaviyligi, oldindan bashorat qilish, ya’ni prognoz qila olish kabi xususiyatlarni pedagogik jarayonda maqsadli shakllantirishi kerak.

Kreativ shakllanish bir necha bosqichda namoyon bo‘ladi. Jumladan:

– har qanday muammoning yechimi bo‘yicha bir emas, bir nechta yechimlarni ko‘rsata olish hamda ularning barchasini o‘ziga xos ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur asoslab berish, ko‘pchilik o‘ylab ko‘rmaydigan masalaning boshqa jihatlarini ochib berish kabi aql peshqadamligiga ega bo‘lish;

– zamonaviy taraqqiyot uchun yangi yo‘nalishlar va yo‘llarni ko‘ra bilish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, faoliyatni yangilash, faoliyatdagi masalalar yechimini yangi yo‘nalishlarini topa bilish kabi noan’anaviy tafakkurga ega bo‘lish.

O‘z mehnat faoliyati sohasidagi istiqbol o‘zgarishlarning mohiyati, zaruriyati, amalga oshirirish muddatlarini tafakkur orqali oldindan anglash kabi prognoz, bashorat qila olish singari xususiyatlar uzluksiz ta’lim jarayonida shakllanishi va takomillashishi o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini qanday tashkil etishiga bog‘liq.[1]

Ushbu xususiyatlar ma’ruzalar, pand-nasihat yoki ko‘rsatmalar bilan emas, balki yo‘naltirish, abstrakt mashqlar va bilimlar asosida tarbiyalash orqali bilan hosil qilinishi mumkin.

Kreativ tafakkur maqsadga yo‘naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma’lum bo‘lmagan va an’anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan, butunlay yangi usul, yo‘l, vosita, yondashuvlarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi.

Katta, keng qamrovli ishlab chiqarish tarmoqlarida o‘nlab yoki yuzlab kreativ tafakkurga ega bo‘lgan insonlarning fikrlari, qarashlari va tahlillarni umumlashtirish, rejalashtirish, o‘rganish va umumiy yechimga keltirish asosida nostandart qarorlar va yechimlar qabul qilinadi. Jahonda katta biznes strukturalarning faoliyati korporativ manfaatlar tafakkuri targ‘ib qilinishi kreativ tafakkurning vujudga kelishiga turtki bo‘lgan.

Kreativ fikrlar inson ongining yuqori chegarasidagi va u o‘rganmagan fikrlar, noan’anaviy usullar, mavjud holat negizida yangi qarashlar asosida yangicha faoliyatni tashkil etishga qaratilgan mustaqil mushohadalardir.

Insonda ma’lum soha bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarning hamda tarbiyalanganlikning mavjudligi kreativ tafakkurni shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.[2]

Zamonaviy menejmentda kreativ tafakkur amaliyotini bildiruvchi ma’lum tizim shakllantirilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Analitik tahlil jarayoni – bu tayyorgarlik jarayoni bo‘lib, u axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish, madjud vaziyat tahlili, axborotlarni umumlashtirish, ko‘rsatkichlarni taqqoslash jarayoni.

2. Konsentratsiya jarayoni – ma’lum bir muammo atrofida aqliy salohiyatning mujassamlashuvi, ma’lum faktlar, ularning tizimi, tahlili olib boriladi. Aqliy salohiyat yetishmovchiligi jarayonidan o‘tish va mazkur jarayonni bosib o‘tishga intilish hamda ong faolligining ba’zan ko‘tarilishi yoki pasayishi, insonning muammo tahliliga berilishi, natijada turli yangi nostandart g‘oyalarning tug‘ilish va shakllanish jarayoni.

3. G‘oyalar inkubatsiyasi jarayoni – aqliy konsentratsiya jarayonida yuzaga kelgan barcha mavjud g‘oyalar ong ortiga o‘tib, ular mudroq holga keltiriladi. Tafakkur

[1] Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish yo‘llari. –T.: TDPU, 2006

[2] Ernazarova G.O. Yosh avlodni hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlar ahamiyati // O‘zbekiston ayollarining fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohasidagi yutuqlari mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Jizzax. 2017, - B. 404-405.

qilish jarayonida ular metodologik asoslarda qayta tahlildan o‘tkaziladi va guruhlanadi. Shaxsiy senzura yangi g‘oyalarning barchasini axloqiy-ma’naviy va qadriyatlar nuqtai nazarida nazoratdan o‘tkazadi. So‘ng mazkur g‘oyalar pishib yetilgan tayyor tarzda inson psixikasiga o‘tkaziladi.

4. G‘oyalar tahlilini amalga oshirish jarayoni – g‘oyalar tahlilini amalga oshirishda, g‘oyalar qidirishda to‘lqinli taraqqiyot jarayoni sodir bo‘ladi. Inson tafakkurida ba’zi o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, bunda inson tafakkuri o‘zini tinch va osuda tutmaydi, balki u turli keskin harakatlarga moyil bo‘ladi. Bu vaqtda odam bir mavzudan birdaniga boshqa mavzuga o‘tib ketishi, ba’zi harakatlarni bajarishi mumkin bo‘ladi. Bu inson tafakkurida kechayotgan ong oqimlarining faoliyati hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning natijasi sifatida so‘nggi qaror kelib chiqadi.

5. Analiz va sintez jarayoni – kreativ tafakkur faoliyati natijalarni tahlil qilish jarayoni, ya’ni mantiqiy tahlil jarayoni. Bu davrda ong oqimida kelib chiqqan barcha g‘oyalar yaxlitlik va umumiylikda tahlildan o‘tkaziladi hamda kreativ tafakkur mehnatining natijasi sifatida so‘nggi qaror qabul qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlar o‘ta murakkab jarayonlar bo‘lib, u tezlik bilan amalga oshiriladi. Kreativlik tafakkurni odatdagi fikrlash yo‘lidan ancha qiziqarli bo‘lgan noan’anaviy usullarga olib keladi, shu sababli inson tafakkurida optimal qarorlar vujudga keladi va tug‘iladi. Original, unikal, noan’anaviy, optimal qarorlar esa zamonaviy jamiyatni ilg‘orli, taraqqiyot, iqtisodiy taraqqiyot sari yetaklovchi kuch hisoblanadi.

Intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik mana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. U inson faoliyatiga ilhom va ijodkorlik kabi xususiyatlarni baxsh etadi.[3]

Intellektuallik yoshlarning aqliy salohiyatini shakllantirish, ularni zamonaviy jamiyatda yashashga tayyorlashning quyi bosqichi hisoblanadi. Ularni kreativ tafakkurga o‘rgatishgina ularning aqliy salohiyatini ishga sola olish qobiliyati tarbiyalanganligini ko‘rsatadi. Ya’ni kreativlik mavjud muammolarning yangicha yechimlaridir.

Pedagoglarning kreativlikni tarbiyalashga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, birinchi navbatda, kreativ tafakkur o‘qituvchining o‘zida mujassam bo‘lishi zarur.

Quyida kreativlikni tarbiyalashning ba’zi mezonlarini keltiramiz:

– o‘z tafakkuringizni original, optimal yechimlar topish va ularni targ‘ib qilishga qarating, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga o‘zingizni undang;

– yangiliklardan yoki boshqa insonlar siz to‘g‘ringizda noto‘g‘ri tushunchaga borishidan cho‘chimang;

– keng mushohada etishga harakat qiling, an’anaviy bo‘lmagan usullardan foydalanish, o‘z tafakkur tarzi, milliy mentalitet va steriotitlar qobig‘idan chiqib ketishga urining, erkin ijodiy mushohada yuriting;

– birinchi tajribangiz muvaffaqiyatsiz bo‘lsa ham, o‘z tajribangizdan voz kechmang, noan’anaviy usullarda fikrlashni davom ettiring, masala yechimining boshqa variantlarini topishga harakat qiling, boshqa yo‘llarni aqlan qidirib topishda davom eting;

– disput, diskussiya, bahs, munozaralar uchun doimo ochiq bo‘ling, uni o‘zingizga qaratilganligiga ishonmang, bahsni to‘g‘ri tashkil qiling, o‘z fikringizni har qanday bahslashuv jarayonida nazorat qilib boring;

– tushunarsiz narsa va hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qiling;

[3] Ernazarova G.O. Kasbiy yo‘naltirish ishlari (kasb-hunar kollejlari misolida). Uslubiy qo‘llanma. – Navoiy, 2017-y, – 132 b.

– an’anaviy usullarda faoliyat olib borishdan voz keching, yangi usullarda ishlashga urinib ko‘ring;

– yangi g‘oyalardan qo‘rqmang, ularni albatta keng qo‘llang.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda dunyo ta’lim hamjamiyati, pedagogika va psixologiya oldida ta’lim muassasalarida shaxsni optimal rivojlantirish vazifasi turibdi. XXI asr yoshlarining bilimlarni o‘zlashtirishda, ularni ertangi jamiyatga tayyorlashda nafaqat an’anaviy, balki noan’anaviy kreativ tafakkurga ega bo‘lgan kadrlar qilib tayyorlashimiz zarur. Zero, zamonaviy ta’lim taraqqiyoti yangi bilim, malaka va g‘oyalar hisobiga rivojlanadi. Bu esa o‘z o‘rnida jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi va davlatimiz ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2006.

2. Tuychieva G. Yoshlar va konfliktlar: Konfliktlar yechimiga o‘rganish. – T:, 2008. 128-b.

3. Ernazarova G.O. Kasbiy yunaltirish ishlari (kasb-hunar kollejlari misolida). Uslubiy qo‘llanma. Navoiy, 2017-y, 132-b.

4. Ernazarova G.O. Yosh avlodni hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlar ahamiyati // O‘zbekiston ayollarining fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohasidagi yutuqlari mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Jizzax. 2017, – B. 404-405.

Gulnora ERNAZAROVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi professori, p.f.d.
Maftuna QURBONOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqodchisi

MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QUV-BILISH KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN METODLAR

Annotatsiya

Maqolada mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar, ularning turlari, o‘tkazish metodikasi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, muallif ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bilish faolligiga munosib ravishda metodlar qo‘llanishi mumkinligini aqtib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Xotira, diqqat, shakllantirish, faollashtirish, metod, faoliyat, muammoli, vaziyat, nazorat, jamoaviy, boshqarish, o‘yin, sintez, klassifikatsiyalash, global.

В данной статье речь идёт о методах направленных на формирований учебно-позновательных компетенции учащихся начальных классов на основе организаций самостоятельных работ, их видах, а таже о методиках их проведений.

Ключевые слова. Память, вниманиет, операция, формирование, активизация, метод, мышление, деятельность, проблемный, ситуация, контроль, самоконтроль, общественный, личный, управление, образование, воспитание, игра, ориентировочный, анализ, синтез, сопостовление, классификация, технология, работа в группах, глобалный и т.д.

This article discusses the methods used to shape the learning competencies of elementary school students based on the organization of independent work, their types, methods of transfer.

Key words. Memory, attention, operation, formation, activation, method, thinking, activity, problem, situation, control, self control, collective, personal, control, education, education, play, orientation, analysis, synthesis, Comparison, classification, technology, teamwork, global and more.

Pedagogika amaliyotida o‘qitish metodlarining juda katta boy merosi to‘plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o‘qitilayotgan fanning xarakteri, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi kabilar hisobga olinadi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo‘llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo‘llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o‘ylash va samarali metodlarni qo‘llash juda muhim.[1]

[1] Ziyomuxammadov B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. –T.: Abu Ali Ibn Sino, 2001. – 80 b.

O‘qitish metodlarini quyidagilarga bo‘lish mumkin: tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini shakllantiradigan va faollashtiradigan metodlar; fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan metodlar; o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish bilan bog‘lik kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan metodlar; nazorat va o‘quvchilarning o‘zini o‘zi nazorat metodlari; o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o‘zaro munosabatlarini boshqarish metodlari. Ammo ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yilayotgan yangi talablar o‘qitishning metodlarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilishga qiziqishlari avvalambor darslarda yuzaga keladi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘qitishning turli metodlari, shakllari va turlarini qo‘llagan holda darsning har bir bosqichida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga, o‘qishga qiziqishni oshirishga intilishlari lozim. O‘qituvchi o‘z darslarida ko‘proq tayanch sxemalar, jadvallar, kartochkalar, tarqatma materiallar, qiziqarli mashqlardan foydalanishlari muhim hisoblanadi. Ular hayratlanish hissini, yangiliklarni, kutilmaganlikni keltirib chiqaradi, ziyraklik, tashabbuskorlikni rivojlantiradi, xayrixohlik muhitini yaratadi.

O‘quvchilarda bilishga qiziqishni qaror toptirish uchun o‘qituvchi quyidagi metodlardan foydalangani yaxshi natijalar beradi: barcha o‘quvchilar uchun qo‘lidan keladigan topshiriqlarni bajarish orqali muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, oldingi bilimlarga tayangan holda yangi materialni o‘rganish; ishonch va hamkorlik muhitini darsda yaratish orqali ijobiy emotsional kayfiyatni, o‘qituvchining yorqin va emotsional nutqini yaratish; o‘z va boshqalar faoliyatini baholash orqali refleksiya, ko‘p variantli javoblarni (masalan, “nima uchun qiyin bo‘ldi?”, “darsda nimani bildingiz va kashf etdingiz?” va b.q.) talab etuvchi savollarni berish bilan faoliyat natijasini baholash; qiziqtiradiganlik, darsning muzikali fragmentlar, o‘yinli va musobaqali shakllari orqali o‘ziga xos boshlanishi.

Ta’lim olish maqsadlarini anglash va ularni amalga oshirishda o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘qitish uchun quyidagilarni qo‘llagani ma’qul: keyingi faoliyat maqsadlarini mustaqil aniqlash hamda bilimlar yetishmasligi vaziyatini yaratish orqali o‘quv faoliyatini to‘xtatib qo‘yish, tugatilmaganlik (masalan, o‘quvchiga topshiriq beriladi, yechish davomida o‘rganilmagan metod uchraydi); turli darajali topshiriqlar orqali tanlash huquqini berish, darsda faoliyatni hamkorlikda rejalashtirish; “Bilmasvoyga xatoni topishga yordam ber” me todi orqali xatoga reaktsiya qilish, xatolik sababini aniqlash, keyingi faoliyatni aniqlash; aniq hayotiy vaziyat bilan o‘quv materialini aniqlash orqali amaliy yo‘nalganlik, o‘rganilayotgan materialning dolzarbligini aniqlash. (Masalan, matematika darsida o‘qituvchi o‘quvchilarga devor uzunligini topishni taklif etadi, bug‘doy ekilgan yer maydoni. Yechishda perimeri va maydonini topish qoidasi qo‘llaniladi).

O‘quv vazifa (muammo)larini mustaqil ajrata olish, o‘quv faoliyatining yangi metodlarini egallash, o‘z o‘quv faoliyatining o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini baholash metodlarini egallash quyidagi metodlar yordamida amalga oshirilishi muhim: ishlarni guruhlarda tashkil etish, o‘yinli va musobaqali shakllar, o‘zaro tekshirish, muammolarni jamoaviy hal etish, bir biriga yordam berish, “sinash va xatolik metodi” orqali o‘quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb etish; materialni yetkazishning o‘ziga xos shakli; tahlil, o‘quv obyektlarini solishtirish, o‘quvchilar o‘qishini tashkil etish, bilimlar yetishmasligi vaziyatini yaratish, ziddiyatlarni o‘rnatish orqali muammoli vaziyatlarni yaratish; hamkorlikda muammolarni yechish, ziddiyatlarni bartaraf etish, evristik suhbat, o‘quv diskussiya, predmetlarning jiddiy belgilarini ajratish, klassifikatsiyalash, umumlashtirish, modellashtirish orqali darsda hamkorlik qilish; refleksiyani tashkil etish, oraliq natijalarni baholash orqali o‘quvchilarni baholash faoliyatiga jalb etish; baholash, tashakkur, og‘zaki rag‘batlantirish, eng yaxshi

ishlar ko‘rgazmasi, o‘qituvchilarga arzimagan yordam berish, topshiriqlarni murakkablashtirish orqali faoliyatni stimullashtirish.[2]

Ishlarning bunday shakllari o‘qituvchilarga o‘quvchilarda o‘qishga qiziqishni, bilimlarni mustaqil egallashga istakni, o‘z o‘rtog‘iga yordam berishni, xotira, fikrlash, tasavvur qilishni mashq qilishni, predmetlarni o‘zlashtirish bilan yaxshi natijalarga erishishni rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini rivojlantirishning vositalaridan biri bu o‘yin hisoblanadi. U o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularni bilishga stimullashtirish metodi sifatida foydalaniladi. O‘quvchilarni o‘yin faoliyatiga jalb etish darsga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Darsda o‘qituvchining “ijodiy 5 daqiqasi”dan foydalanish, ya’ni, o‘quvchining she’r, topishmoq, ertak, matal to‘qishi yaxshi natija beradi.

Bunday metodlarni qo‘llash kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirish uchun sharoit yaratadi. O‘quv jarayonini faollashtirish uchun o‘qituvchi sistemali tarda o‘quvchilarga mashqlarning har xil turlarini taklif etish mumkin. Atrof-muhit dunyosi darslarida o‘quvchilar katta qiziqish bilan o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha xabarni tayyorlaydi. Ona tili va adabiyoti darsida yozuvchilar asarini o‘rganish bilan, o‘quvchi bu yozuvchining hayoti haqida kichkina hikoya tayyorlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetentsiyalarini shakllantirishda o‘qituvchi quyidagi zamonaviy texnologiyalarni egallagan bo‘lishi muhim: muammoli o‘qitish: gipotezalarni, muammoni qo‘ya olish, bilish vazifasini anglash; loyihali o‘qitish: maqsadlarni amalga oshirish uchun predmet bilimlaridan foydalana olish, axborotni topish, qayta ishlash va ifodalash, tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va uni ifodalash, muhim axborotni chiqarish, uni o‘quv materiallaridan mustaqil topish; o‘yin faoliyati; ishchanlik va tashkili-fikriy o‘yinlar – bilish vazifalarini anglash, vazifalarni yechishning har xil metodlariga orientirovka qilish; ijodiy o‘yin: tahlil qilish, sintez, solishtirish, klassifikatsiyalash operatsiyalari o‘quv vazifalarini yechish uchun amalga oshirish; ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasi; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi; guruhli texnologiyalar – guruhlarda ishlash; global axborot muhitida o‘qitish texnologiyasi.[3]

O‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetentsiyasini shakllantirishda mahalliy va xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rgangan holda eng maqbul metod va texnologiyalardan foydalanish, metodik ta’minotni takomillashtirib borish, mashg‘ulotlar jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali bilim berish sifatini, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’minlash lozim. Mazkur jarayonni yangi avlod o‘quv adabiyotlari, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, ularga bilimli o‘qituvchilarni jalb etish, bilim va ko‘nikmalarini tiklash, ularni yangilash kelajakka qaratilgan mazkur farmonlarda belgilangan vazifalarni yechishga yordam beradi.

Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bilish faolligiga munosib ravishda quyidagi metodlar qo‘llanishi mumkin: tushuntirish-illyustrativ (axborotli retseptiv), reproduktiv, muammoli bayon, xususiy izlanish yoki evrestik hamda tadqiqot. Ta’lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni bilimni uzatish, uni qabul qilish, anglash, esda saqlash va amalda qo‘llay olishni nazarda tutadi. Ta’limning og‘zaki metodlari: hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar. Bu metodlarni qo‘llashda o‘qituvchi so‘z vositasida o‘quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o‘quvchilar esa tinglash, eslab qolish orqali qabul qiladilar.

Hikoya metodida o‘quvchilarga beriladigan bilim mazmunini og‘zaki bayon qilish nazarda tutiladi. Hikoyaning bir necha turi mavjud: hikoya-muqaddima, hikoya bayon

[2] Mavlyanov A., va b.q. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2010 . –117 b.

[3] Babanskiy YU.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. – T.: O‘qituvchi, 1990. – B. 4.

va hikoya-xulosa. Birinchisining maqsadi: o‘quvchilarni suhbat orqali yangi bilimni qabul qilishga tayyorlash. Hikoyaning bu turi nisbatan qisqaligi, yorqinligi, qiziqarliligi va hissiyotga boyligi bilan ajralib turadi, yangi bilim olishga qiziqish uni faol o‘zlashtirishga ehtiyoj uyg‘otadi, darsga befarqlik, loqaydlikni yo‘qotib, bilim olish maqsadini hosil qiladi. Hikoya-muqaddima vaqtida o‘quvchi faoliyatining vazifalari to‘g‘risida tushunarli shaklda xabar beriladi. Hikoya-bayon davrida o‘qituvchi yangi mavzu mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja asosida bilim berib, ichidan muhimlarini ajratib, ko‘rgazmali va ishonarli misollar bilan izchil bayon qiladi.

Hikoya-xulosa odatda, mashg‘ulotning oxirida keltiriladi. O‘qituvchi bu metod orqali asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi. Hikoya jarayonida o‘zlashtirishning faollashishiga yordam beruvchi auyidagi didaktik uslublardan foydalanish zarur:

1. Dars mavzusini bildirish. Yangi mavzuni bayon qilish oldidan o‘quvchilarga yechimi yangi bilimlar uchun zarur bo‘lgan masala taklif qilinadi va u shu darsda o‘rganish ob’ekti bo‘lib qoladi, ya’ni muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. Yangi materialni o‘rganish yoki amaliy topshiriqlarni bajarish bilan, yoki tajriba qo‘yish bilan, yoki tabiatda o‘tkazilgan kuzatishlarni tahlil qilish bilan boshlanadi.

2. Bayon rejasini bildirish. Bu uslub faqat o‘zlashtirish jarayonini faollashtiribgina qolmasdan, balki o‘quvchilarni butun bayon tizimini yaratishga o‘rgatadi, bu bilan tafakkurning mantiqiy izchilligini rivojlanishga, o‘rganilayotgan fakt yoki hodisalar o‘rtasidagi muayyan bog‘lanishlarni aniqlashga yordam beradi, masalan, “Cho‘l tabiati” mavzusini bayon qila turib, o‘qituvchi doskaga ushbu rejani yozishi mumkin: Tabiiy zonalar xaritasida cho‘llarning jo‘g‘rofiy o‘rni. Cho‘l iqlimining xususiyatlari. Cho‘lda yil fasllari va boshqalar.

3. O‘quvchilar e’tiborini faollashtiruvchi savollarni bayon davomida qo‘yib borish.

4. O‘quvchilarning idrok qilish faoliyatlarini faollashtiruvchi taqqoslash (masalan, dala, bog‘, poliz, cho‘l, dasht va o‘rmon o‘simlik hamda hayvonot dunyosini taqqoslash kabilar).

5. Yangi materialni uni bayon qilish davomida ilgari o‘rganilganlar bilan, turmush bilan, amaliyot bilan (masalan, “Skelet” mavzusini “Mushaklar” mavzusi bilan jonajon o‘lka tabiatini har xil zonalar tabiati bilan) aloqasini o‘rnatish.

6. Hikoyaga maqol, qiziqarli material yoki kitob kabilarni o‘qishni kiritish. Qo‘shimcha materialdan foydalanish o‘qituvchi hikoyasini boyitadi va aniqlashtiradi. Hikoya davomida maqol, matal va topishmoqlardan foydalanish ham uni boyitadi va bayon qilayotgan materialni qabul qilib olinishini osonlashtiradi.

7. Ko‘rgazmalilik (surat, jadval, texnika vositalari)ni qo‘llash. Hikoya davomida ko‘rgazmalilikning turli vositalaridan foydalanish o‘quvchilarda aniq tasavvurlar shakllanishiga, o‘rganilayotgan materialga diqqat va qiziqishni quvvatlashga, uni ongli o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Sxema va jadvallar, tajribalar surati, doska va daftardagi hamda xulosalar o‘quv materialini o‘zlashtirilishini osonlashtiradi. Lekin ko‘rsatilgan didaktik uslublardan foydalanish o‘quvchilar aqliy qobiliyatini maksimal faollashtirish uchun yetarli emas. Bu vazifani bajarishga muammoli bayon qilish yordam beradi, u o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga asoslanadi va o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan masala va muammolarni hal qilishdan iborat bo‘ladi.

Suhbat metodi atroflicha o‘ylangan savollar yordamida o‘qituvchi bilan o‘quvchi orasidagi aloqani ko‘zda tutib, ularning mustaqil fikrlashini yangi tushunchalarni egallashga olib keladi. Uni qo‘llashda savollarni qo‘yish, o‘quvchilarning javoblarini muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish metodlaridan foydalaniladi. Suhbat davomida o‘qituvchi

o‘quvchilarning nutq savodxonligiga alohida e’tibor qaratadi. Bu turli tushuntirishlar bilan olib boriladi hamda ularning qabul qilishi aniqlashtirilib boriladi. O‘quvchilar katta bo‘lgan sari ularga beriladigan muammoli savollar ham kattalashib boradi. Muammoli vaziyatning yuzaga kelishida fakt va natija o‘rtasidagi aloqa birdaniga ochilmaydi, asta-sekin bo‘ladi. Bunda savol tug‘iladi: Bu nima? (masalan, turli predmetlarni suvga tushiramiz: bittasi cho‘kadi, boshqasi cho‘kmaydi); materialning ayrim qismlarini bayon qilgandan keyin o‘quvchi taxmin qilishi kerak (masalan, muz erishi, issiq suv bilan tajriba qilish, masalani yechish); ba’zan, ayrimlari, faqat ayrim hollarda kabi so‘zlardan foydalanish o‘ziga xos bilish belgilari bo‘lib xizmat qiladi; faktni tushunish uchun uni boshqa faktlar bilan solishtirib ko‘rish, ayrim aqliy operatsiyalarni amalga oshirish lozim (masalan, turli o‘lchovlarni qilish, guruh bilan hisoblash).

Suhbat o‘tkazilgandan keyin bajarilgan ishlarga ushbu maqsadga yo‘nalgan savollar yordamida yakun chiqarish kerak. Masalan, Tut ipak qurti qanday rivojlanadi? Uning tashqi ko‘rinishi qanday? Qurtning tanasi qanday shaklda? U qanday harakat qiladi? Nima bilan ovqatlanadi?

Pilla o‘rash qancha vaqt davom etadi? Pilla ichida nima bo‘ladi? Kapalak qanday hosil bo‘ladi? Kapalak pilladan qanday chiqadi? U qancha vaqt yashaydi? va boshqalar. Bunday savollar o‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantiradi, chunki savollarga javoblar ishlab chiqarish kuzatishlari bilan quvvatlangan bo‘ladi.

Suhbatning o‘quv jarayonida qanday o‘rin egallashi va qanday didaktik maqsadni mo‘ljallanganligiga qarab quyidagi: kirish suhbati, takrorlovchi suhbat, bayon qiluvchi suhbat va yakunlovchi suhbat turlari farq qilinadi. Kirish suhbati yangi bo‘lim yoki yangi mavzuni o‘rganish oldidan foydalaniladi. Uning maqsadi o‘quvchilardagi darsda o‘rganiladigan masala bo‘yicha tasavvurlarni aniqlash yoki tiklashdir. Masalan, «Dala mavzusini o‘rganishga kirisha turib, kirish suhbatn vaqtida o‘quvchilarga ushbu savollarni berish kerak. Kim dalada bo‘lgan?

Dalalarda nimalar o‘sadi? Siz qanday madaniy o‘simliklarni bilasiz? Siz qanday texnika o‘simliklarini bilasiz? Sizga qaysi g‘alla o‘simliklari ma’lum? Faqat shundan keyingina o‘qituvchi yangi materialni tushuntirishga kirishadi.[4]

Takrorlovchi suhbat o‘rganilgan materialni mustahkamlash va anglab olishga yordam beradi. U yangi materialni o‘rganilgandan keyin shu darsning o‘zida yoki mavzu yoki bo‘lim o‘rganilgandan keyin o‘tkaziladi va 5 daqiqadan 10-15 daqiqagacha vaqt olishi mumkin. Bunday suhbat vaqtida ham mavzuni o‘rganishdagi o‘sha ko‘rgazmali qurol va tarqatma materiallardan foydalaniladi.

Bayon qiluvchi suhbat o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan jism va hodisalarni kuzatishini nazarda tutadi. O‘qituvchi tomonidan yo‘naltirilgan o‘quvchilar o‘zlari uchun yangi ob’ekt va hodisalar bilan tanishadilar. Obyekt va tajribalarni kuzatish natijasida o‘quvchilarda shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqiy yondashish shakllanadi.

Yakunlovchi suhbat. Bu suhbat o‘quvchilar o‘rganilgan mavzu bo‘yicha xulosa chiqara olishlari uchun o‘tkaziladi. Masalan, “Granit” mavzusi o‘rganilgandan keyin quyidagi savollar bo‘yicha yakunlovchi suhbat o‘tkaziladi: Biz qanday mavzu bilan tanishdik? Qanday yangiliklarni bildik? Granit qanday tuzilishga ega? Granit rangi nimaga bog‘lik? Muammo qo‘yilishi va uni mustaqil hal qilinishi o‘quvchilarning bilishga qiziqishini, ya’ni ularning bi¬limlarni egallashga va masalalar yechishni o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini

[4] Belskaya YE.M., Grigoryants A.G. Tabiatshunoslikni o‘qitish /3-sinf. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1990. –170 b.6.

rivojlantirish uchun rag‘batlantirish bo‘lib xizmat qiladi. Muammoni hal qilishda asosiy-vaqtni amaliy ish egallaydi. Chunonchi, “Kuz”, “Qish”, “Bahor” mavzularini o‘rganishda o‘quvchilar oldiga quyidagi muammoli savollarni qo‘yish mumkin: Nima uchun kuzda qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadilar? Nima uchun ba’zi hayvonlar qishda uxlaydi? Nima uchun kuzda sovuq tushadi? O‘quvchilar oldiga u yoki bu muammoni qo‘yishda ularning har biri qanchalik dars mazmunidan kelib chiqayotganini, didaktik va tarbiya maqsadlarga xizmat qilishini puxta hisoblab chiqish kerak. Bu talablarga javob bermaydigan muammolarni qo‘yish faqat darsda qarab chiqilayotgan masalalarning mohiyatini aniqlashga xalaqit beradi. Shuningdek, o‘quvchilar oldiga ular zarur bilimlarga ega bo‘lmasalar, ongli hal qilinishi uchun muammo qo‘yish mumkin emas. Bu muammoni mustaqil hal qilish maqsadida darsda o‘quvchilarga muammoli vaziyatlar yaratishni taqozo etadi. Muammoli vaziyat o‘quvchilarning ma’lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog‘liq ruhiy holati bo‘lib, u hal etilayotgan masala bilan bog‘liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi. Muammolivaziyatlar o‘quvchilarning mustaqil ishlarini takomillashtirishga asoslangan bo‘lib, ularda ilmiy tushunchalarni, amaliy ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirish, boshqa materiallarni mantiqiy tahlil qilishga asoslangan.

Mazkur vaziyatlar o‘zida o‘quvchining muammoni aniq anglashini ifodalaydi va uni bartaraf etish yangi bilim, metod va harakatlarni izlab topishni talab etadi. Agar o‘quvchida boshlang‘ich bilimlar yetishmasa, u muammoli vaziyatlarni qabul qila olmaydi. Muammoli vaziyat nimanidir anglash uchun o‘quvchiga mavjud bilimlar yetarli bo‘lmasa; yangi talablar bilan o‘quvchilarda mavjud bilimlar o‘rtasida nomuvofiqlik aniqlansa (eski bilimlar bilan yangi faktlaro‘rtasida, past va yuqori bilim darajalari o‘rtasida, turmush va ilmiy bilimlar o‘rtasida); ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi amaliy sharoitlarda foydalanish zaruriyati, vazifalarni yechishning nazariy imkoniyatlari bilan tanlangan metodni amaliy amalga oshirish mumkin bo‘lmasligi o‘rtasida ziddiyatlar hamda o‘quv topshiriqlarini bajarishda amaliy erishilgan natijalar bilan o‘quvchilarda uni nazariy asoslashga bilimlar yetishmasligi o‘rtasida ziddiyatlar bo‘lgan holatlarda yuzaga keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, ta’limning mazmuniga qo‘yilayotgan yangi talablar o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish metodlari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etmoqda. O‘qitish metodlarining turlari juda ko‘p, ularning sonini aniq belgilab bo‘lmaydi. Ular pedagogik amaliyot davrida tinmay boyib boraveradi. Metodlar o‘qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga qarab tasniflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyomuxammadov B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. –T.: Abu Ali Ibn Sino, 2001. – 80 b.

2. Alixonov S. Dars jarayonida muammoli ta’lim masalalari // Kasb-hunar ta’limi, 2006.-№5. - B.8-9.

3. Babanskiy YU.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. – T.: O‘qituvchi, 1990. – B. 4.

4. Mavlyanov A., va b.q. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2010 . –117 b.

5. Belskaya E.M., Grigoryants A.G. Tabiatshunoslikni o‘qitish /3-sinf. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1990. – 170 b.6.

Ulug‘bek YAXSHIYEV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institut
“Pedagogika” fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha
dekan o‘rinbosari

TA’LIM SHAROITIDA CHIZIQLI DIOFANT TENGLAMALARINI YECHISHDA IJODKORLIKNING UZVIY BIRLIGI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada rivojlantiruvchi ta’lim sharoitida ijodiy faoliyat va ijodkor shaxsni shakllantirishning ahamiyati, chiziqli Diofant tenglamalarni yechishda o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘quvchining mantiqiy fikrlashi, matematik tafakkuri, nutqi, tasavvuri, ko‘nikmalari va boshqa psixologik funksiyalarining rivojlanishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Rivojlanuvchi ta’lim, ijodiy faoliyat, ijodiy imkoniyat, ijodkorlik qobiliyati, uzviylik, ta’lim klasteri.

В статье рассматривается роль творческой деятельности и формирования творческой личности в условиях развивающего образования, развитие творческих возможностей учащихся в решении линейных диофантовых уравнений. Также раскрывается развитие логического мышления, математического мышления, речи, воображения, навыков и других психологических функций ученика.

Ключевые слова. Развивающее образование, творческая деятельность, творческие возможности, творческие способности, непрерывность, кластер образования.

The article considers the role of creative activity and the formation of a creative personality in the conditions of developing education, the development of creative abilities of students in solving linear Diophantine equations. It also reveals the development of logical thinking, mathematical thinking, speech, imagination, skills and other psychological functions of the student.

Key words. Developing education, creative activity, creative opportunity, creative ability, membership, educational cluster.

Ta’lim tizimining bugungi kundagi oldiga qo‘yilayotgan zamonaviy vazifalari shaxsni nafaqat ijtimoiylashtirish, balki kasbiy, hissiy va ma’naviy-axloqiy sohalarda uzluksiz rivojlantirishni ham nazarda tutadi. O‘zgaruvchan jamiyatda yuzaga keladigan shart-sharoit va talablarga qarab, bo‘lajak mutaxassislar o‘z faoliyat yo‘nalishlarini o‘zgartira olish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lishi kerak. Bu esa ulardan tinimsiz mehnat, rivojlanish va ijodkorlikni talab etadi.

Biroq ta’lim jarayonida qator muammolar mavjudki, ularni hal etmasdan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Ulardan biri bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va ijodkorligini rivojlantirishdir. O‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish holatini o‘rganish maqsadida so‘nggi yillarda nashr etilgan bir qancha psixologik-pedagogik va o‘quv adabiyotlarini tahlil qilib chiqdik. Ularda asosan talabalarga bilim

berish metodikasi va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash mashqlari haqida so‘z yuritilgan. Holbuki, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati, mantiqiy fikrlashining rivojlanishi bevosita amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liq.

Ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda nafaqat talabalarning fikrlash xususiyatlari (yangilik izlash, birdaniga topish, fahmlash, sezgirlik va hokazolar)ga, shuningdek, ichki omillar (qiziqish, havas, ishqibozlik, iroda, maqsadga intilish, yaratuvchanlik quvonchi, ruhlanish)ga ham e’tibor qaratilishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, butun uzluksiz ta’lim jarayonida, ya’ni maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning ijodkorligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Ya’ni, rivojlantiruvchi ta’lim bu malakali va ijodkor mutaxassislar tayyorlash omillaridan biridir.[1]

Shuni eslatib o‘tish lozimki, rivojlantiruvchi ta’lim o‘quvchilarni tizimli o‘qitishdan iborat bo‘lib, bu jarayonida qiyinlik darajasi ortib boruvchi turli ijodiy topshiriqlar beriladi. Bunda faoliyat mahsulining ijodiy yangiligi ya’ni, o‘quvchilarning berilgan masalaning yechimiga borish va uni bir necha usullar yordamida yechishni baholash uchun ijodiy yangilik darajalaridan foydalanish mumkin. Faoliyat mahsulining ijodiy yangiligi darajalarini G. S. Altshuller “ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi” doirasida ishlab chiqqan. Olimning e’tirof etishicha, faoliyat mahsulining ijodiy yangiligi darajalari quyidagilardan iborat:

1-daraja – o‘xshash qism(element)larni almashtirish: tizimda tuzilishi va bajaradigan vazifalariga ko‘ra aynan bir xil bo‘lgan bitta yoki bir nechta (o‘xshash) qismlarni almashtirish. Bunday ijod juda oddiy ijodkorlik bo‘lib, subyektiv yangilik hisoblanadi, unda obyektiv yangilik bo‘lmaydi. O‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, bu ish nusxa ko‘chirish, xolos. Shuni ta’kidlash joizki, haqiqiy ijod hamisha nusxa ko‘chirishdan boshlanadi. Masalan, biror masaladagi o‘zgaruvchilarni yoki masala matnini almashtirish (tuzilishi jihatidan va bajaradigan funksiyasiga ko‘ra aynan o‘xshash bo‘lgan kattaliklarni almashtirish); hikoya yoki ertaklarning mazmunini o‘zgartirmasdan qahramonlarining dialoglariga o‘zgartirishlar kiritish, voqyealar kechadigan joy tabiati manzaralarini o‘ziga xos tarzda tavsiflash; ayni bir kasbiy faoliyat turini har xil usul va shakllarda amalga oshirish.

2-daraja – bir-biriga mos elementlarni (gomologik) almashtirish: tizimda tuzilishi jihatidan farq qiluvchi, ammo ayni bir xil vazifani bajaruvchi bir yoki bir necha qismni almashtirish. Bu darajadagi ijodkorlikda elementning faqat ayrim elementlari o‘zgartiriladi va u obyektiv yangilik hisoblanadi. Masalan, samolyot qanoti yoki kasbiy faoliyatda qo‘llaniladigan asbob-uskunalar dastasining shaklini, ertak qahramonlari yashaydigan uyning xonalari va tashqi ko‘rinishini o‘zgartirish; yangi sintetik materialdan kiyim tayyorlash; taomnomadagi meva-sabzavotni boshqasi bilan almashtirish; dedektiv romandagi voqyealar joyini boshqacha tasvirlash. Tenglamalarni belgilash yo‘li bilan yechish, masalan, $\log_a^2 x + p\log_a x + q = 0$, $\sin^2 x + p\sin x + q = 0$ tenglamalarni belgilash kiritish yo‘li bilan sodda kvadrat tenglamaga keltirib yechish mumkin.

3-daraja – tizimga yangi element kiritish: bunda tizimning o‘zi o‘zgartirilmaydi, balki unga yangi element kiritiladi. Bu darajadagi ijodkorlik obyektiv yangiligi bilan xarakterlanadi tizimda ilgari mavjud bo‘lmagan yangi element yaratiladi. Masalan, kema

[1] Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. – М., 1996.

va samolyot(avtopilotlar) uchun avtomatik navigatsiya asboblarini yaratish; kasbiy faoliyatda ishlatiladigan yangi asbob-uskunalar yasash; o‘qitishning yangi metodlarini qo‘llash; kiyimlarning ko‘rinishini o‘zgartirish; elektr sxemalarini boshqacha tuzish; oziq-ovqat mahsulotlariga solinadigan qo‘shimchalar – maxsus ziravorlar yaratish. Matematikada masala shartini xuddi shu natijaga olib keladigan boshqa shartga aylantirib masalani yanada qulayroq usullarda yechish mumkin. Masalan, quyidagi misollarni qaraylik:

1. $\left|x^2-2x+3\right|=a$ tenglama a ning nechta qiymatida 3 ta ildizga ega bo‘lishini funksiya grafigini yasash orqali yechilsa natijaga tezroq kelinadi. Ya’ni $y=\left|x^2-2x+3\right|$ va $y=a$ o‘zgarmas funksiya grafiklari a ning qaysi qiymatida 3 ta nuqtada kesishini aniqlash yetarli.

2. Fermer 100 ta hayvon sotib olish kerak. Pul ortib ham qolmasin, yetmay ham qolmasin. Ot – 50 $, sigir – 10$, qo‘y – 1$. Fermerda 500 $ pul bor, nechta ot, nechta sigir, nechta qo‘y sotib olishi mumkin? Ushbu mantiqiy masalani yechishda Diofant tenglamasini yechishda keltirish mumkin.

3. $y=\sqrt{4-x^2}$ funksiya grafigi va OX o‘qi bilan chegaralangan sohani yuzini topish masalasini aniq integralni hisoblashdan foydalanib, Nyuton-Leybnits formulasi bilan topish o‘rniga bu funksiya grafigi yarim aylana ekanligini hisobga olsak natijaga tezroq erishish mumkin.

Ularni o‘zlashtirish esa o‘quvchining mantiqiy fikrlashi, matematik tafakkuri, nutqi, tasavvuri, ko‘nikmalari va boshqa psixologik funksiyalarining rivojlanishini ta’minlaydi.[2]

Ta’limning asosiy vazifalari amaliyot orqali joriy etiladi. Buning uchun eng avvalo, quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim.

Birinchidan, o‘qitish (ta’lim berish), tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini o‘z ichiga qamrab olgan darsning kompleks masalalari rejalashtiriladi.

Ikkinchidan, darsda ta’limning uchta vazifasi kompleks joriy etiladi, ya’ni uning har bir bosqichida ulardan biri u yoki bu darajada amalga oshiriladi.

Uchinchidan, o‘qitishning turli metodlari, shakllari va vositalarini birgalikda qo‘llash orqali ta’lim vazifalarining o‘zaro birligi va bog‘liqligi masalasi hal etiladi.

To‘rtinchidan, ta’limni amalga oshirish vaqtida nazorat va o‘zini o‘zi nazorat qilishda hamda ta’lim natijalarini tahlil etishda ta’limning faqat bitta vazifasi emas balki har uchala (ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) vazifasining amalga oshirilishi jarayoni ham ayni bir vaqtning o‘zida baholanadi. Bu talablar o‘quv jarayonini tashkil etish sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan vazifalarni kompleks amalga oshirishga imkon beradi. Maktab matematika kursida maktab o‘quvchilari uchun fan olimpiadalarida beriladigan chiziqli Diofant tenglamalarining rivojlantiruvchi ta’limiy mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

$Ax+By=C$ ko‘rinishdagi tenglamalar chiziqli Diofant tenglamalar deyiladi. Bu yerda A,B,C – berilgan butun sonlar bo‘lib, A va B sonlar bir vaqtda nolga teng bo‘lmagan sonlar.

[2] Mukhamedov G.I, Usarov Dj.E. “Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources”. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)’, ISSN: 2278–3075 (Online), Volume-9 Issue-3, January 2020, Page 2677-2684. https://www.ijitee.org/download/volume-9-issue-3/

Dastlab chiziqli Diofant tenglamalarning hyech bo‘lmaganda bitta yechimga ega yoki emaslik shartlarini qaraylik.

A va B sonlarning eng katta umumiy bo‘luvchisi (EKUB) d bo‘lsin. Agar C soni d ga bo‘linmasa $Ax+By=C$ tenglama yechimga ega bo‘lmaydi. Agar C soni d ga bo‘linsa $Ax+By=C$ tenglamaning har ikkala qismini d ga bo‘lib, tenglamaning koeffitsientlarini o‘zaro tub holatga keltiramiz.

$ax+by=c$ tenglamada a va b o‘zaro tub sonlardir.

Endi $ax+by=c$ tenglamaning hyech bo‘lmaganda bitta ildizini topishga urinib ko‘raylik. Buning uchun ikki sonning eng katta umumiy bo‘luvchisini topishning yevklid algoritmi usulidan foydalaning mumkin. Buni misol orqali ko‘raylik.

Misol: $21x+16y=8$ tenglamaning butun sonlardagi bitta yechimini topaylik.

$$\begin{array}{r|l} 21 & 16 \\ \cline{2-2} 16 & 1 \\ \cline{1-1} 16 & 5 \\ \cline{2-2} 15 & 3 \\ \cline{1-1} 5 & 1 \\ \cline{2-2} 5 & 5 \\ \cline{1-1} 0 & \end{array}$$

$21 = 16 \cdot 1 + 5$
$16 = 3 \cdot 5 + 1$
$5 = 5 \cdot 1$

Bu tengliklarni ushbu ko‘rinishlarda yozsak bo‘ladi:

$5 = 21 - 16 \cdot 1$
$1 = 16 - 3 \cdot 5$

$$1=16-3\cdot 5=16-3\cdot(21-16\cdot 1)=16-3\cdot 21+3\cdot 16=21\cdot(-3)+16\cdot 4$$

$1=21\cdot(-3)+16\cdot 4$ tenglikning har ikkala qismini 8 ga ($c=8$ bo‘lgani uchun) ko‘paytirsak, $8=21\cdot(-24)+16\cdot 32$ tenglikka ega bo‘lamiz. Bundan ko‘rinib turibdiki, berilgan tenglamaning bitta yechimlari jufti $(-24;32)$ ekan.

Endi $ax+by=c$ tenglamaning boshqa ildizlarini topishni qarab chiqamiz. Buning uchun ushbu teoremadan foydalanamiz.

Teorema-1. (T_1). *$ax+by=c$ tenglamada a va b o‘zaro tub sonlar bo‘lib, bu tenglamaning biror yechimi $(x_0;y_0)$ sonlar jufti bo‘lsa, $ax+by=c$ tenglamaning boshqa yechimlari $x=x_0+bk,\quad y=y_0-ak$, $(k\in Z)$ formula bilan topiladi.*

Isbot. $ax+by=c$ tenglamaning yechimi $(x_0;y_0)$ jufti bo‘lsa, u holda $ax_0+by_0=c$ tenglik o‘rinli bo‘ladi. $ax+by=c$ va $ax_0+by_0=c$ tengliklardan quyidagini yozish mumkin:

$$ax-ax_0+by-by_0=0$$

$$x-x_0=\frac{b(y_0-y)}{a}$$

Ma’lumki, $x-x_0$ ayirma butun son va a va b o‘zaro tub. Bundan $y-y_0$ ayirma a ga bo‘linishga majbur. Demak, $y-y_0=ak$ $(k\in Z)$ bo‘lishi kerak.

$$x-x_0=\frac{b\cdot ak}{a}\Rightarrow x-x_0=bk\Rightarrow x=x_0+bk.$$

$y-y_0=ak$ tenglikdan $y=y_0-ak$ ekanligi kelib chiqadi.

Teoremani isbotlashni quyidagicha ham olib borish mumkin. $x_1=x_0+bk_1$ va

$y_1 = y_0 - ak_1$ larni $ax + by = c$ tenglamaga qo'ysak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$x_0 + bk_1) + b(y_0 - ak_1) = c \Rightarrow ax_0 + abk_1 + by_0 - abk_1 = \Rightarrow$$

$$ax_0 + by_0 = c \cdot$$

Teorema to'liq isbotlandi.

Endi (T_1) dan foydalanib yuqorida qaralgan $21x + 16y = 8$ tenglamaning barcha yechimlarini topaylik. Bu tenglamaning bitta ildizi $(-24;32)$ sonlar jufti edi. Demak, qolgan yechimlarini $x = -24 + 16k, \quad y = 32 - 21k$, $(k \in Z)$ formulalardan foydalanib topish mumkin. k ning o'rniga ixtiyoriy butun sonni qo'yib tenglamaning boshqa ildizlarini topish mumkin. Masalan:

$k = 4$ bo'lsa, $x_1 = -24 + 16 \cdot 4 = 40$, $y_1 = 32 - 21 \cdot 4 = -52$ – $(40;-52)$.

$k = -1$ bo'lsa, $x_2 = -24 + 16 \cdot (-1) = -40$, $y_2 = 32 - 21 \cdot (-1) = 53$ – $(-40;53)$ va hakazo.

Xulosa qilganda, bunday tipdagi misollarni yechish o'quvchilarning butun koeffitsientli algebraik tenglamalar yechish ko'nikmasi va malakasini shakllantiradi. O'quvchilarni ijodiy yondashishiga, sonlar nazariyasiga oid bilimlarini mustakamlashga yordam beradi. Bu ko'rinishdagi tenglamalarni yechish o'quvchilarning fikrlash, qobiliyatini rivojlantiradi, boshqa fanlarda ham yaxshiroq fikrlash, masalaning tub mohiyatini va yechimini topishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Mukhamedov G.I, Usarov Dj.E. "Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources". International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)', ISSN: 2278–3075 (Online), Volume-9 Issue-3, January 2020, Page 2677-2684. https://www.ijitee.org/download/volume-9-issue-3/*
2. *Гельфонд А.О. Решение уравнений в целых числах. – М., 1978.*
3. *Гузеев Н.И. Еще одна точка зрения. Народное образование. 2009. № 6.*
4. *Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М., 1996.*
5. *Панов В.И. Образовательные системы: психолого-дидактический подход. Монография. 2006. Written by.*
6. *Xodjaboyev A.R. Xusanov I. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2007.*

Zavra ERKABOYEVA,
Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani
34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
Iroda LAPASOVA,
Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani
82-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

FUNKSIYALARNING QIYMATLAR SOHASINI ANIQLASH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada funksiyalarning qiymatlar sohasini aniqlash metodikasi yoritib berilgan. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ma’lumotlar kam uchraydigan funksiyaning qiymatlar sohasi va uni topish yo‘llari haqida nazariya hamda amaliy tushunchalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Funksiyaning qiymatlar sohasi, funksiyaning aniqlanish sohasi, teskari funksiya, monoton funksiyalar.

В статье освещена методика определения области значений функций. Кроме того, в учебнике и учебных пособиях изложены теоретические и практические понятия о области значений функции и пути ее нахождения.

Ключевые слова. Область значений функции, область определения функции, обратная функция, монотонные функции.

The article covers the method of determining the area of function values. In addition, the textbook and manuals contain theoretical and practical concepts about the domain of function values and ways to find it.

Key words. The range of values of a function, the domain of the function, reverse function, monotonic function.

Funksiya tushinchasining muhim tarkibiy qismlari uning aniqlanish va qiymatlar sohalaridir. Deyarli barcha darslik va o‘quv qo‘llanmalarda funksiyaning aniqlanish sohasini topishga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, qiymatlar sohasini topish masalasi bir muncha chetda qolgan. Funksiyalarning qiymatlari sohalarini topish usullariga doir nazariy ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, bir qancha misollar yechib ko‘rsatilgan.

Bizga $y = f(x)$ funksiya berilgan bo‘lsin. Ushbu funksiyaning qabul qiladigan qiymatlar to‘plami *funksiyaning qiymatlar sohasi* deb ataladi va $E(f)$ orqali belgilanadi.

Quyida funksiyaningqiymatlar sohasini topish usullari misollar orqali keltirilgan:

A. Funksiyaning qiymatlar sohasini *teskari funksiya* orqali topish

Ta’rif. Agar f funksiya E to‘plamda aniqlangan bo‘lsa va ikki $x \in E$ va $y \in E$ argument qiymatlari uchun $x \neq y$ shartdan $f(x) \neq f(y)$ kelib chiqsa, funksiya E to‘plamda **teskarilanuvchanlik shartini** qanoatlantiradi deb, $M = f(E)$ to‘plamda aniqlangan f funksiyaning teskarisi f^{-1} deb, to‘plamda aniqlangan va quyidagi ikki shartni qanoatlantiruvchi funksiyaga aytiladi:

1) istalgan $x \in E$ uchun $f^{-1}[f(x)] = x;$

2) istalgan $y \in f(E)$ uchun $f[f^{-1}(y)] = y.$

Tasdiq. Funksiya o‘z teskarisiga ega bo‘lishi uchun uning teskarilanuvchanlik shartini qanoatlantirishi zarur va yetarlidir.

Teskari funksiya uchun quyidagi muhim tasdiq o‘rinli:

Tasdiq. Berilgan f funksiyaning teskari funksiyasi f^{-1} aniqlangan bo‘lsin. U holda, f funksiyaning aniqlanish sohasi f^{-1} funksiyaning qiymatlar sohasi bilan va aksincha, f^{-1} funksiyaning aniqlanish sohasi f funksiyaning qiymatlar sohasi bilan ustma-ust tushadi.

Oxirgi keltirilgan tasdiqdan funksiyaning qiymatlar sohasini topishda foydalanish mumkin. Ya’ni *teskarilanuvchan* funksiyaqiymatlar sohasini topish uchun uning teskari funksiyasining aniqlanish sohasini topish yetarli.

1-misol. Funksiyaning qiymatlar sohasini toping:

$$y = \frac{2x-1}{3x}$$

Yechimi. Funksiya teskarilanuchan ekanligini osongina tekshirish mumkin.

Ushbu funksiya teskari funksiyasini topamiz:

$$y = \frac{2x-1}{3x}, \quad x = \frac{1}{2-3y}, \qquad y^{-1} = \frac{1}{2-3x}$$

Teskari funksiya aniqlanish sohasi $D(y^{-1}) = \left(-\infty, \frac{2}{3}\right) \cup \left(\frac{2}{3}, \infty\right)$ to‘plamdan iborat. Demak, berilgan funksiya qiymatlar sohasi ham ushbu to‘plamdan iborat bo‘ladi.

B. Funksiyaning monotonligidan foydalanib qiymatlar sohasini topish

Ta’rif. Agar ixtiyoriy $x \in E$ *va* $y \in E$ lar uchun quyidagi: $x < y \Rightarrow f(x) < f(y)$ implikatsiya o‘rinli bo‘lsa, f funksiya **o‘suvchi** deyiladi.

Agar yuqoridagi o‘ng tomondagi tengsizlikda qat’iy bo‘lmagan tengsizlikni qat’iy tengsizlikka o‘zgartirsak, biz *qat’iy o‘suvchi* funksiya ta’rifiga kelamiz:

$x < y \Rightarrow f(x) < f(y).$

Masalan, $f(x) = sign\, x$ funksiya butun sonlar o‘qida o‘suvchi, lekin qat’iy o‘suvchi emas.

Xuddi shunga o‘xshash *kamayuvchi funksiya* aniqlanadi: $x < y \Rightarrow f(x) \geq f(y).$

Qat’iy kamayuvchi funksiya esa quyidagicha aniqlanadi: $x < y \Rightarrow f(x) > f(y).$

O‘suvchi funksiya bilan kamayuvchi funksiyalar **monoton funksiyalar** deyiladi, qat’iy o‘suvchi va qat’iy kamayuvchi funksiyalar esa **qat’iy monoton funksiyalar** deyiladi.

Funksiyaning qiymatlar sohasini topishda quyidagi tasdiqdan foydalaniladi:

Tasdiq. *Agar $y = f(x)$ funksiya monoton o‘suvchi bo‘lib,yuqoridan chegaralanmagan hamda aniq quyi chegarasi m mavjud bo‘lsa, u holda bunday funksiyaningqiymatlar sohasi $E(y) = [m; \infty)$ dan iborat bo‘ladi. Yoki aksincha $y = f(x)$ funksiya monoton kamayuvchi bo‘lib, quyidan chegaralanmagan va aniq yuqori chegarasi M mavjud bo‘lsa, bunday funksiyalarning qiymatlar sohasi $E(y) = (-\infty; M]$ to‘plamdan iborat bo‘ladi.*

2-misol. Funksiyaning qiymatlar sohasini toping:

$y = 4 - 2\sqrt{x^2 + 9}$

Yechimi:

$$y_1 - y_2 = 4 - 2\sqrt{x_1^2+9} - 4 + 2\sqrt{x_2^2+9} = 2\left(\sqrt{x_2^2+9} - \sqrt{x_1^2+9}\right) < 0$$

Ya’ni, $y_1 < y_2$. Demak, funksiya uchun argumentning kichik qiymatlariga unga mos funksiyaning katta qiymatlari mos kelyabdi. Bundan funksiyaning monoton kamayuvchi ekanligi kelib chiqadi.

Ko‘rinib turibdiki funksiya quyidan chegaralanmagan. Funksiya o‘zining eng katta qiymatiga $x_0 = 0$ nuqtada erishadi, ya’ni funksiya yuqori aniq chegaraga ega va bu yuqori chegara $y_0 = 4 - 2\sqrt{9} = -2$ ga teng. Bundan funksiya qiymatlar sohasi $E(y) = (-\infty; -2]$ ekanligi kelib chiqadi.

D. Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tamizki, funksiya qiymatlar sohasi uning aniqlanish sohasi bilan bevosita bog’liq. Misol yechish jarayonida dastlabki berilgan funksiyaning shaklini almashtirib(masalan, soddalashtirib) boshqa bir funksiyaga kelish mumkin. Hosil bo‘lgan funksiya bilan dastlabki funksiya aniqlanish sohalari aynan ustma-ust tushmasligi, buning natijasida esa qiymatlar sohalari ham turlicha bo‘lishi mumkin. Dastlabki aniqlanish sohaga tegishli bo‘lmagan nuqtalar soddalashtirilgandan keyingi funksiya aniqlanish sohasiga tegishli bo‘lishi mumkin. Bu holda qiymatlar sohasidan aynan shu nuqtadagi funksiyaning qiymatlarini chiqarib tashlash talab qilinadi.

3-misol. Funksiyaning qiymatlar sohasini toping: $y = \frac{(x^3+8)(x-4)}{x^2-2x-8}$

Yechimi: 1) Funksiyaning aniqlanish sohasini topamiz:

$x^2 - 2x - 8 \neq 0, \qquad (x+2)(x-4) \neq 0$

Demak, funksiya aniqlanish sohasi $D(y) = (-\infty; -2) \cup (-2; 4) \cup (4; \infty)$.

Funksiyani soddalashtiramiz: $y = \frac{(x+2)(x^2-2x+4)(x-4)}{(x+2)(x-4)} = x^2 - 2x + 4$

Ko‘rinib turibdiki, soddalashtirishdan keyin hosil bo‘lgan funksiya aniqlanish sohasi butun haqiqiy sonlar o‘qidan iborat. Soddalashtirilgandan hosil bo‘lgan funksiya uchun:

$x_1 = -2$ nuqtada funksiya qiymati $y_1 = 12$.

$x_2 = 4$ nuqtada ham funksiya qiymati $y_2 = 12$.

Ushbu argument qiymatlari funksiyaning aniqlanish sohasiga te[illegible]as va demak, funksiyaning qiymatlari ham qiymatlar sohasiga tegishli emas: $y \neq 12$.

2) $y_1 = x^2 - 2x + 4$ kvadrat funksiyaning qiymatlar sohasini topamiz:

$x_0 = 1, y_0 = 3$

$a = 1 > 0$ bo‘lgani uchun ushbu funksiya qiymatlar sohasi $(y_1) = [3; \propto$

Demak, berilgan funksiya qiymatlar sohasi $E(y) = [3; 12) \cup (12; \infty)$.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Erkaboyeva Z., Lapasova I., Bahodirova N. Funksiyaning aniqlanish va qiymatlar sohasi. SamDU nashriyoti. Samarqand: 2020 y.*
2. *A.Y.Abduhamidov va boshqalar. Algebra va matematik analiz asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2007 y.*

Azamat RAXMONOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti “Pedagogika va menejment” kafedrasi o‘qituvchisi

ZAMONAVIY O‘QUV MASHG‘ULOTI VA TA’LIMNING O‘ZIGA XOS IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimi islohoti zamonaviy darslar va ular oldiga qo‘yilgan yuksak talablar yoritilgan. Shuningdek, muallif dars usullari, vositalarini takomillashtirish haqida fikrlarini keltirib o‘tgan.
Kalit so‘zlar. Rivojlantirish konsepsiyasi, dars ta’limotlari, demokratik mafkuraga, sotsial-pedagogik iqlim, referent guruhlarga, emotsional.

В статье дается представление о современных уроках, о проводимых в республике реформах системы образования и высоких требованиях к ним, а также о совершенствовании методов и средств проведения урока.
Ключевые слова. Концепция развития, учение об уроках, демократическая идеология, социально-педагогический климат, референтные группы, эмоциональность.

The article provides an idea of modern lessons on the reforms of the educational system implemented in the Republic and the high requirements for them, as well as improving the methods and tools of the lesson.
Key words. Development concept, lesson teachings, democratic ideology, socio-pedagogical climate, referent groups, emotional.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimi islohoti hozirgi zamonaviy darslari oldiga yuksak talablarni qo‘ymoqda. Shunga muvofiq darsni o‘z navbatida shakllari, usullari, vositalarini takomillashtirilishi, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarning o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga, bilim saviyasini oshirishga xizmat qilishiga erishmoq, ularning dars materiali mazmunini yanada chuqurlashtirishga xizmat qildirmoq darkor.

Davlatimizning Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilanganidek: o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan ulkan vazifalarni, ta’lim sifati va dars samaradorligini oshirgan taqdirdagina muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Ta’lim sifati esa tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, har tomonlama kamol topgan inson shaxsini voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Har tomonlama kamol topgan inson shaxsini tarbiyalash hozirda mafkura ishining muhim va ma’suliyatli vazifalardan biri ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashti-

[1] “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2019-yil 6-may, 18-son, 348-modda

rish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli farmonlarini[2] ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan dasturlarda ham yoshlarga beriladigan ta’lim va tarbiyani zamon talablari darajasiga ko‘tarish vazifasi belgilangan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining isloh qilinishi mamlakatimizda o‘mumiy o‘rta ta’lim maktablarini va undagi ta’lim-tarbiya jarayonini tubdan qo‘llashning ulug‘vor istiqbollari belgilab berilmoqda. Bu dasturni amalga oshirish umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga fanlar asoslarini puxta o‘rgatish va ularni har jihatdan kamol toptirish ishining sifat va samaradorligini tubdan yaxshilash zaruriyatini taqoza etadi.

Bu muhim muammoni amalga oshirishda o‘rta maktab o‘quv faoliyati jarayonida o‘quvchi shaxsini har jihatdan tarbiyalashda fanlarning boshqa fanlardan tubdan farq qiluvchi o‘ziga xos katta imkoniyatlari bor.

Darhaqiqat, o‘rta maktabda o‘rganiladigan o‘quv predmetlari orasida dars materiallari alohida qimmatga ega. Chunki bu dars ta’limotlarining ijobiy qahramoni mustaqil jamiyat qurish uchun kurashda toblanayotgan, o‘zida insoniyatga xos eng yaxshi sifatlarni mujassamlantirgan, jahonda eng ilg‘or, eng nufuzli, eng yurtsevar inson bo‘lib, u o‘quvchilar uchun kuchli taqlid va ibrat namuna xislatlariga ega bo‘lishidir.

Bu hol o‘qituvchisi zimmasiga juda katta ma’suliyat yuklaydi. Undan hamisha fan haqidagi yangilik va tadqiqotlardan xabardor bo‘lishni talab qilinadi.

O‘qituvchi demokratik mafkuraga asoslangan o‘zbek fan arboblarining asarlarini chuqur ilmiy-tarbiyaviy tahlil eta olishi, hozirgi zamon fan ta’limotning asosini tashkil etuvchi tizimini, tushuncha va qonuniyatlarni to‘g‘ri idrok qilishi, o‘rta maktab fan bo‘yicha kurslarining mundarijasini tashkil etuvchi tushunchalar tizimidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida bilishi va ulardan amaliy faoliyatida unumli foydalanishni, o‘quvchilarni tushuncha doirasi va individual imkoniyatlarga mos ravishda fan materialning ilmiy va tarbiyaviy g‘oyasi bilan mustahkam qurollantirishni ta’minlash zarur.

O‘quv predmeti sifatidagi mohiyatiga ko‘ra, fan materialning muhim tomoni uning pedagogik yo‘nalishi bo‘lib, bu material quruq didaktika, nasihatgo‘ylikdan holi bo‘lishi kerak. Chunki har bir dars mazmunida o‘quvchini ilg‘orlikka, haqiqatga undovchi g‘oya bor. Bu g‘oya va mazmunni o‘quvchining yoshi, pedagogik imkoniyatlari va individual sifatlariga mos ravishda o‘quvchilar ongiga singdirilishi kerak. Ammo shuni esdan chiqarmaslik kerak kichik, o‘rta va katta sinflarda bir xil usul bilan dars o‘tish yaxshi natija bermaydi.

Tabiiyki, o‘quvchilarga atalgan dars mavzusi ularning yosh xususiyatlari tushuncha doirasi hisobga olingan bo‘ladi. Ana shuni hisobga olgan holda har bir sinf va mavzu uchun usul tanlash o‘qituvchining bilim saviyasi va pedagogik mahoratiga havola etiladi.

Tajribadan ma’lumki, kichik yoshdagi o‘quvchilarga ertak, doston, hikoya voqyealari, qahramonlari mo‘jiza bo‘ladi, ularni taqlidchilikka undaydi. O‘rta va katta yoshdagi o‘quvchilik davrida esa bu tushuncha o‘zgaradi. Natijada ertaklar, dostonlar, fantastik syujetlar o‘smirlarni qiziqtirmaydi, ular g‘ayritabiiy kuchlarga ishonmay qo‘yadilar. Bunday asarlarda tasvirlangan g‘aroyibotlarning hayotda yo‘qligiga shubha qilmaydilar.

[2] Xalq so‘zi №184 (7142) 06/09/2018-yil 2-b

Turli yoshdagi o‘quvchilarga xos bo‘ladigan pedagogik sharoitlarni hisobga olgan holda o‘qituvchi har bir darsning ta’limiy va tarbiyaviy maqsadini aniqlaydi. Darsning tuzilishi ham shu maqsadga bo‘ysindiriladi.

Turli-tuman mazmundagi dars materialning o‘quvchilar ongiga singdirilishi va unda mustahkam o‘rnatish jarayoni dars jarayonidir. Ilmiy va uslubiy jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan, aniq maqsadga asoslangan har bir darsni o‘quvchi axloqini mustaqil darajasida o‘zgartiradi.

Bunga erishmoq uchun o‘qituvchi u yoki bu mavzuni o‘rgatish uchun usul tanlaganda o‘sha mavzuning xususiyatini, g‘oyaviy mazmunini, kompozitsion qurilishini, hajmini, murakkablik darajasini hisobga olishi zarur.

Puxta hozirlik bilan o‘tkazilgan dars o‘quvchi ongiga kuchli ta’sir etadi, uni ilg‘or g‘oyalar sari yetaklaydi, unda turli emotsional holatlarni vujudga keltiradi, tafakkur doirasini kengaytiradi, estetik didini o‘stiradi, amaliy faoliyatida yo‘llanma bo‘ladi.

Dars odatda asosiy bilimni o‘quvchi ongiga singdirishning asosiy yo‘li bo‘lib, uning sifat va samaradorligini oshirish o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faolligini taqoza etadi. Agar o‘qituvchi darsni boshlashdanoq o‘quvchilarning faolligini ta’minlasa, darsda ko‘zda tutilgan ta’limiy va tarbiyaviy funksiya amalga oshiriladi.

Bunday murakkab vazifani bajarish o‘qituvchidan har bir mavzuga ijodiy yondoshishni talab etadi.

O‘qituvchining bu vazifasini amalga oshirishiga to‘siq bo‘luvchi pedagogik hollardan biri sinf o‘quvchilari tushunchasi, qiziqishi va bilim doirasining har xilligidir.

Ko‘p yillar davomida turli sinflar o‘quvchilarining masalan adabiyot faniga qiziqishlarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bir sinf o‘quvchilari adabiy materialga munosabatlari jihatdan bir qancha referent guruhlarga bo‘lindilar. Bir qism o‘quvchilar adabiyot faniga juda qiziqadilar, ikkinchi qism o‘rtacha, uchinchi qism qisman, to‘rtinchi qism mutlaqo qiziqmaydi. Bu hol dars sifati va samaradorligiga halaqit beradi, o‘qituvchining dars jarayonidagi mehnatini murakkablashtiradi.

O‘z navbatida shuni ham ta’kidlash zarurki, hozirgi vaqtda sinf o‘quvchilarining hammasini baravariga adabiyot faniga qiziqtira olishni uddalay olmaydigan o‘qituvchilar ham bor. Buning natijasida bir qism o‘quvchilar adabiy bilimni mutlaqo egallamay, o‘rta maktabni bitirib chiqmoqda. Bunday o‘quvchilarda nafaqat og‘zaki, balki yozma nutq malaka va ko‘nikmalari ham juda past saviyada shaklanadi.

Hozirgi davr har bir o‘qituvchini psixologiya va pedagogika fanlarining so‘ngi yutuqlarini yaxshi bilishlarini talab qilmoqda. Chunki psixologik va pedagogik bilim sinf jamoasini, har bir o‘quvchi shaxsini bilishga imkon beradi, fanlarni o‘qitishning yangi mahsuldor usullari bilan o‘qituvchini mustahkam qurollantiradi, uning uslubiy saviyasini oshiradi, darslarning ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ijtimoiy muhit, sotsial-pedagogik iqlim sharoitlari jadal sur’atlar bilan o‘zgarayapti. Bu o‘zgarish o‘quvchi-yoshlar ongiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada fanlarni o‘qitishning an’anaviy usullari o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish, ular ongiga yuksak axloqiy sifatlarni singdirish, mustaqilligini, faol turmush tarzini egallashga tayyorlashda ojizlik qilmoqda.

Hozirgi kunda darslarni o‘qituvchining an’anaviy o‘qitish usullariga ijodiy yondashuvi va texnik vositalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Dars samaradorligini ta’minlashda ta’limning kabinet sistemasi, fan kabinetining jihozi, unda mavjud bo‘lgan texnika vositalaridan o‘qituvchining mohirona foydalana olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar o‘zbek fan arboblari, O‘zbekiston qahramonlari, Davlat mukofoti lauriyatlari, Mehnat qahramonlari, yozuvchilarning portretlari bilan jihozlansa, har bir portret ostida yozuvchi olimlarning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot berilsa, bu hol darsning tarbiyaviy qimmatini oshiradi, o‘quvchilarning dars materialini o‘zlashtirishiga qulaylik yaratadi, fan yuzasidan bilimning mustahkamlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi qonuni: “Ta’lim to‘g‘risida” Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. 65-b

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi (O‘zR Prezidentining 29.04.2019-y. PF-5712-son Farmoniga 1-ilova)

4. O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

5. Umumta’lim fanlari, Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari. Sharq, 2001. 384-b.

6. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi-mualliflar: K.Xoshimov. Ochil S. – T.: O‘qituvchi, 1995. 460-b.

Ikrom QODIROV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti mustaqil tadqiqotchisi

ZAMONAVIY UMUMTA'LIM MAKTABLARI BOSHQARUVIDA RAHBARLIK MAHORATI VA MAS'ULIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda rahbarning o'rni va mas'uliyati, boshqaruv madaniyati va ma'naviyati, maktab rahbari bajaradigan amallar hamda boshqaruvchi odobining o'ziga xos qonuniyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, mualif umumta'lim muassasasi kuzatuv kengashining asosiy vazifalarini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Farmon, o'quv-tarbiya, kuzatuv kengashi, boshqaruvchi, pedagogik mahorat, jarayon, islohot, faoliyat.

В статье рассматриваются роль и ответственность руководителя в повышении эффективности образования и воспитания, культура и духовность управления, деятельность руководителя школы, а также конкретные законы управленческой этики. Также были озвучены основные задачи наблюдательного совета лечебного учреждения.

Ключевые слова. Указ, учебно-воспитательный, наблюдательный совет, управляющий, педагогическое мастерство, процесс, реформа, деятельность.

The article discusses the role and responsibility of the head in improving the effectiveness of education and upbringing, the culture and spirituality of management, the activities of the head of the school, as well as specific laws of management ethics. The main tasks of the Supervisory Board of the medical institution were also announced.

Key words. Decree, educational and educational, Supervisory Board, Manager, pedagogical skills, process, reform, activity.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmonida xalq ta'limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanishi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashishi ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek, ushbu Farmonda 2018-yil 1-oktyabrdan boshlab umumta'lim muassasalarining vasiylik kengashlari tugatilishi, ularning o'rniga yuridik shaxs maqomisiz umumta'lim muassasalarining kuzatuv kengashlari tashkil etilishi, kuzatuv kengashlari tarkibiga muassasa faoliyatiga jiddiy hissa qo'shishga qodir eng faol ota-onalar, bitiruvchilar, homiylar va boshqa shaxslar kiritilishi belgilab qo'yilgan.

Quyidagilar umumta'lim muassasasi kuzatuv kengashining asosiy vazifalari etib belgilandi:

– vazirlik tomonidan tavsiya etilgan nomzodlardan umumta'lim muassasasi rah-

barini saylash, shuningdek, belgilangan tartibda uni egallab turgan lavozimidan ozod etish haqida takliflar kiritish;

– umumta’lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

– umumta’lim muassasasi rahbarining muassasa faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-xo‘jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida hisobotlarini vaqti-vaqti bilan tinglash;

– umumta’lim muassasasi rahbarining taqdimnomasi bo‘yicha yillik moliyaviy rejalarni, ko‘rsatilayotgan pullik xizmatlar narxining miqdorlarini va muassasa mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqi miqdorini, shu jumladan, auksiondagi boshlang‘ich narxni ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

– o‘quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o‘rnatish;

– o‘quvchilar va ota-onalarining murojaatlarini ko‘rib chiqish, umumta’lim muassasasining pedagog va rahbar xodimlari faoliyati to‘g‘risida ijtimoiy so‘rovlarni o‘tkazish;

– ta’lim muassasasining faoliyatini tashkil etishga taalluqli boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etish.[1]

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ta’lim muassasasi rahbari shaxsiga qo‘yilayotgan talablarni yanada kuchaytiradi. Bu esa maktab rahbaridan boshqaruvning nazariy va amaliy asoslaridan xabardor bo‘lishni hamda ko‘p yillik tajribalar asosida shakllangan xulosalardan foydalanishni taqozo etadi. Ma’lumki, boshqaruvning har qanday nazariy xulosalari ko‘p yillik tajribalar natijasida shakllanadi, undan so‘ng hayotga tatbiq etiladi. Ta’lim muassasasi rahbari tomonidan chiqarilgan noto‘g‘ri qaror nafaqat jamoa o‘rtasidagi muhitni buzadi, balki eng asosiy maqsad, biz uchun hayot-mamot masalasi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Natijada davlat hamda jamiyat taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘ladi. Shu bois ta’lim muassasasi rahbarining o‘rni, uning asosiy vazifalari, mas’uliyati haqida doimo qayg‘urib mehnat qilgan, ilmiy izlanishlar olib borgan, hayotiy xulosalarga kelgan fidoyi pedagoglar tajribalarini o‘rganish ham bugungi maktab direktorlari uchun foydadan xoli emas.

Rahbarlikda ba’zida o‘z e’tiborini faqat vazifalarga, ishga qaratgan yoki faqat xodimlarga qaratgan rahbarni ko‘rish mumkin. Albatta, bunday ko‘rinishdagi rahbarlarning ikkalasi ham jiddiy kamchiliklarga ega, deb baholanadi. Shu o‘rinda boshqaruv madaniyati, boshqaruv ma’naviyati tushunchalarini izohlab o‘tsak.

Boshqaruv madaniyati – boshqaruv va rahbarlik sohasidagi muayyan maqsadga erishish yo‘lida insoniy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmui.[2] Boshqaruv madaniyati xodimlar faoliyati, maqsad-muddaolari va ularning qadriyatlarini hisobga olgan holda boshqaruvni amalga oshirish hisoblanadi.

Boshqaruv ma’naviyati – ma’naviyat tamoyillarining boshqaruv sohasida namo-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni.

[2] "Ma’naviyat – asosiy tushunchalar" izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013.

yon bo‘lishi, rahbarga xos ma’naviy fazilatlar, jamiyat va davlat hayoti, barcha sohalardagi boshqaruvning ma’naviyat talablariga mos bo‘lishini anglatuvchi tushuncha.

Boshqaruv uslublari muammosini o‘rganishda shu masala bo‘yicha ilgari surilgan fikr va qarashlar Abu Nasr Forobiyning “Aql to‘g‘risida”gi risolasi, Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari, Alisher Navoiy asarlarida va zamonamiz olimlaridan N.Boymurodovning “Rahbarlik psixologiyasi”, M.Qoplonova, O.Avlayevning “Boshqaruv psixologiyasi”, J.G‘. Yo‘ldoshev, S.A.Usmonovning “Ta’lim menejmenti”, R.Sh.Ahlidinovning “Maktab boshqaruvida ichki nazorat”, N.Komilov, A.Begmatov, M.Quronovning “Rahbar va xodim” kabi ilmiy asarlarida ko‘rish mumkin.

Abu Nasr Forobiyning “Aql to‘g‘risida”gi risolasida rahbarlikka xos bo‘lgan quyidagi ayrim fikrlar bayon etilgan. Aqlli deb, shunday kishiga aytamizki, unda o‘tkir zehn-idrok bo‘lishi bilan birga, fazilati ham bo‘lsin. Bunday kishi o‘zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o‘zini saqlashga va tortishga qaratgan bo‘lmog‘i lozim. Ular fazilatli, o‘tkir muhokamali, yaxshi, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’dodga ega. Yomon ishlardan o‘zlarini chetga olib yuradilar. Shunday odamnigina aqlli va to‘g‘ri fikr yurituvchi, deb atash mumkin.

Buyuk bobokalonimiz Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari”da mansabdor shaxsning o‘z mansabini suiiste’mol qilishi, adolatsizligi, yolg‘onchiligi, ikkiyuzlamachiligi, o‘z so‘zining uddasidan chiqmasligini qattiq qoralagan, “Kuch – adolatda” g‘oyasini ilgari surgan. Yana bir buyuk ajdodimiz Alisher Navoiy ham boshqaruvda hukmdor birinchi navbatda haq yo‘lni tanlagan, har bir ishni insof va adolat tarozusi bilan o‘lchaydigan ma’naviy yuksak inson bo‘lish zarurligini uqtirgan.[3]

Boshqaruvchining shaxsiyati uning fazilati va obro‘-e’tibori hisoblanadi. Maktab rahbarining muhim fazilati uning yaxshi boshqaruvchi va pedagog bo‘lishidadir.

Rahbarlik quyidagi jadvalda berilgan amallar bajarilishini taqozo etadi.

Rahbar bajaradigan amallar

Yo‘naltirish	Pedagogik va o‘quvchilar jamoasini milliy g‘oya tamoyillari asosida faoliyat ko‘rsatishga yo‘naltirish.
Vazifa qo‘yish	Rasmiy hujjatlar asosida pedagog va o‘quvchilar jamoasi oldiga shaxs va jamoani tarbiyalash bo‘yicha vazifa qo‘yish.
O‘rganish	Pedagogik jamoaning ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun aniq maqsad qo‘yish va kerakli metodik shakllarni topishga o‘rganish.
Yordam berish	Jamoada mehnat faoliyati va ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va faollashtirishga yordam berish.
Qo‘llash	Pedagogik va o‘quvchilar jamoasi, o‘qituvchi va o‘quvchilar tashabbusini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.
Maslahat berish	Jamoaga o‘z imkoniyatlarini to‘liq ishlatishi uchun kerakli amaliy-uslubiy maslahatlar berish.
Kuzatish	Kattalar va bolalar jamoasining saviyasi, axloqiy va madaniy-ma’rifiy o‘sishini takomillashtirib borishini kuzatish va o‘rgatish.
Tartibga solish	Jamoaning ishga bo‘lgan va o‘zaro munosabatlari, jamoa a’zolarining mehnat faoliyatlarining ijobiy-salbiy tomonlarini tartibga solish.
Ko‘rsatma berish	Jamoaga mehnat faoliyatlarini tashkil etishida kerakli ko‘rsatma berish.
Nazorat qilish	Pedagog xodimlar va o‘quvchilar faoliyatlari natijalarini muntazam nazorat qilib borish.

[3] Hoshimov K., Safo O. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2010.

Rahbarlik odobi yuksak ma’naviy, madaniy, axloqiy me’yor, talab va tamoyillar bo‘lgan erkinlikka asoslanadi. Rahbar nafaqat o‘zi erkin bo‘lishi, balki o‘zi ishlayotgan jamoa a’zolarining ham erkinligini hurmat qilishi lozim.[4]

Rahbarlik odobining o‘ziga xos qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

– kasbini va bolalarni sevish;

– shaxsining axloqiy pokligi;

– pedagogik takt, muomala odobi qoidalariga ega bo‘lish;

– o‘quvchilarga nisbatan xolis niyatli, obyektiv, talabchan, adolatli bo‘lish;

– pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri bilan pedagogik ijodkorlikning uyg‘unligi.

Boshqaruvchi odobining manbalariga quyidagilar kiradi:

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ta'limga oid qarorlar va normativ hujjatlar;

– mamlakatning direktiv hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, nutqlari;

– umumiy va milliy axloqqa, kasb odobiga doir ilmiy asarlar;

– Markaziy Osiyoda yashab, ijod qilgan donishmandlarning madaniy-ma’rifiy, pedagogik merosi;

– o‘zbek xalq pedagogikasi asarlari, odobnomalar va ularga doir ilmiy-pedagogik tadqiqotlar;

– axloqiy tarbiyaga, boshqaruvchining odobiga doir ta’limotlar;

– maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari odobnoma fani bo‘yicha adabiyotlar va boshqa fanlarni o‘qitish tajribasi, pedagogik amaliyotga doir materiallar;

– ta’lim-tarbiya, pedagogik faoliyatni aks ettirgan badiiy asarlar va boshqalar.

Hozirgi zamonda rahbarning fazilati asosan uning dadilligi, tashabbuskorligi, bilimdonligi, halol va va’dasiga vafodorligidan ma’lum bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, hozirgi rahbarlar haqiqiy fazilat va xususiyatlarga ega bo‘lishi uchun:

– keng siyosiy bilimga ega bo‘lishi;

– pedagogik mahoratga ega bo‘lishi;

– jamoa ishlarini bajara oladigan va o‘z qo‘l ostidagilar bilan yaxshi muomalada bo‘la olishi;

– ota-onalar va jamoatchilik o‘rtasida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lishi;

– dunyoqarashi keng, ilmiy-metodik bilimga ega bo‘lishi;

– izlanuvchan, omilkor bo‘lishi va yangiliklarga ijobiy munosabatda bo‘lishi;

– muassasaning hamma sohalarini keng o‘rgangan bo‘lishi;

– ishga vijdonan munosabatda bo‘lishi;

– xo‘jalik masalalarini to‘g‘ri hal qila olishi;

– maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasasi ishini boshqarish tamoyillari asosida tashkil qila olishi va amalga oshira olishi kerak.[5]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, boshqaruvchi rahbar o‘quv-tarbiya tizimidan boshlab to maktabdan va sinfdan tashqari ishlargacha barcha maktab ishlarini pedagogik-psixologik nuqtai nazardan biladigan va tahlil qila oladigan bo‘lishi

[4] Boymuradov N. Rahbar psixologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.

[5] Karimjonov A. Pedagogik tizimni boshqarish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2008.

zarur. Shuningdek, ta'lim muassasasida pedagoglar mehnati yaxshi tashkil etilsa, ta'lim-tarbiya samaradorligi ham shu darajada yuksak bo'ladi. Har bir rahbar maktabda pedagogik-psixologik muhitni bir maromda ushlab tursa, o'z faoliyatida adolat va insonparvarlik mezonlariga amal qilsa, bu maktabda pedagoglar jamoasi hech qachon parokanda bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.

2. Boymuradov N. Rahbar psixologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.

3. Karimjonov A. Pedagogik tizimni boshqarish asoslari. O'quv qo'llanma. – T., 20080

4. "Ma'naviyat – asosiy tushunchalar" izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013.

5. Hoshimov K., Safo O. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.

Shohida MAHKAMOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Musiqa ta’limi va defektologiya” kafedrasi mudiri
Mastura ASADULLAYEVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Musiqa ta’limi va defektologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

YOSHLARNI MA’NAVIY TARBIYALASHDA QO‘SHIQCHILIK SAN’ATINING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda qo‘shiqchilik san’atining tutgan o‘rni va ahamiyati aks etgan. Shuningdek, muallif yoshlarni estetik ruhda tarbiyalashda san’atning ahamiyati va uning muhimligini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Ma’naviy tarbiya, estetik tarbiya, qo‘shiqchilik san’ati, yoshlar tarbiyasi, musiqa, janr turlari, maqom, ashula, katta ashula.

В статье отражены роль и значение искусства пения в духовно-просветительском воспитании молодежи. Также автор отметил важность искусства и его важность в воспитании молодежи в эстетическом духе.

Ключевые слова. Духовное воспитание, эстетическое воспитание, пение, молодежное воспитание, музыка, жанры, статус, пение, большое пение.

The article reflects the role and significance of the art of singing in the Spiritual and educational education of young people. The author also noted the importance of art and its importance in educating young people in an aesthetic spirit.

Key words. Spiritual education, aesthetic education, singing, youth education, music, genres, status, singing, big singing.

Yoshlarni tarbiyalashda, kamol toptirishda adabiyot va san’at muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o‘zida axloqiy poklik, ma’naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan inson nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san’ati yetakchi o‘rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa san’atining yoshlarni tarbiyalashdagi o‘rni ortib bormoqda.

Yoshlarimizni ma’naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda maktabning o‘rni shak-shubhasiz juda kattadir. Maktab yoshlarimizga bilim asoslarini singdiradi. U bolalarni ilmiy dunyoqarashini shakllanishi va mustahkamlanishi yo‘lida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.[1] Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma’naviy dunyoqarashini rivojlantiradi.

Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va musiqiy-estetik tarbiyaning muhim vositasidur. Musiqiy-estetik tarbiyaning yana bir asosiy vositalaridan biri qo‘shiqchilik san’ati hi-

[1] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, NMIU, 2016y.

soblanadi. Qo‘shiqchilik musiqa san’atining alohida o‘ziga xos bir turidir. Ana shu o‘ziga xoslik qo‘shiqda kuy, she’riy asar hamda ijrochining tarkibiy ravishda qo‘shilib ketishida o‘z ifodasini topadi.[2]

Musiqaning estetik tarbiyadagi o‘rni falsafa, musiqashunoslik va pedagogikaga doir adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Ammo musiqa san’atining shaxsni shakllantirishdagi roli ilmiy yoritilmagan. Buning sababi, musiqa san’ati strukturasining murakkabligi va uning insonga, inson ongiga ta’sirining ko‘p qirraligidadir.

O‘zbek musiqa san’atining tarixi juda ko‘hna bo‘lib, u insoniyatning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq. Qo‘shiqchilik san’ati jamiyatning uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan ijtimoiy fikri, g‘oyalari, dunyoqarashi mahsulidur.

Arxeologik qazilma va topilmalarning guvohlik berishicha, O‘zbekiston hududida eng qadimiy davrlardan boshlab qo‘shiqchilikning raqs-musiqachilik san’ati bilan shug‘ullanib kelingan. Ayniqsa, Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Qadimgi Farg‘ona, Qang, Kushon kabi dastlabki quldorlik davlatlar o‘zining yuksak madaniyatiga ega bo‘lganligi, shu bilan birga, qo‘shiqchilik san’ati yaxshi rivojlanganligi shuni ko‘rsatadiki, o‘zbeklar diyori umuminsoniyat sivilizatsiyasining muhim ma’naviy o‘choqlaridan biri bo‘lganidan dalolat beradi.

Qadimgi O‘rta Osiyo xalqlari qo‘shiqchilik san’atining farqlanuvchi jihati asosan milliy qo‘shiqchilikni she’riyat va raqs bilan chambarchas bog‘liqligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham musiqa qo‘shiqchilik san’ati mustaqil ravishda va boshqa san’at turlarida alohida paydo bo‘lmasdan, madaniyat va san’atning boshqa turlari bilan uzviy ravishda bog‘liqlikda shakllandi va qadr topdi.

Qo‘shiqchilik san’ati janrlari va shakllari rang-barang bo‘lib, ular ijtimoiy turmush, xalq an’analari hamda marosimlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. O‘rta Osiyo xalqlari qo‘shiqchilik san’ati asosan madhiyalar, allalar, yig‘i, harbiy chaqiriqlar, ibodat qo‘shiqlari, tantana va bayramdagi qo‘shiqlar tarzda namoyon bo‘lgan.

Qadimgi davlarlarda qo‘shiqchilik san’ati xalq san’ati shaklida paydo bo‘lib, keyinchalik sinfiy jamiyatga o‘tish va ijtimoiy tabaqalanish natijasida uning kasbiy (professional) shakli ajralib chiqa boshladi. O‘rta Osiyoda eramizdan avvalgi ming yillikning birinchi yarmida, ya’ni ilk temir davrda ibtidoiy jamoa tuzimi o‘zining so‘nggi bosqichni o‘tab, unung o‘rniga sinfiy jamiyat yuzaga kelgani nazarda tutilsa, kasbiy qo‘shiqchilik san’ati ilk asoslari bundan ikki yarim ming yil avval shakllana boshlagan deyish mumkin. O‘zbekiston tarixidagi barcha davrlarda qo‘shiqchilik san’ati kishilarni Vatanga sadoqatli, komil insonlar qilib tarbiyalash masalalariga katta e’tibor berilgan.

Musiqa san’ati o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni musiqiy-estetik tarbiyalashning eng kuchli vositalaridan biridir. Musiqa san’atining kompleks tuzilishidagi kuy, ohang, qo‘shiq, qo‘shiq matni va ijrochilik mahorati insonga ta’sir qilishni ta’minlaydi. Kuy va uning musiqiy ifodasi insoniyat hissiyotiga, matn esa uning sezgilari va ongiga ta’sir etadi. Musiqa san’ati o‘zbek xalqining barcha qatlamlariga singib kirib, xalqimizning qayg‘u-hasratlariga va hursandchiligiga, kelajakka bo‘lgan go‘zal intilishlariga hamroh bo‘lib kelgan.

Vokal qo‘shiqchilik san’ati o‘zining qator jihatlari bilan o‘quvchilarda go‘zallikni idrok etishni, zavqlanishni, estetik his-hayajonni, estetik didni, estetik mulohaza va uning tuzilmasidagi elementlardan biri bo‘lishi musiqaga nisbatan juda katta ta’sir doirasiga ega. Shuning uchun musiqa san’ati boshqa san’at turlariga qaraganda xalq orasida eng sevimli va keng tarqalgan.

[2] Matyoqubov O. Og‘zaki an’anadagi professional muziqa asoslariga kirish. – T., 1983.

Musiqa san’ati, ya’ni qo‘shiqchilik kuy, ritm, zarb, qator musiqiy vositalar orqali mazmunini ifodalab, davlat, millat, irq ayirmasdan insoniyatga do‘stona xizmat qilib, tarixda xalqning aql farosati, qayg‘u shodligi, pok muhabbati va orzu-umidlarini ifodalab, ularning ma’naviy-estetik baholash va estetik ongini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir.

Musiqa san’atining tarbiyaviy vazifasi o‘quvchilar ma’naviyatiga qaratilgan o‘quvchining dunyoqarashini shakllantirib, o‘zgartirib, ruhiy holati, axloqiy qiyofasi, qiziqishi va tafakkuriga keng ko‘lamda chuqur ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning estetik tafakkuri ko‘proq qaysi janrdagi san’at asarlarning muxlisi ekanligi, o‘z qalbi, irodasi, ish harakati, ijtimoiy orzusi qanday ekanligini o‘ylab, o‘z-o‘zini anglashda namoyon bo‘ladi. Bunda musiqiy tarbiya tiniq obrazlar vositasi orqali olib boriladi. Bu hamma vaqt kuchli hayajon va ta’sirlanish hissini uyg‘otadi.[3]

Musiqa tarbiyasi yoshlarning estetik tuyg‘usini shakllantirib, ularning san’atga qiziqishini va estetik didini, qalb go‘zalligi va estetik turmush ko‘nikmasini oshiradi. Shu jihatdan musiqa tarbiyaning samarali vositasida, tabiiyki, estetik tarbiya faqat musiqa asarlarining ta’siridagina vujudga kelmaydi, u har taraflama borliqqa ta’siri qiladi. U turmushning hayot maktabidan, jamoa hayotidan, axloqiy muhit ta’siridan, boshqa xalqlarning o‘zaro ta’siri va milliy an’analarining ta’siridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

Biz musiqa san’atining hamma turlari va janrlari, san’atning barcha obrazlari va badiiy vositalari hamma joyda to‘g‘ridan-to‘g‘ri axloqiy g‘oyani ifodalashi lozim deb qaramaymiz. Ya’ni san’at asarlarida kundalik turmushga doir biror aniq axloqiy fikrning bevosita ifodalanishi shart emas. Shunisi ravshanki, jamiki san’at turlari kishilarga bevosita estetik jihatdan yondashish orqali ularda yuksak ma’naviy va axloqiy g‘oyalarni shakillantiradi. Bu esa san’at turlari va janrlaridagi umumiy xususiyatdir.[4]

Yoshlarimizning hayotga qiziqishi his-tuyg‘ularining o‘sib borishi atrof-muhitni kuzatish qobiliyatini o‘sishida musiqa san’ati muhim o‘rin tutadi. Boshqa san’at turlariga nisbatan musiqa san’ati, shu jumladan, qo‘shiqchilik san’ati ma’naviy tarbiyaning muhim tarbiyaviy qismidir. Estetik tarbiya go‘zallikni his qilish va tushunish tarbiyasi demakdir.

Estetik tarbiyada musiqa san’ati o‘ziga xos alohida kuchli ta’sirchanlikka ega bo‘lganligi sababli qadim zamondan buyon hozirgacha ma’rifatli e’tiboriga sazovor bo‘lib kelmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tiladigan musiqa darslari orqali amalga oshiriladigan estetik tarbiya yosh avlodda go‘zal axloqiy insoniy fazilatlarni tarkib topishida muhim vosita ekanligi tarixdan ma’lum. Musiqa ma’naviy madaniyatimizning asosiy tarkibiy qismi. U jamiyat kishilariga ma’naviy go‘zallik va estetik zavq bag‘ishlaydi.

Musiqa san’ati o‘zining ma’naviy kuch-qudrati bilan mashhur shaxslarning ko‘pchiligi bolalik chog‘ida musiqiy tarbiyani olgan. Ularning musiqiy-ma’naviy go‘zal tuyg‘u orqali falsafiy tafakkurga erishib, ajoyib kashfiyotlar yaratganliklariga oid tarixiy misollar ko‘p uchraydi.[5]

Demak, musiqiy estetik tarbiya butun insoniyat jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri deb aytishga barcha asoslar yetarli. Yoshlarning jamiyatga mu-

[3] Nurmatov H., Yuldasheva N.K. O‘zbek xalq musiqa ijodi. –T., 2007.

[4] Ibrohimov O. Maqom va makon. –T., 1997.

[5] Matyoqubov O. Og‘zaki an’anadagi professional muziqa asoslariga kirish. –T., 1983.

nosib mutaxasis bo‘lib yetishishida umumiy o‘rta ta’lim maktablari asosiy o‘rinni egallaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkunki, qo‘shiqlarda tarix sahifalari, ijtimoiy turmushning rang-barang olami va musiqaviy tafakkuri aks etgan. Qoshiqchilik san’atining ritm ohangini farqlashga o‘rgatish, musiqaga bo‘lgan havas ishtiyoqni oshirish boshlang‘ich sinflarda oson kechadi. Musiqa darslari orqali qo‘shiq o‘rgatish bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlariga mos olib borilsa, uning natijasi ham ijobiy bo‘lishi shubhasiz. Bu esa umumta’lim maktablarida o‘tiladigan musiqa darslari orqali estetik tarbiya imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017y.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016y.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2016y.

4. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 8-fevral soni va Internet resurs: www.lex.uz.

5. Matyoqubov O. Og‘zaki an’anadagi professional muziqa asoslariga kirish. –T., 1983.

6. Ibrohimov O. Maqom va makon. – T., 1997.

7. Rajabov I. Maqom asoslari. – T., 1992.

8. Nurmatov H., Yuldasheva N.K. O‘zbek xalq musiqa ijodi. – T., 2007.

Malohat MUXITDINOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti “Musiqa ta’limi va defektologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Mahfuza XALILOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti “Musiqa ta’limi va defektologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI MUSIQA TARBIYASI VOSITASI SIFATIDA QO‘LLASHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa ta’limida axborot kommunikatsiya texnologiyalari turlari va ularning qo‘llash usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif musiqa mashg‘ulotlarida multimediya texnologiyalarini qo‘llashning bir qator afzalliklarini sanab o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Axborot texnologiyalari, prezentatsiya, animatsiya, musiqa tinglash, musiqiy-didaktik o‘yin.

В статье рассмотрены виды информационно-коммуникационных технологий в музыкальном образовании детей дошкольного возраста и способы их применения. Также автор перечислил ряд преимуществ использования мультимедийных технологий в музыкальных занятиях.

Ключевые слова. Информационные технологии, презентации, анимация, прослушивание музыки, музыкально-дидактическая игра.

The article considers the types of information and communication technologies in music education of preschool children and ways of their application. The author also listed a number of advantages of using multimedia technologies in music classes.

Key words. Information technology, presentations, animation, listening to music, music and didactic game.

Zamonaviy jamiyatda musiqa san’atiga insonning umumiy madaniyatining bir qismi sifatida qaraladi. U inson borliqni tafakkur qilish jarayonining tarkibi bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos estetik jarayon shakli hamdir.

So‘nggi ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, musiqiy madaniyatni shakllantirishni aynan maktabgacha yoshdan boshlamoq kerak. Bolalikdagi to‘laqonli musiqiy taassurotlarning mavjud emasligini hayotimizning keyingi davrida to‘ldirish juda qiyin bo‘ladi.

Musiqiy tarbiyaning bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta’sirini hech nima bilan solishtirib bo‘lmaydi: uning his-tuyg‘ular sohasi oshadi, fikrlashi rivojlanadi, uning hayot va san’atdagi nafosatga bo‘lgan munosabati tarbiyalanadi. Faqatgina bolaning his-tuyg‘ulari, qiziqishlari va didini rivojlantirish orqali uni musiqa madaniyatiga jalb

qilish, mumkin. Shuning uchun aynan maktabgacha yoshda musiqa madaniyatini o‘rganmoq muhim ahamiyatga ega.[1]

Musiqiy tarbiya pedagogikada yosh avlodning axloqiy tarbiyasini shakllantirishning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Buning natijasida shaxsning umumiy madaniyatini shakllanishi yotadi. XX asrning buyuk pedagogi V.A. Suxomlinskiy musiqani qudratli vosita deb atagan. “Musiqani tinglash va tushunish – estetik madaniyatning elementar belgilaridan biri, usiz to‘laqonli tarbiyani tasavvur qilib bo‘lmaydi ”, deb yozgan edi.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimi kelajak avlod ta’lim va tarbiyasiga yangi talablar, an’anaviy tarbiya o‘rniga imkoniyatlarni kengaytiruvchi samarali texnologiyalarni qo‘llash talabini qo‘ymoqda. 2019-yil 11-iyunda qabul qilingan 487-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida faqat maktabgacha ta’limda emas, maktabgacha ta’lim tashkilotining axborot-ta’lim muhitini yangilanishi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish talabi shakllantirgan.

Shu munosabat bilan bugungi kunda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar musiqiy tarbiyasida AKTlarni qo‘llash imkoniyatlari muammosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish jarayonlari va ular bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan talim faoliyatining barcha shakllarini axborotlashtirish jarayonlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) takomillashtirish va ommaviy tarqatish jarayonlari bilan tavsiflanadi. Bunday texnologiyalar axborotni uzatish hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining zamonaviy ochiq va masofaviy ta’lim tizimlarida o‘zaro hamkorligini ta’minlash uchun faol qo‘llanilmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat AKT sohasida bilimga ega bo‘lishi, balki ularni kasb faoliyatida qo‘llash bo‘yicha mutaxassis ham bo‘lishi kerak.

“Texnologiya” yunoncha so‘z bo‘lib, ilm-fan, xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, mahsulotlarni qayta ishlash yoki qayta ishlash usullari va usullari to‘plami, ularni iste’mol buyumlariga aylantirish degan ma’noni anglatadi. Ushbu so‘zning zamonaviy talqini ilmiy va muhandislik bilimlarini amaliyotda qo‘llashni ham bildiradi. Bunday holda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari axborotni qayta ishlash va o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.[2]

Axborotlashtirilishga bugungi kunda ta’limni modernizatsiya qilishning yo‘llaridan biri sifatida qaralmoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari insonlar hayotining barcha sohalariga kirib kelmoqda. Musiqa mashg‘ulotlarida multimediya texnologiyalarni qo‘llash bir qator afzalliklarni beradi: bolalar mavzuni yaxshiroq tushunishadi. Turli audiovizual vositalardan (musiqa, grafika, animatsiya) foydalanish o‘quv materialni boyitadi. Multimediya texnologiyalari taqdim etilgan turli xil ma’lumotlarning (nutq, musiqa, rasm) kombinatsiyasi bilan tasniflanadi, shuning uchun, bola shaxsining shakllanishiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi.[3]

---

[1] Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. “Musiqa” nashriyoti, – T., 2010.

[2] Комарова, Т.С. Информационно-коммуникативные технологии в дошкольном образовании/ Т. С. Комарова, И. И. Комарова, А. В. Туликова. – Москва: Мозаика – Синтез, 2011. – с128.

[3] Применение ИКТ в работе музыкального руководителя детского сада [Электрон манбаа] //http://www.maam.ru/detskijsad/material-na-temu-primenenie-ikt-v-rabote-muzykalnogo-rukovoditelja-detskogo-sada.html.

AKT bolalarga o‘rganayotgan obyektlarni vizualizatsiya qilishni, hodisalar, kundalik hayotda ko‘rinmaydigan jarayonlar va vazifalarni modellashtirishni, ta’limni o‘yin shaklida amalga oshirish imkonini beradigan vositadir.

Bolalar bog‘chasida amalda qo‘llaniladigan AKT vositalari bo‘lib quyidagilar bo‘lishi mumkin: shaxsiy kompyuter – har qanday ta’lim darajasidagi axborot muhiti uchun axborot texnologiya vositasi, multimediya proektori, videomagnitafon, DVD-pleer, televizor, ko‘p funksionalli qurilmalar, kolonkalar, musiqa markazi, mikrofon, raqamli fotoapparat, videokamera.

Musiqa rahbarining kutubxonasi asosini tayyor elektron mahsulotlar, internet resurslaridan foydalanilgan holda to‘ldirish mumkin. Bular: kitoblar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, videofilmlar, audioyozuvlar, prezentatsiyalar, musiqiy rivojlantiruvchi o‘yinlar va dasturlar.

Kompyuter prezentatsiyalari hissiy-badiiy bilim jarayonini boyitishga, musiqa asarlarini qayta-qayta tinglash istagini uyg‘otishga, tinglash uchun taqdim etilgan musiqa asarini ko‘proq vaqt yodda tutishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy psixologik kayfiyat qo‘shiqning ifodali ijrosi bilan ekranda animatsiyasi fonini birgalikda qo‘llanilganida paydo bo‘ladi. Qo‘shiqning badiiy ijrosi, tovush hosil qilish ustida ishlaganda bolalar ishtirokidagi videoroliklardan foydalaniladi: bolalar ijrosidagi qo‘shiqlar videokameraga yozib olinadi va keyin bolalar bilan birgalikda proektor orqali katta ekranda tomosha qilinadi va muhokama etiladi.

Musiqiy-ritmik mashqlarni bajarish, turli raqslarni o‘rganishda AKTlar qo‘llanishinishi bolalarning pedagog ko‘rsatmalarini aniq bajarishlariga, harakatlarni ifodali ijro etishga yordam beradi. Maxsus yaratilgan videoroliklarni tamosha, qilish raqs kompozitsiyalarning sifatli ijro etish imkonini beradi.[4]

Musiqiy-didaktik o‘yinlarni ham AKT yordamida tashkil etish mumkin. Audio ilovalar bilan birga ishlab chiqilgan musiqiy-didaktik o‘yinlar qo‘llanma majmualari mutaxassis-pedagoglar tomonidan qo‘llanib kelinmoqda: “Qo‘shiq, raqs, marsh”, “Bo‘g‘irsoq kimni uchratdi?”, “Uch gul”, “Jajji jo‘jalar” va boshqalar.

Quvnoq orkestr dirijyori. Ushbu ta’limiy o‘yinda bola qanday asboblar chalinayotganini aniqlashi kerak. Diqqat bilan tinglamoq va kerakli guruhni tanlashi lozim. Musiqiy uquvi (slux)ni rivojlantirish va musiqa asboblari bilan tanishish uchun ajoyib o‘yin.

Rangli tovushlar. Bu musiqiy ta’limiy o‘yinda klaviatura rangli. Barcha rangli klavishalarni eslab qolib, birma-bir bosib o‘ynaladi. O‘yin vizual va melodik xotirani uyg‘unlikda rivojlantiradi.

Musiqiy xona. Bu o‘yinda cholg‘ular ko‘rinishi va joylashuvini eslab qolish kerak. Bundan tashqari bu o‘yin cholg‘u asboblar tembrini farqlashni o‘rgatadi.

Bunday qo‘llanmalarning yana bir afzalligi, ularni ko‘p tillarda (ingliz, rus, o‘zbek) qo‘llash mumkin.

Kompyuter yordamida bolalar musiqiy spektakllarga sayohat qilishlari yoki kompozitor ijodi bilan tanishishlari, hatto musiqa savodini o‘rganishlari mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida musiqiy ta’lim-tarbiya tizimi nafaqat musiqiy mashg‘ulotini, balki turli-tuman musiqiy faoliyat shakllarini ham o‘z ichiga oladi. Bular

[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori: “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi.” 11.06.2019 487-sonli.

kopleks musiqiy-ta'limiy mashg'ulotlar, bayram ertaliklari, ko'ngilochar tadbirlar, konsertlar, sahna ko'rinishlari, tug'ilgan kunlarga bag'ishlangan kichik qutlov tadbirlar va boshqalardir. Musiqiy faoliyatlarning har qanday turi uchun, shuningdek, prezentatsiyalar, videofilmlar, slayd-shoular, ertaliklarda bolalar chiqishlari yozib olingan videolavhalar, ta'limiy o'quv filmlar, bolalar multfilmlari qo'llaniladi.

Zamonaviy kompyuter dasturlari bolalar qo'shiqlariga oranjirovka yaratish, bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar va mustaqil musiqiy faoliyatlarda qo'llashga qulay "minus" va "plyus" fonogrammalar yozib olish imkonini beradi.

Biroq AKTlarni maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida faqat ta'limiy maqsad bilan cheklab qo'yish kerak emas. AKTlarning quyidagi shakllarini tarbiyalanuvchilar ota-onalari bilan ishlashda qo'llanishini belgilash mumkin. Bular:

– maktabgacha tashkilot sayti;
– uyali aloqa;
– guruhlarda yangiliklarni aks ettiruvchi ro'znoma;
– elektron pochta;
– shaxsiy veb-varag'idan foydalanish;
– multimediya;

Biroq AKTdan foydalanishning aniq afzalliklari va istiqbolli imkoniyatlari, pedagoglar va ota-onalarning bolalarni rivojlantirishda kompyuter resurslaridan foydalanishga qiziqishi ortib borishiga qaramasdan, bu jarayonda bir qator muammolar bor:

1. Muassasalarning moddiy-texnik jihozlanmaganligi.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha yagona metodik-uslubiy tavsiyalar va talablar mavjud emasligi.
3. Pedagog kadrlarning AKTlaridan bexabarligi, mazkur sohada yetarli darajada amaliy tayyorgarlik yo'qligi.
4. Maktabgacha ta'limda AKTdan foydalanishda sanitariya-gigiena talablariga rioya qilinmaslik shular jumlasidan.

Shu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa mutaxassisi o'z ishida doimo me'yorni unutmasligi zarur. Chunki maktabgacha yoshda musiqa tarbiyasida zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash – bu faqat bolalarni tarbiyalashning pedagog oldida turgan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun berilgan qo'shimcha vositadir. Binobarin, bu texnologiyalar, mashg'ulotda musiqa rahbari bilan jonli muloqotni, konsert, teatr, ko'rgazmalarga tashriflarning o'rnini bosa olmaydi. Shuningdek, ular "jonli" qo'shiq kuylashni, raqs va ritmik-harakatlar bajarishni, bolalar musiqa asboblarida ijro etishning o'rnini hech qachon egallay olmaydi.

Shunday qilib, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish musiqa rahbariga zamon bilan hamnafas bo'lish va vaqtdan unumliroq foydalanish imkonini beradi. Ba'zan an'anaviy usullar bilan hal qilish mushkul va ba'zan imkonsiz bo'lgan pedagogik vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Maktabgacha musiqiy ta'lim sohasida yagona zamonaviy ta'lim muhitini yaratish, zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarini an'anaviy pedagogik tizimiga uyg'un kirib borishini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi zamonaviy musiqa mashg'uloti bu – mashg'ulotning barcha bosqichlarida pedagogik texnikalarning yan-

gi usullari bilan to‘la bo‘lgan mashg‘ulot. AKTlardan foydalanish mashg‘ulotni jozibali va chindan ham zamonaviy qilish, ko‘rgazmaliylikka tayangan holda ta’limiy va ijodiy vazifalarni aniqlik bilan hal qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiya ishlarida axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llanishi maktabgacha ta’lim sifati oshishiga, ommabopliligi va eng muhimi samarali bo‘lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PF-5198-son 30.09.2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 13.05.2019, 391-sonli.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”. 11.06.2019, 487-sonli.

4. Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. – T., “Musiqa” nashriyoti, 2010.

5. Гончарова, О.В. Теория и методика музыкального воспитания: учебник для студ. учреждений проф. образования // О.В. Гончарова, Ю.С. Богачинская. – Москва: Академия, 2014. – с 256.

6. Комарова, Т.С. Информационно-коммуникативные технологии в дошкольном образовании/ Т. С. Комарова, И. И. Комарова, А. В. Туликова. – Москва: Мозаика – Синтез, 2011. – 128 с.

7. Мактабгача ёшдаги болаларнинг мусиқий фаолият турларида АКТни қўллашнинг ҳусусиятлари.

8. Применение ИКТ в работе музыкального руководителя детского сада.

Dilafruz ISMOILOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi o‘qituvchisi

ZAMONAVIY DIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI TA’LIM MAZMUNINI PROGNOSTIKA QILISH

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim mazmunini prognostika qilish jarayonlarining nazariy asoslari bayon qilingan. Shuningdek, muallif shaxsning ta’lim va tarbiya jarayonida rivojlanish metodlarini pedagogik jihatdan ochib berish muammolarini ko‘targan.

Kalit so‘zlar. Prognostika, prognoz, pedagog, mexanizm, harakat**,** strategiya, intellekt, konsepsiya, shaxs, jamiyat, uzluksiz ta’lim, modul, qiyosiy.

В этой статье были основаны современные процессы прогностики теоритических основ и смыслов средне образовательных школ. А также развитии лиц, в таких областях как образования и воспитания используя разные педагогические методы.

Ключевый слова. Прогностика, прогноз, педагог, механизм, движения, стратегия, интеллект, концепция, личность, общество, непрерывная обучения, модуль, сравнительный.

This article outlines the theoretical basis of the processes of predicting educational content of secondary schools based on modern didactic approaches. The pedagogical aspects of the development of the individual in the educational processes are explained by different methods.

Key words. Prognostics, prognosticate, teacher, mechanism, motion, strategy, intelligence, conception, person, society, continuous education, module, comparative.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan pedagogik izlanishlarda asosiy urg‘u shaxs ozodligi va insonparvarlik g‘oyalariga qaratilmoqda. Shuning uchun ham qo‘yilgan talablar bilan ta’limning o‘zaro mos kelishini ta’minlash lozim. Chunki ta’lim faqatgina bugungi kun talablariga moslashmasligi, balki kelajakni o‘ylab amalga oshirilishi kerak. Pedagogika sohasidagi izlanishlar, birinchi navbatda, xuddi shu masalalarni ham qamrab olishi kerak. Aks holda, pedagogik fani o‘z oldida turgan muammolarning konstruktiv yechimini topa olmaydi. Pedagogika fani tarkibida uning uzviy tarmog‘i sifatida pedagogikaning falsafiy muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlarni amalga oshirgandagina pedagogika fani ta’lim jarayonini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim mazmuni o‘qitishning vaziyatli-kuchaytirilgan vazifalarini hal qilishga qaratilgandir. Bu tipdagi topshiriqlar tizimi o‘quvchilarda o‘quv materialiga qiziqish uyg‘otadi, mustaqillikka undaydi hamda ularga o‘quv mayllarini hosil qilish, egallangan bilimlarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bunday topshiriqlar o‘quvchi shaxsi bilan moddiy borliq orasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashga

ko‘maklashadi. Bu esa hayot tarzining istiqbolliligi, rang-barangligini ta’minlab, maqbul yechimlarni izlash hamda o‘z-o‘zini shakllantirishga oid muhim qarorlar qabul qilishga ko‘maklashadi. Shu nuqtai nazardan didaktika mustaqil bilim olishning nazariy asoslarini yorituvchi ilm sohasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, zamonaviy jamiyat, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlarining kengayishi natijasida ta’lim ommaviyligining o‘sishi bilan xarakterlanadi.

Ta’lim ommaviyligining o‘sishi pedagog kasbining ommaviyligi o‘sishiga olib keladi. Ammo ma’lumki, pedagog kasbi eng murakkab kasblardan biri hisoblanadi. Haqiqiy pedagog bo‘lish uchun pedagogik qobiliyat ham zarurdir. Pedagogik qobiliyatli kishilarning soni cheklanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, ta’lim tizimiga, bu qobiliyatga to‘la ega bo‘lmagan ko‘p sonli kishilar qamrab olinayotganligi guvohi bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim strategiyasi bilan bog‘liq muammolarni yechish jarayonida ham pedagogik prognostikadan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik prognostikaga tayangan holda yaratilgan nazariyalargina O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim jarayoni, uning bosqichlari va komponentlarining mazmuni, shakli va vositalari, ta’lim natijalarining jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan ta’sir darajasini oldindan ilg‘ashga asos bo‘la oladi. Aniq pedagogik prognostikaga tayanib, amalga oshiriladigan tadqiqotlar asosidagina ta’lim jarayonini yangi prinsiplar va yangi mafkuraviy negizda qayta qurish, ta’lim sohasida koordinal islohotlarni amalga oshirish mumkin.

Ta’lim jarayonini diagnostika qilish mexanizmi shu jarayonning yutuq va kamchiliklari, ta’lim natijasining sifat ko‘rsatkichlari, ta’lim jarayoniga tatbiq qilinadigan pedagogik nazariyalar, yangi texnologiyalarning ta’lim amaliyotini rivojlantira olish yoki uning tarqqiyotiga to‘sqinlik qilishini aniqlashga yo‘naltirilishi kerak.

Pedagogik eksperiment esa amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining samaradorlik darajasini aniqlashda alohida ahamiyatga ega.

O‘quv materiallari ham ta’lim mazmunini tanlash tamoyillariga tayanilgan holda quyidagi mezonlar asosida belgilanishi lozim:

1) murakkablik darajasiga ko‘ra: bunda ta’lim mazmuni tarkibiga kirgan birliklarning murakkablik darajasi nazarda tutiladi, o‘quvchilarning qiyinchiliklarni bartaraf eta olish ko‘nikmalari ham hisobga olinishi kerak;

2) qiyinchilik darajasiga ko‘ra: bunda muayyan yoshdagi o‘quvchilar guruhi va aynan bir o‘quvchi duch keladigan qiyinchiliklar ko‘zda tutiladi;

3) ta’lim mazmunining hajmiga ko‘ra: bu o‘rinda ta’lim mazmuni tarkibiga kiritiladigan birliklar hajmi hisobga olinadi.

Ta’lim mazmunidan kelib chiqqan holda, o‘quv jarayoni mazmuniga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. O‘quv jarayoni mazmuni mavjud tarkibining boyligiga ko‘ra umumiy ta’limiy xarakter hamda kuchli muammoli va ko‘p hadli qurilishga ega bo‘lish kerak.

2. O‘quv jarayoni mazmuni kelgusidagi kasbiy ta’lim uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Bu esa bugungi kundagi ta’lim mazmunining muhim jihatlaridan biridir. Bunday yondashuv orqali o‘quv jarayoni o‘quvchini ijgimoiylashtirishga yo‘naltiriladi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– har bir o‘quvchi o‘zi egallagan bilim va tajribalari yordamida axborotlarni tanlaydi va ularni o‘zlashtiradi, shuningdek, o‘quvchi o‘zlashtirgan axborotlarini yangi tushunchalari doirasiga singdirishi kerak;

– o‘quv jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, o‘quvchilar o‘qituvchilar yordamida o‘z maqsadlari va tashabbuslarini namoyon qila olishi;

– o‘quvchilarda o‘quv jarayoniga ongli munosabatni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi hamda ta’lim jarayonini rejalashtirishda o‘quvchilarning ijodiy faol faoliyatini yo‘lga qo‘yish nazarda tutiladi.

3. O‘quv jarayonining mazmuni bir vaqtning o‘zida bir yoki bir nechta o‘qitish metodlari va texnologiyalarini qo‘llash uchun imkoniyat berishi kerak.

4. O‘quv jarayonining mazmuni dolzarb va qiziqarli bo‘lishi hamda hozirgi kishilik jamiyati uchun zarur bo‘lgan masalalarni qamrab olishi lozim.

Ta’lim mazmunining keyingi mezoni asosida o‘quv materiallarini tanlashda turli ish usullari hamda o‘quv materiallariga ishlov berilganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Masalan:

1. Mazmundagi turli-tumanlik, mustaqil faoliyatni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatning yaratilganligi, o‘quvchilarning fikrlash darajasi hamda turli muammolarga yechim topish obyektiv natijalar va xulosalarga erishish uchun muhimdir. Buning uchun o‘quvchi o‘quv jarayonida juda katta miqdordagi axborotlarni o‘zlashgirishi kerak. Bu axborotlar o‘zida muayyan muammolarga oid turli nuqtai nazarlar, yondashuvlar va qarashlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi talab etiladi.

2. O‘quv jarayonida turli o‘quv materiallari ustida ishlash, rang-barang usullarni qo‘llash uchun sharoit yaratilishi lozim. Shuningdek, alohida o‘quv materiallarini o‘zlashgirish uchun xarakterli bo‘lgan tadqiqotchilik metodlaridan ham foydalanish talab etiladi.

3. O‘quv materialiga didaktik ishlov berilganligi, uning qisqartirilgan holda ifodalanishi hamda ilmiy bayoni turli tipdagi o‘quv toshshiriqlarining tushunarliligini ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilar ilmiy maqola shaklidagi didakgik jihatdan ishlov berilmagan materiallar bilan ham tanishtiriladilar. Shunga ko‘ra, ta’lim mazmunini tanlashda quyidagi parametrlar ajratiladi: ta’lim mazmunining o‘quv jarayoniga yo‘naltirilganligi, o‘quvchilarning amaliy tajribasi va bilimlariga asoslanganligi, o‘quv materiallarini tushunish va eslab qolishning barqarorligi kabi.

O‘quv vaziyatini strukturalashda o‘quvchilar muayyan mazmundan kelib chiqqan holda bilimlarni egallash, uning hayot bilan bog‘langanligini anglab yetishga o‘rganadilar. O‘quvchilar yaxshi baho olish, test topshiriqlarini yechishga shunchaki intilmaydilar, balki ularning o‘quv maqsadlari ichki mayllari orqali aniqlanadi. Buning uchun shaxsga yo‘nalgarilgan qadriyatli, muammoli ta’lim yordamida o‘quvchilarda shaxsiy javobgarlik va o‘z-o‘zini tanish hissini qaror toptirish lozim. Shuning uchun ham ta’lim mazmunini tanlashda bilish jarayonini tashkil etish muammosi haqida ham fikr yuritishi kerak.

Bugungi kunda ta’lim mazmunini tanlashda ijtimoiy, ta’lim sohalararo hamda kasbga yo‘naltirish paradigmalarini integrallashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham zamonaviy ta’lim mazmunini tanlash konsepsiyasi ko‘p jihatdan o‘quv predmetlariaro integral yondashuv hamda o‘quvchilar ongida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va borliqni idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bugungi kunga kelib, predmetli o‘qitish tizimidan voz kechish, ta’lim mazmunini integratsiyalash va unifikatsiyalash imkoniyatlari izlanmoqda. Chunki bugungi kunda o‘quvchilarni integrallashgan ta’lim mazmuni asosida o‘qitish nihoyatda samaralidir.

Bunda nafaqat o‘quvchining vaqti va kuchi tejaladi, balki o‘quv vositalarining tannarxi ham arzonlashadi. Integral ta’lim mazmuni asosida o‘qitish o‘quv jarayonining

barcha bosqichlari uchun samarali bo‘lib, amaliyotda bir nechta integrativ o‘quv kurslarining vujudga kelishiga asos bo‘ladi.

Integratsiyalashgan ta’lim mazmuni quyidagi umumiy maqsadlarga erishishni ta’minlaydi:

– o‘quvchilarning bir butun yaxlit tarzda rivojlanishi va moddiy borliq, jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglab yetishi;

– integrallashgan, axborotlashtirilgan o‘quv materiallari yordamida o‘quvchi shaxsi intellektual rivojlanishining ta’minlanishi;

– voqealar va dalillarni baholashda erkinlik, muammoli fikrlashning rivojlanishi kabilarning ta’minlanishi;

– o‘quvchilarda muqobil fikirlashning shakllashishi;

– o‘quvchilarda shaxsiy mayllarning namoyon bo‘lishi;

– gumanitar hamda tabiiy-ilmiy ta’lim mazmuni orasidagi tafovutlarning bartaraf etilishi kabilar.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonining mazmunini loyihalashtirish, uning chegaralarini aniqlash, ta’lim mazmuni muayyan qismlarining o‘zlashtirilishi hamda natijalar, yutuqlarni ta’minlovchi holatlar ta’lim maqsadida o‘z ifodasini topishi kerak. Buning uchun turli bosqichlarda shakllanadigan ta’limning uzoq muddatli maqsadlari o‘quv jarayonining muayyan qismlarida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham umumiy maqsadning ahamiyati tayanch yondashuvlarni ajratishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, o‘quv dasturlarining qismlari ta’limiy topshiriqlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, dasturlarni yaratishning uch turi aniqlanmoqda. Bular: axborotli-kognitiv, ijtimoiy-rolli, o‘quvchining o‘quv jarayonidagi xatti-harakati, xulq-atvorini belgilab beruvchi dasturlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz – T.: O‘zbekiston, 2017-yil

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2016-yil.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020.

4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 yil, 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 yil, 03/18/456/1087-son.

5. Xudoyqulov X.J. Pedagogik mahorat . – T.: Navro‘z, 2011.

6. Ismoilova D.M. Pedagogika kollejlari ta’lim mazmunini bashoratlashning didaktik omillari uslubiy qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2013 yil,

Sirojiddin QORAYEV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

PEDAGOGIK TA’LIMNING INNOVATSION KLASTERI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING MUHIM XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining ekologik madaniyatini yuksaltirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kelgusi faoliyatida qo‘llashi zarur bo‘lgan ekologik bilimlar va o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish borasida qilinishi zarur bo‘lgan ishlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Ekologik madaniyat, o‘quvchi, rivojlanish, atrof-muhit, tejamkorlik, tafakkur, barkamollik, monitoring, resurs.

В статье рассматривается работа, которую предстоит проделать для улучшения экологической культуры студентов педагогических вузов, экологические знания, которые будущие учителя должны применять в своей будущей работе, и формирование экологической культуры студентов.

Ключевые слова. Экологическая культура, студент, развитие, окружающая среда, бережливость, мышление, зрелость, мониторинг, ресурс.

The article deals with the work to be done to improve the ecological culture of students of pedagogical higher education institutions, the ecological knowledge that future teachers need to apply in their future work and the formation of ecological culture of students.

Key words. Ecological culture, student, development, environment, thrift, thinking, maturity, monitoring, resource.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim sohasida ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ong va madaniyatini yuksaltirish borasida hukumat tomonidan qator qonun va qarorlar chiqarilmoqda. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-son qarorida:

“Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish;

ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas’uliyatini kuchaytirish;

ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

ekologik ta’lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta’minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta’lim sohasining o‘zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’lim tamoyillariga tayangilgan holda o‘quvchilarda ekologik ong va shu asosda ularning sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirishning konseptual asoslari mazmunini aniqlash zarurati vujudga keladi. Ya’ni, o‘quvchilarda ekologiya fanini o‘qitish orqali sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirishning quyidagi konseptual asoslarini aniqlash mumkin:

1. O‘quvchilar ongi va qalbiga milliy mafkuraning bosh va yetakchi g‘oyalarini singdirish orqali ularni ekologik barkamollikka yo‘naltirish, o‘zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali millatlararo totuvlikni saqlash, kelgusida mukammal kasbiy mahoratga ega bo‘lish orqali ijtimoiy hamkorlikka kirishish, g‘oyaviy immunitetga ega bo‘lish zarurligi nazarda tutiladi.

2. Ekologiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning aqlan, ma’nan, ruhan va jismonan barkamolligini ta’minlash ustuvor yo‘nalish hisoblanib, ta’lim-tarbiya uzviyligi asosida o‘quvchilarning barkamolligini ta’minlash, xususan, sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish muammosiga e’tibor qaratishdan iborat.

3. O‘quvchilarda ekologik ta’lim-tarbiya orqali atrofdagilarning salomatligini asrash va ularning hayotiga tahdid soluvchi omillarni bilish, ya’ni addektiv xulqdan himoyalanishi, tajovuzkor kuchlarga qarshi kurashish immunitetini rivojlantirishga imkon yaratadi.

4. O‘quvchilarning ekologik barkamolligini ta’minlashda xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma’naviy durdonalari, hikmatli so‘zlar va hikoyalarga e’tibor qaratish orqali sanogen tafakkurini rivojlantirishdan iborat.[1]

Bugungi kun yoshlarida ekologik-huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish, ularni tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga o‘rgatish, noyob tabiatni asl holicha avlodlar uchun asrab-avaylash hissini oshirish orqali atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirning oldini olish mumkin. Buning uchun yoshlar ongida ona yer, ona tabiat, ona Vatanga uning tabiiy boyliklariga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘usini yanada rivojlantirishimiz lozim. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, atrof-muhitni muhofaza qilishda ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyaning muhim va hal qiluvchi rolini anglagan holda bu tizimni uning tarkibiy qismi bo‘lgan fanlarni takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi.

Umumiy ta’lim jamiyat rivojida zarur tayanch bo‘lsa, ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiya va madaniyat har qanday mamlakatda insonlarning to‘laqonli sog‘lom tur-

[1] Isabayeva M.M. Biologiyani o‘qitishda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 72 b.

mush kechirishi uchun zarur bo‘lgan mo‘tadil atrof-muhit sharoitiga bo‘lgan huquqlar daxlsizligining muhim kafolatidir. Bu kafolat mamlakat taraqqiyoti, davlat mustaqilligi, sog‘lom turmush tarzi, millatlararo ekologik aloqalar, ekologiya borasida insonlarning huquqlarini ta’minlashga, majburiyatlarni bajarishga shart-sharoit yaratadi. Ushbu kafolatlar, avvalo, Konstitutsiyamizning 50-, 55-moddalarida o‘z ifodasini topgan. Uning asosida qabul qilingan sohaga oid qonunlar va boshqa hujjatlarga singdirilgan. Ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiyaning asosiy vazifasi barcha o‘quv muassasalari tinglovchilariga ekologik qonunchiligimizni, birinchi navbatda, Konstitusiyada belgilangan burchlarni o‘rgatish va tabiatga hurmat ruhini shakllantirishdan iborat.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, bunday huquqiy ta’lim-tarbiyaning ahamiyati o‘ta muhim. Ekologik-huquqiy ta’lim asosida o‘z huquqlari va burchlarini yaxshi bilgan jamiyat a’zolarigina ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ongli ravishda mehnat qiladi va ularning yaratuvchanlik faoliyati ancha yuqori bo‘ladi. Ekologik ta’lim-tarbiya berishda tarixiy merosdan samarali foydalanib, ularni bugungi zamon talablari bilan bog‘liq holda yoshlar ongiga singdirish ham muhimdir. Bulardan Sohibqiron Amir Temurning obodonchilik, atrof-muhitni ko‘kalamzorlashtirish, bog‘u rog‘lar barpo etish borasida olib borgan ishlarini aytib o‘tish kerak. Konstitutsiya va ekologik qonunlarning ezgu maqsadlarini, tabiiy muhitni muhofaza qilish g‘oyasini aniq ko‘rsata bilish ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri bo‘lmog‘i lozim.

Yoshlarda ekologik madaniyatni yuksaltirish har bir insonda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat ruhini shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish nafaqat davlat va jamiyat, balki har bir fuqaroning vazifasi bo‘lishiga erishish ekoharakatning ustuvor dasturiy vazifalaridan biri hisoblanadi. E’tirof etish joizki, ekologik muammolarni hal etishda nafaqat xo‘jalik faoliyatida resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish, shu bilan birga, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlarning o‘zigina ushbu sohadagi muammolarni hal etishda yetarli emasligini davrning o‘zi ko‘rsatmoqda. Bu borada aholining, ayniqsa, yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, har bir insonda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, mamlakatning noyob tabiatini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish, ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitga salbiy antropogen ta’sirning oldini olish asosiy omillardandir.

Tabiatda ro‘y berayotgan noxush hodisalar oqibatlarini bartaraf etish, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan bunday vaziyatlarning oldini olish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Insonning tabiatga noto‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishi natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlarning oldini olishda ekologik ta’lim-tarbiyaning o‘rni nihoyatda katta.

Yashil olam inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini, shuning uchun ham har bir o‘quvchi o‘z maktabi, hovlisi, ko‘cha va xiyobonlarni ko‘klamzorlashtirish ishida faol qatnashishi, ko‘chat o‘tqazib, ularni parvarish qilish orqali atrof-muhitning musaffo bo‘lishiga hissa qo‘shishi kerakligi yoshlarga doimiy ravishda tushuntirilishi lozim.

Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab bolalarda tabiat ne’matlariga mehr-muhabbat ruhini shakllantirish, ekologiyaga oid

bilimlarni ular shuuriga singdirish lozim. Toki ular kelajakda atrof-muhitni muhofaza qila oladigan va tabiatdan unga zarar keltirmagan holda foydalana oladigan bo‘lib voyaga yetishsin.

Yuqoridagilar shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlarga doimiy ravishda ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiyani olib borishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, yoshlarda ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyaning uzluksizligiga, chambarchas olib borilishi va o‘qitilishiga hamda oilada olingan ekologik-huquqiy bilimlarning samaradorligiga erishish;

ikkinchidan, amaldagi O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlariga yoshlarga ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiya berish bilan bog‘liq talablarni kiritish hamda unda oiladagi ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiyani olib borish jarayonini alohida ko‘rsatish;

uchinchidan, yoshlarga ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiya berish sohasida tegishli vazirlik, qo‘mita va korxona, muassasa, tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish;

to‘rtinchidan, qabul qilingan ekologik qonun talablarini hamda ularning mohiyatini aholiga va yoshlarimizga kengroq tushuntirish;

beshinchidan, xalqaro standartlarga mos har tomonlama ekologik-huquqiy bilim bera oladigan zamonaviy yangi avlod darsliklarini yaratish ham maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi ekologik muammolar keskinlashib borayotgan globallashuv sharoitida ularni hal qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiat boyliklarini kelajak avlodga qoldirish, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, bu maqsadda ekologik qonunchilikni takomillashtirib borish, ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyani yanada kuchaytirish ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi. Bu esa, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy boyliklarni kelajak avlod uchun bus-butun qoldirishga, ularni asrab-avaylashga, e’zozlashga, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga hamda insonlarning uzoq yashashi uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri fan-texnika yutuqlari asosida aholi o‘rtasida ekologik ta’lim-tarbiya va madaniyatga oid bilimlarni oshirish yo‘li bilan tabiat muhofazasini ta’minlashning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqishdir.

Ekologik ta’lim-tarbiya – insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga nisbatan e’tibor bilan qaraydigan urf-odatlari, an’analari asosida yoshlarni tarbiyalash, ular ongida tabiatga, uning boyliklariga mehr-muhabbat o‘yg‘otish, ularni tejamkorlikka va tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga o‘rgatishdan iborat.[2]

Ota-bobolarimiz qoldirgan nodir meros – musaffo osmon, tiniq suv, toza tuproq, yer qa’ri va yer usti boyliklarini qanday asramog‘imiz, ularni asl holida kelgusi avlodlarga topshirmog‘imizni tushuntirish eng dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan umummilliy masaladir.

Hozirgi davrda o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida tabiatga nisbatan ham ongli munosabatda bo‘lish hissini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa pedagog kadrlar zimmasiga ulkan va mas’uliyatli vazifa yuklaydi. Zero, tabiatning

[2] Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.

kelgusida gullab-yashnashi yoki ekologik muammolarning globallashib borishi yosh avlodning tabiatga nisbatan munosabatiga bevosita va bilvosita bog‘liqdir.

Bugun o‘tmishda tabiatga yetkazilgan zararning chuqur asoratlarini tugatish haqida, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasiga alohida e’tibor qaratilayotgan bir paytda ekologik madaniyat degan tushunchani hamma ham birdek anglab yetgani yo‘q. Ba’zan ko‘cha-ko‘yda to‘planib qolgan chiqindi uyumlari, tamaki tutatib, qoldig‘ini oyog‘i ostida ezib, bemalol ketayotgan kishilarni, ariq suviga mag‘zava ag‘darayotgan opa-singillarimizni, daraxt shoxlarini bemalol sindirayotgan bolalarni, pista chaqib xiyobon va ko‘chalarni ifloslantirayotgan, xazon yoqayotganlarni ko‘rib, buning bizga hech daxli yo‘qdek e’tiborsiz o‘tib ketaveramiz. Afsuski, bularning barchasi, oqibatda, o‘z sog‘lig‘imizga shikast yetkazishini, turli kasalliklarni keltirib chiqarishini, umrimizni qisqartirayotganini ba’zida unutib qo‘yamiz. Bunday noxush holatlarning asosiy sababi ayrim yurtdoshlarimiz tabiat qonunlarini chuqur bilmasligi, ularda ekologik bilim va tarbiyaning yetishmasligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 25-son, 287-modda;

2. Isabaeva M.M. Biologiyani o‘qitishda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 72 b.

3. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.

Maqsud SHERMATOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
"Jismoniy madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini zamonaviy talablar asosida tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, muallif jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatining asosiy belgilari hamda o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda qo'yiladigan yo'nalishlarni aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya, sport, talaba, o'qituvchi, chaqqonlik, chidamlilik, odob-axloq, ruhan chiniqqan, ilmiylik, usul va uslublar, metodika, amaliy natija.

В статье освещены теоретические и практические аспекты подготовки будущих учителей физкультуры на основе современных требований. Автор также отметил основные признаки инновационной деятельности учителей физической культуры и направления подготовки их учителей к инновационной деятельности.

Ключевые слова. Физическая культура, спорт, студент, учитель, ловкость, выносливость, нравственность, духовная закалка, наука, методы и методы, методика, практический результат.

The article highlights the theoretical and practical aspects of training future physical education teachers based on modern requirements. The author also noted the main features of innovative activity of physical education teachers and the directions of training their teachers for innovation.

Key words. Physical culture, sport, student, teacher, dexterity, endurance, morality, spiritual training, science, methods and methods, methodology, practical result.

E'tirof etish lozimki, jismoniy tarbiya – faqatgina sport musobaqalaridan iboratgina jarayon bo'lmay, balki ana shu tarbiya orqali yoshlarda mardlik, jasurlik, jasorat va matonat kabi axloqiy-irodaviy xislat va fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladigan jarayondir. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda jismoniy mashqlarni bajarish davomida yoshlarda iroda, sabr-toqat, chaqqonlik, chidamlilik, tashabbuskorlik tarbiyalanadi, salomatliklari mustahkamlanadi, ish va o'qish qobiliyatlari, aqliy va ruhiy faolligi oshadi, halollik, qat'iylik, mustaqillik kabi odob-axloq, xulq me'yorlari tarkib topib, barkamollikka erishiladi.

Shuning uchun ham jismoniy tarbiya darslarida o'qituvchi har tomonlama yetuk: jismonan va ruhan chiniqqan, tiniq fikr-mulohazali, mard va jasur, sabr-bardoshli, qat'iyatli, kelajakda Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining faoliyatini innovatsion tashkil qilishda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonini faol-

lashtirish bilan birgalikda o‘ta dolzarb masala – bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini nazariy va amaliy jihatdan innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni jismonan yetuk qilib tarbiyalashda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat jismonan barkamol, ruhan sog‘lom shaxsgina o‘zining intellektual, ma’naviy-ma’rifiy imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu ma’noda mamlakatimizda jismoniy tarbiya tizimining tarixiy tajribalarini qiyosiy-tahliliy o‘rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, uning istiqbolli strategiyasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun maqsadli pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati kelib chiqadi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda o‘rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda innovatsion faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo‘llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishni talab etadi.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo‘nalish – pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish – “o‘qituvchining innovatsion faoliyati” tushunchasi paydo bo‘ldi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdan iborat bo‘lib, muayyan vaqt davomida shakllanib, takomillashib boradigan jarayon hisoblanadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatining asosiy belgilari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1) ijodiy-izlanuvchanlik faoliyati falsafasini jismoniy tarbiya konsepsiyalari bilan uyg‘unlashtirish;

2) pedagogik tadqiqot metodlarini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llash;

3) nazariy va amaliy mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyatiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik va izlanuvchanlikni rag‘batlantirish;

4) yangiliklarga doimiy ravishda intilish, pedagogik tajriba-sinovishlarini dasturlashtirish va amalga oshirishni ta’minlash;

5) ilg‘or innovatsion tadqiqotchi-pedagoglar metodik tajribalarini o‘zlashtirish, “Ustoz-shogird” maqomini takomillashtirish va amaliyotda qo‘llash;

6) pedagogik jamoatchilik bilan ijodiy hamkorlik, hamkasb mutaxassislar bilan izlanuvchanlik faoliyatini takomillashtirib borish;

7) amaliy tajribalar yuzasidan o‘zaro fikr almashish, metodik va amaliy yordam ko‘rsata olish;

8) O‘quv jarayonida yuzaga keladigan turli ziddiyatlarni oldini olish, dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalar bilan alohida ish olib borish;

9) ta’limdagi innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini dars jarayonlariga jadal tatbiq etish, ularni mahalliy sharoitga moslashtira olish;

10) O‘quvchilar bilan do‘stona munosabatni qaror toptirish, ya’ni bolalarni sevish.

Pedagogikada “innovatsiya”, “innovatsion faoliyat”, “innovatsion pedagogika”, “ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish” kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab AQSh va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida “ta’lim texnologiyasi” tushunchasi e’tirof etilgan vaqtda paydo bo‘ldi. O‘sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo‘lishi va innovatsion ta’lim nazariyasining yaratilishi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu atamalar ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, unga yangilik kiritish, shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlashga bo‘lgan ehtiyojni qondirish natijasida vujudga kelgan.

Mamlakatimizda esa 1997-yildan so‘ng ushbu pedagogik faoliyat – ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo‘nalish sifatida tarkib topdi. Bu esa zamonaviy o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilishga imkoniyat yaratdi.

Rossiyalik olimlar – N.Kondratev, V.A.Slasteninlar “innovatsiya” tushunchasining mohiyati, kelib chiqish sabablarini o‘rgangan bo‘lsalar, o‘zbek olimlari – J.G‘.Yo‘ldoshev, M.Ochilov, N.Azizxodjaevalar o‘z tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotladilar. “Innovatsion faoliyat pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi”.[1]

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas.

Innovatsiya – ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir. Demak, innovatsion texnologiyalarning asosiy negizi – o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta’lim jarayonini loyihalashdir.

Bugun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

– faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);

– Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan);

– o‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli);

– kelib chiqish manbaiga ko‘ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Pedagogik innovatsiyaning maqsadi – kam mablag‘ yoki kuch sarflab ta’lim samaradorligiga erishishdan iborat. Ya’ni, ta’lim samaradorligi – o‘quvchilar tomonidan o‘qitilayotgan barcha fanlardan Davlat ta’lim standart (DTS)lari talablari darajasidagi bilim, ko‘nikma va malaka (BKM) larni egallash nazarda tutiladi. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni yaratish zaruratining oshishi, pedagogik (ta’lim, tarbiya) jarayonda o‘quvchi faoliyatini boshqarish uchun loyihalangan jismoniy tarbiya dars-

[1] Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’limga innovatsion yondashuv. // “Xalq ta’limi”, 2014, 3-son. -14-b.

larining barkamol shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilishi bilan uzviy bog‘liqlikda amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyat o‘qituvchining barcha muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo‘lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

O‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi uch bosqichda amalga oshiriladi:

– yangilikni pedagogik faoliyatda qo‘llashdan avval oldingi davrdagi faoliyatini tahlil qilish;

– innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish;

– pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo‘lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish va natijani baholash.

Ma’lumki, shaxsning xislat va fazilatlari faoliyat ko‘rsatish jarayonida shakllanib, rivojlanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda yangilikka intiluvchanlik va mustaqil mutolaa qilishga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish maqsadga muvofiqdir. Chunki ilmiy-ijodiy yangilik insonga ulug‘vorlikdan ko‘ra ko‘proq zavq-shavq bag‘ishlaydi.

Ta’lim tizimini mazmunan isloh qilish jarayonida pedagog kadrlar obro‘-e’tibori, mas’uliyati va kasb ko‘nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadamlik bilan davlat siyosati olib borilmoqda. Bu borada o‘qituvchi faoliyatini yangilash va innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Har qanday boshqa soha mutaxassislari kabi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining ham kasbiy tayyorgarlik darajasi ularning bilim, ko‘nikma va malakalari, ijodiy salohiyati hamda noan’anaviy tafakkurlarida o‘z aksini topuvchi kasbiy layoqati bilan baholanadi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining innovatsion faoliyati – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma’noda ta’lim jarayoniga singib boradi. Shu sababli ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

– mavjud pedagogik muammoni tahlil qilish;

– mo‘ljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalash;

– pedagogik jarayondagi o‘zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish, ularni tashkil qilish va nazoratini olib borish.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad – o‘qituvchining yangilikka intiluvchanligi, o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Innovatsion faoliyat – ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi pedagogik-texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan usul va uslublarni yaratishdir. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi pedagogik texnologiyaning shakllanishi bo‘lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyihaga, loyihani texnologiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to‘siqlar mavjud. Bularning birinchisi – o‘qituvchining o‘zi ko‘nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya’ni o‘qituvchilarda ijodkorlikning yetarlicha emasligi bo‘lsa, yana bir sabab yangi va noma’lum narsalar har doim odamlarda cho‘chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir. Demak, raqobatga qodir mutaxassislarning yangi avlodi, xususan, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘z oldiga istiqbolni ko‘zlagan vazifalar qo‘yib, ularni yecha olish qobiliyati, yuksak tafakkur madaniyatiga hamda ilmiy-texnik va ijtimoiy-siyosiy axborotlardan mustaqil ravishda foydalana olish xususiyatiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash ko‘zda tutiladi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda quyidagi yo‘nalishlar inobatga olinadi:

– yangilikni idrok qilishga ruhan va innovatsion tayyorgarlik;

– bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining Davlat ta’lim standartlarida ko‘rsatilgan o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan minimal talablarni ularda shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatga ijodiy yondashishga motivlashtirish;

– ijodkorlik, izlanuvchanlik va tashabbuskorlikka asoslangan izchil faoliyatni rivojlantirish.

Pedagogik innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish – o‘qituvchi faoliyatini jahon andozalariga mos holatda tashkil etishga imkon tug‘diradi. Bunda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi innovatsion faoliyati yangilik kiritishning samarasini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash quyidagicha kechadi:

– mo‘ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqqiyatini bashorat qilish;

– yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan taqqoslash, ulardan eng samaradorini tanlab olish, ularning eng ahamiyatlisini katta aniqlik atroflicha o‘rganib, ular hamkorligi ta’minlanadi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o‘zgartirish, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. Demak, o‘qituvchi va tahsil oluvchi o‘rtasidagi “subyekt-subyekt” munosabatlari yangi muloqot namunasi sifatida o‘zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar an’analarda bo‘lganidek, qistovlar, hukmga bo‘ysunish kabi unsurlardan holi bo‘lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o‘zaro boshqarilishi, o‘zaro yordam shaklida qurilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda quyidagi asosiy funksiyalar amalga oshiriladi:

– bo‘lajak kasbiy faoliyatga ongli ravishda yondashuv tahlili;

– me’yorlar va talablarga nisbatan ongli tanqidiy yondashuv;

– kasbiy yangiliklar va o‘zgarishlarga nisbatan qiziqishning kuchliligi, ishtiyoqmandlik;

– ijodkorlik va izlanuvchanlik, mustaqil fikr yuritishni shakllantirish;

– o‘z kasbiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda sog‘lom turmush tarziga amal qilish va o‘z intilishlarini kasbiy faoliyatida to‘la mujassamlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi innovatsion faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’limga innovatsion yondashuv. // “Xalq ta’limi”, 2014, 3-son. 14-b.

2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – T.: O‘zDJTI nashriyot-matbaa. 2005.

3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2003.

4. Muxamedov G‘.I., Xo‘jamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ta’rif, tavsif, tasnif (ilmiy risola). Chirchiq. 2019, O‘zMU bosmaxonasi.

5. Usarov J.E. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini amaliyotga joriy etish: muammo va yechimlar. – T., “Fizika, matematika va informatika”, 2016, № 6, 40-48 betlar.

6. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – T.: “Zar qalam”, 2004.

7. Кошбахтиев И.А. Основы оздоровительной физкультуры молодежи. – Т., 1994;

8. Саломов Р.С. Проблемы высшего физкультурного образования. Моногр., – Т., 1992;

Marhabo YAKUBOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi mustaqil tadqiqodchisi

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA KREATIV YONDASHUVNING DOLZARBLIGI VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak pedagog kadrlarda kreativlikni takomillashtirishning ahamiyati va zarurligi, ta’limni modenizatsiyalash sharoitida ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, ta’lim-tarbiya samaradorligini sifat bosqichiga ko‘tarish, pedagogik kreativlikni shakllantirish haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, muallif pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalarni aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Kreativlik, iqtidorlilik, modernizatsiya, texnologiya, pedagogik kreativlik, kreativ qobiliyat, kasbiy innovatsion kompetentlik, innovatsion ta’lim texnologiyalari.

В статье изложены мнения о важности и необходимости совершенствования креативности в будущих педагогических кадрах, углубления научно-практических знаний в условиях модернизации образования, повышения эффективности образования на качественно этапе, формирования педагогической креативности. Также автор рассказал о навыках, которые позволяют педагогам организовывать творческую деятельность.

Ключевые слова. Творчество, талант, модернизация, технология, педагогическое творчество, творческие способности, профессиональная инновационная компетентность, инновационные образовательные технологии.

The article presents opinions on the importance and necessity of improving creativity in future teaching staff, deepening scientific and practical knowledge in the conditions of modenization of education, improving the effectiveness of education at the current stage, and forming pedagogical creativity. The author also spoke about the skills that allow teachers to organize creative activities.

Key words. creativity, talent, modernization, technology, pedagogical creativity, creative abilities, professional innovative competence, innovative educational technologies.

Respublikamizda ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida ta’lim oluvchilarning faolligi, ijodkorligi, tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirilgan pedagogik eksperimentlarni loyihalash, tashkil etish va o‘tkazishning zamonaviy shakl va metodlaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi bugungi zamon talablari asosida ta’lim tizimini isloh qilish, pedagogika sohasida ilg‘or innovatsiyalar, ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilishi va ularni keng joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu sababli bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik muammolarni qiyosiy taqqoslash, tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish va o‘qitish metodlarining optimal variantlarini tanlash asosida amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish orqali pedagogning kreativlik potensiali darajasini oshirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

Ta’lim sifatini ta’minlash – bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o‘quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko‘rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me’yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ko‘rsatma va tamoyillar ko‘rinishida o‘z aksini topgan.

Hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-uslubiy faoliyat mazmunini takomillashtirish, o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi.

Ta’limni modernizatsiyalashdan maqsad ta’limning taraqqiyotini ta’minlash, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari har bir shaxsning va oilaning ehtiyojlari aks etishi lozim. Bunday taraqqiyot tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

− davlat tomonidan to‘liq ta’lim olish huquqini ta’minlanishi;

− ta’lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy ta’lim sifatini ta’minlash;

− ta’limning huquqiy-me’yoriy bazasini takomillashtirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni yangi resurslarini aniqlash va jalb etish;

− pedagog kadrlarning kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish va rag‘batlantirish;

− ta’lim tizimiga ilg‘or xorijiy tajribalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘nggi yutuqlarini keng joriy etish;

− fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi konsorsiumni rivojlantirish;

− uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarning kreativ ko‘nikmalarini, intellektual sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish va boshqalar.

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik (inglizcha “Create” – yaratuvchanlik, ijodkorlik) inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste’dod darajasi, individning an’anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir.[1]

Kreativ shaxs bo‘lish, bizning misolimizda esa, kreativ o‘qituvchi bo‘lish – bugungi ta’limiy faoliyatda afzalliklarga ega bo‘lish, masalan, boshqa o‘qituvchilar ichida ajralib

[1] Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Scholastic Testing Service, Inc., 2004.

turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo‘lish, ta’limda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish demakdir.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g‘oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo‘llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Kreativlik axborotni yodda saqlash va faktlarni yig‘ishga asoslanganligi tufayli an’anaviy ta’lim sistemasi har doim ham o‘qitishda kreativ yondashuvga asos bo‘la olmaydi. Bu holat shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning, xususan, talabaning kreativlik qobilyatini rivojlantirishga qodir emas. Kundalik hayot tarzi ko‘pincha shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo‘ladi. Shu tufayli, kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi uchun faqat maxsus tashkil qilingan muhit bo‘lishi lozim.[2]

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatidir.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Buning sababli ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagicha (1-rasm):

Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo‘lishlari zarur.

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

1. bilishga oid (gnostik) malakalar;
2. loyihalash malakalari;
3. ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
4. tadqiqotchilik malakalari;
5. muloqotga kirishuvchanlik (kommunikativ) malakalari;
6. tashkilotchilik malakalari;
7. izchillikni ta’minlovchi (protsessual) malakalar;
8. texnik-texnologik malakalar.

Pedagogning kreativlik potensiali. Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda

[2] David Watson. The Question of Conscience Higher edication and personal responsibility. Oxford, Institute of Edication Press. 2014.

qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, talabalar ham shunday bo‘la oladi.



1-rasm

O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur. Mashg‘ulotlarda o‘qituvchi “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi:

1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;

2) talabalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;

3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;

4) kutiladigan natija.[3]

Kreativlik potensialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari. Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

[3] Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Scholastic Testing Service, Inc., 2004.

Torrens bolalar kreativligini shakllantirish dasturini, “Yosh bolalardan kattalargacha” kreativlikni aniqlash testlarini yaratdi.

Umuman olganda, kreativlik – bu yangi, original g‘oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa rivojlanuvchi tafakkur bo‘lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi.

E.P. Torrens fikricha, “Kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

− muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

− farazni tekshirish va o‘zgartirish;

− qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

− muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik o‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “Pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Psixologiyada E.P. Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. Muallifning fikricha, shaxs kreativligi o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1. savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma’lumotlarga e’tiborsiz bo‘lmaslik;

2. muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, o‘qitishga kreativ yondashuv masalasi bu pedagogik jarayonni shaxs imkoniyatlariga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, ta’lim oluvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashiga imkon beruvchi zaruriy o‘qitish texnologiyalarini tanlash va amalga oshirishda, shuningdek, o‘qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligi bilan asoslanadigan o‘qitishga nisbatan zamonaviy yondashuv shakllaridan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Scholastic Testing Service, Inc., 2004.

2. David Watson. The Question of Conscience Higher edication and personal responsibility. Oxford, Institute of Edication Press. 2014.

Gulruxsor SHARIPOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

KLASTER TIZIMIDA O‘QUVCHILARNING O‘ZINI O‘ZI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim tizimidagi yangicha yondashuvlar misolida pedagogik innovatsion klasteri va mazkur sharoitda o‘quvchilarning o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi yuzasidan fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim klasteri, innovatsiya, o‘zini o‘zi rivojlantirish.

В статье приведен пример новых подходов в системе образования по педагогическому инновационному кластеру и предложена методика формирования компетентности саморазвития студентов в этих условиях.

Ключевые слова. Образование, компетентность, компетентностный подход, образовательный кластер, инновации, саморазвитие.

The article provides an example of new approaches in the educational system for pedagogical innovation cluster and suggests a method for forming students’ self-development competence in these conditions.

Key words. Education, competence, competency approach, educational cluster, innovation, self development.

Ta’lim tizimi texnik va metodik jihatdan takomillashib borishiga qaramasdan, undagi muammolar o‘zining pedagogik va psixologik jihatdan tadqiqotlarga har doim zarurat mavjud bo‘ladi. Bu barcha sohalardagi kabi, ta’lim-tarbiya jarayonida ham insoniyatning turli kashfiyotlari, jamiyatning taraqqiyot tendensiyalari, tabiatning o‘rganilishi va o‘zlashtirilishi, fan va texnikaning mislsiz rivojlanishi kabi omillar ta’lim tizimida ham yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Bunday yondashuvlar qatoriga pedagogik ta’limda innovatsion klasteri tizimini kiritish mumkin. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”.

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri (PTIK) sharoitida o‘zini o‘zi rivojlantirish masalasi nafaqat talabalarda, balki maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta ta’lim bo‘g‘inida ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim asosida ularda bilim, ko‘nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi. Buning uchun ta’lim klasteri sharoitida tayanch kompetensiyalarni, xususan, o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyalarini turli ta’lim bo‘g‘inlarida shakllantirish metodikasini yaratish zarurati mavjud.

Bu esa ta’lim sohasiga innovatsiyalar kiritish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim–fan–ishlab chiqarish uchligi o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini ku-

chaytirish, ta’lim tizimining turli: maktabgacha, maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarining bir bo‘g‘in sifatida qarash, farzandlarimizga ta’lim-tarbiya berish esa nafaqat ta’lim muassasalarining, balki butun jamiyatning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi lozimligini bildiradi. Shu nuqtai nazardan farzandlarimizning maktabgacha ta’lim muassasalaridan to oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichiga qadar bitta tizim sifatida qarash, mazkur jarayonga innovatsiyalarni joriy etish va bu tizimni pedagogik ta’lim klasteri sifatida qabul qilish zarur bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya masalasi keng qamrovli va ko‘p qirrali ijtimoiy masala bo‘lib, uning yechimi bir yoki ikki sababning qondirilishi bilan o‘z yechimini topa olmaydi. Ilm-fan va ishlab chiqarish, ta’lim jarayonini hayot bilan bog‘lay olish, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishishi esa belgilab olingan natijalarga erishishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, ta’lim klasterning asosiy maqsadi zamonaviy ta’lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirish, zamon talabidagi kompetent kadrlarni tayyorlash, ya’ni pedagogik ta’lim innovatsion klasterining sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarilishiga erishishdir.

Bu o‘quvchilarning o‘quv motivi oshirish, mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish, ta’lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlari hamda vositalarini izlab topish va ta’lim amaliyotiga kompetensiyaviy yondashuv asosida tatbiq etish kabi bir qator amaliy ishlarni taqozo etuvchi, shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizimidagi funksional holatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bir holatdan boshqasiga o‘tish shaxsning muayyan yo‘nalishlar: fiziologik (gavdani takomillashtirishga intilish); psixologik (psixik jarayonlarni ongli rivojlantirishga intilish); ijtimoiy-ma’naviy (funksional namoyon bo‘lishga intilish) bo‘yicha rivojlanishiga imkon yaratadi. Biz talabalarning o‘zini o‘zi rivojlantirishi deganda, ularning psixologik hamda ijtimoiy-ma’naviy yo‘nalishlarini nazarda tutganmiz. Shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi – integrativ jarayon bo‘lib, tuzilmasiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, D.Yu.Anufrieva bu jarayonni o‘z ichiga ichki hissiyot, o‘zini boshqarish, “shaxsning o‘z rivoji uchun sharoit topish mahoratida ifodalanadigan o‘z ifodasini topuvchi rivojlanuvchi o‘zaro harakat bo‘g‘inini o‘z ichiga olgan” uch bo‘g‘inli jarayon deb hisoblaydi. Ayrim ishlarda o‘z-o‘zini rivojlantirishning 6 bo‘g‘inli tuzilmasi aniqlangan: bunga o‘z-o‘zini belgilash, o‘zini tashkil etish, o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, o‘zini oqlash, o‘zini namoyon etish jarayonlari kiradi.

Keltirilgan yondashuvlar o‘z-o‘zini rivojlantirishning bir ma’noda emasligini hamda serqirraligi to‘g‘risida so‘z yuritishga imkon beradi. Ya’ni o‘zini o‘zi rivojlantirish - inson hayoti mobaynida amalga oshiriladigan, unga o‘zining mavjudlik mazmuniga yetishishga ko‘mak beruvchi, insonning ichki olamining qayta o‘zgarishiga hamda kompetent shaxs sifatida shakllanishiga asos bo‘ladigan bosqichlar tizimidir.

O‘quv faoliyatida talabaning o‘zini o‘zgartirishi o‘z faoliyati natijalariga, davomiylikka tanqidiy munosabatidan boshlanadi, bu talabalarga o‘zining shaxsiy o‘ziga xosliklarini o‘rganishga va baholashga, o‘z ichki olamini anglashga turtki beradi, ularni o‘quv maqsadlar va vazifalarni mustaqil tarzda tanlashga olib keladi. O‘z-o‘zini boshqarish “xohlayman” va “qila olaman” o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zini namoyon etishni amalga oshirishning sharti va vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik innovatsion faoliyat: ijodkorlik, tahliliy va tadqiqotchilik faoliyati ko‘rinishida bo‘ladi.

Biz avvalo bo‘lajak pedagoglarda o‘zi tanlagan kasbiga mehr qo‘yishi, o‘qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o‘rganishi va unda o‘z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg‘ulari rivojlantirishi zarurligi, ikkinchidan, har bir kasb egalari uchun bilim va dunyoqarash, uchinchidan, rahbarlik qobiliyatini, ya’ni har bir qo‘l ostidagilariga maqsadli ta'sir o‘tkazish xususiyati lozimligini his qilishi kerak bo‘ladi. Bu esa talabalarga o‘quv vaziyatida, shu jumladan, berilgan vazifaga munosabatida, o‘zgalar bilan o‘quv faoliyatidagi munosabatda o‘zining ichki imkoniyatlarini imkon qadar namoyon etishga sharoit yaratadi.

Shu o‘rinda Maslou o‘zining “Motivatsiya va shaxsiyat” (1954) kitobida insonning barcha ehtiyojlari tug‘ma yoki instinktiv bo‘lib, ular ustuvorligi bo‘yicha ierarxik tizimda joylashgan ekanligini ta’kidlaydi. A.Maslouning inson ehtiyojlari piramidasi diagrammasi bo‘yicha belgilangan qadamlarga e’tibor bersangiz (1-rasm), uning asosi sifatida fiziologik (tashkiliy) ehtiyoj qo‘yilgan bo‘lsa, oxirgi uchta daraja: “bilim”, “estetika”, “o‘z-o‘zini yangilash” umumiy holda “o‘z-o‘zini ifodalash ehtiyoji” (shaxs sifatida o‘sish) joylashtirilgan.

1-rasm. Insonning o‘zini o‘zi rivojlantirish ehtiyojlari piramidasi.

Asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan bir qator ijtimoiy shartlarni keltirish mumkin; bu shartlarning qoniqarsiz ravishda bajarilishi bevosita asosiy ehtiyojlar qondirilishga to‘siq bo‘lishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha turdagi ehtiyojlar namoyon bo‘lishi, ta’sir qilishi uchun undan quyidagi darajadagi ehtiyoj to‘liq qondirilgan bo‘lishi kerak. Shunday qi-

lib, piramidada keltirilgan ehtiyojlar pastdan tepaga va tepadan pastga harakat qiladi deb hisoblash mumkin. Yuqoriga harakatlanishni ehtiyojlar qondirilishi jarayoni deb, pastga harakatlanishni esa – ehtiyojni qondirishga intilishning so‘nishi jarayoni deb qarash mumkin.

Xulosa shuki, o‘zini o‘zi rivojlantirish masalasi har qanday yoshdagi insonlar uchun taa’luqli bo‘lib, yuksaklikka yetaklovchi asosiy omil hisoblanishi va ta’lim klasterining barcha bo‘g‘inlari uchun bevosita aloqador ekanligini, uning ustozlik, murabbiylik qilishni ham o‘z ichiga olishi hamda o‘quvchilarga ta’sir qilishlari orqali pedagoglarning ham o‘sishiga sabab bo‘lishini ta’kidlab o‘tish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz.

2. Mukhamedov G.I, Usarov Dj.E. “Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources”. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)’, ISSN: 2278–3075 (Online), Volume-9 Issue-3, January 2020, Page 2677-2684. https://www.ijitee.org/download/volume-9-issue-3/.

3. Вентцель К.Н. Этика и педагогика творческой личности. – М.: Изд-во К.Н. Тихомирова,. – С. 380-393.

4. Ануфриева Д.Ю. Саморазвитие учителя в процессе подготовки к педагогической деятельности: Дис... канд.пед.наук. – М., 1996. – С. 153.

Jabbor USAROV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, p.f.d.
Nortoji ESHNAEV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, f.f.n.
Timur MARATOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti psixologiya o‘qituvchisi

OILAVIY INQIROZNING BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA SALBIY TA’SIRINI BARTARAF ETISH MEXANIZMI

Annotatsiya

Maqolada oilaviy inqirozning bolalar psixologiyasiga salbiy ta’sirini bartaraf etish mexanizmini ishlab chiqish hamda oilaviy inqiroz yuz bergan bolalar bilan individual psixologik ishlashning jamiyat uchun istiqbolli jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Oila maktabi, oilaviy inqiroz, kasbiy kompetentlik, psixologik xizmat, mexanizm, depressiya.

В статье рассматривается разработка механизма преодоления негативного влияния семейного кризиса на психологию детей и перспективы общества индивидуальной психологической работы с детьми в условиях семейного кризиса.

Ключевые слова. Семейная школа, семейный кризис, профессиональная компетентность, психологическая служба, механизм, депрессия.

The article discusses the development of a mechanism to overcome the negative impact of family crisis on the psychology of children and the prospects for society of individual psychological work with children in family crisis.

Key words. Family school, family crisis, professional competence, psychological service, mechanism, depression.

Dunyoda yuz beradigan har qanday o‘zgarishlar, xoh u iqtisodiyotda, xoh ma’naviy-siyosiy sohalarda bo‘lsin, o‘z ta’sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi. So‘nggi yillarda dunyo iqtisodiyotdagi globallashuv jarayonlarining faollashuvi, ma’naviyat va axloqiy tarbiyada G‘arb ma’naviyatiga xos bo‘lgan individualizmning kuchayishi hayotimizning barcha jabhalariga va ayniqsa, oila muhitiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Negaki, oila kishilik jamiyatida yuz beradigan barcha islohotlar, o‘zgarishlar, tanazzul va taraqqiyotlarning ibtidosi va intihosi ekanligi tarixiy tajribalardan ma’lum.

Mamlakatimizning barqaror kelajagini ta’minlashda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oilaga ham e’tibor qaratilayotganligi bejiz emas. Oila institutini mustahkamlash, yosh oilalar haqida g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta’minlash, sog‘lom va mustahkam oila barpo etish uchun zarur shart-sha-

roitlarni yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan holda uzluksiz va keng qamrovli chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Barchamizga ayonki, bolalar qalbi va ongida ezgulik, yaxshilik haqidagi tushunchalar, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg‘usi, avvalo, oilada paydo bo‘ladi, insonning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy kompetensiyalari aynan shu muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda jamiyatimizda oilalar o‘rtasida yuz berayotgan salbiy oqibatlar kelajakka rahna solayotgani, bu davlat barqarorligiga tahdid ekanligini o‘z vaqtida anglashimiz va zaruriy ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-psixologik chora-tadbirlar mexanizmini ishlab chiqishimiz davr talabidir.

Respublikamiz Prezidentining 2019-yil 27-dekabrda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuvida mamlakatda ajrimlar darajasi yuqori ekanligi, ya’ni 2019-yilning 11 oyi davomida mamlakatda 277 ming 420 ta nikoh qayd etilib, shundan 28 ming 755 ta oila, asosan, yoshlar o‘rtasida ajrimlar yuz berganini “juda achinarli” ekanligini ta’kidladi.[1] Jamiyatimizda oilaviy inqirozning o‘sib borishi rivojlanayotgan mamlakatimiz ravnaqiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazuvchi o‘tkir ijtimoiy-siyosiy masala ekanligi kundek ravshan bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda oilani mustahkamlash, oila bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish, ayniqsa, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilib, ijtimioiy-siyosiy dasturlar ishlab chiqilmoqda. Biroq oilaviy ajrimlar soni ortib borayotgani bu yo‘nalishdagi ishlar yangicha yondoshuv, qolaversa, ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. Chunki oilaviy nizolar, oilaning inqirozga yuz tutishi jamiyatga o‘zining salbiy ta’sirini o‘ztkazmasdan qolmaydi.

Ushbu masalani Andijon viloyati misolida olib ko‘radigan bo‘lsak, 786 mingdan ortiq oila tarkibida 3 million nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Har yili viloyatda o‘rtacha 30 mingdan ortiq yangi oila qurilmoqda. Birgina 2018-yilda 30 ming 344 nikoh qayd etilgan. Biroq 4 ming 149 oila qonuniy ajrashgan. Joriy yilning birinchi choragida esa ajrimlar 1 ming 56 tani tashkil etdi, shundan 431 tasi yosh oila.[2]

Sirdaryo misolida olib qaraydiga bo‘lsak, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yilda viloyatda 1095 ta oilaviy ajrim ro‘yxatga olingan bo‘lib, bu 2016-yilga nisbatan (908) 21,0 foiz o‘sishni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonning barcha hududlari orasida eng yuqori hisoblanadi. 2012-2016-yillarda respublika bo‘yicha oilaviy ajrimlarning o‘sishi 58,0 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, Sirdaryo viloyatida bu ko‘rsatkich 83,0 foizni tashkil etgan.[3]

Statistik ma’lumotlar tahlillarga ko‘ra, har ikki viloyatda ham ajrimlarga farzandsizlik, er-xotinning bir-birini tushunmasligi, er-xotin oilaviy munosabatlari va ularning shaxsiy hayotiga boshqalarning aralashuvi va ular o‘rtasidagi o‘zaro mojarolar, uzoq vaqt birga yashamaslik, er yoki xotinning uzoq muddatga xorijga ishga ketishi, iqtisodiy yetishmovchiliklar, alkogolizm kabilar sabab sifatida bayon etilgan.

Bu ko‘rsatkichlar jamiyatimizdagi barcha ziyoli insonlarni tashvishga solishiga shubha yo‘q. Shu ma’noda, oilaning ma’naviy muhiti va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini mustahkamlanishi bir tomondan oilaga, davlat va jamiyat e’tiborining kuchayishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan oilaning ichki imkoniyatlarini to‘laroq yuzaga chiqarish bilan bog‘liqdir. Oilaning ichki imkoniyatlari deganda, oila tarkibi, oila a’zolarining ijtimoiy

[1] Mirziyoyev Sh.M. 2019-yil 27-dekabrda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuvi materiallari.

[2] https://uza.uz/oz/society/oila-masuliyatini-anchalik-is-ilasiz-16-07-2019

[3] https://oilamarkazi.uz/conducted-research/sirdaryoda0ajrashish-21102018

faoliyati, o‘z oldilariga qo‘yayotgan maqsadlari, farzandlar tarbiyasi, ta’lim, shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy tarbiya, mehr, sadoqat, sabr, muhabbat singari insoniy fazilatlarning oila muhitida shakllanishi va rivojlanishi tushuniladi.

Abdurauf Fitrat “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asarida oila institutining jamiyatdagi o‘rni va mohiyati haqida to‘xtalib, millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqligini e’tirof etgan holda, qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tarbiyali bo‘ladi. Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi, deb yozadi.

Oila institutidagi o‘zaro munosabatlar xoh u ijobiy bo‘lsin, xoh salbiy, jamiyatning barcha sohalariga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. XIX asrning ikkinchi yarimidan boshlab, G‘arb ommaviy axborot vositalarida tadqiqotchilar tomonidan Yevropada oila inqirozi boshlanganligi xususidagi fikrlar keng yoritila boshlandi. Xususan, “Boston Kuaterli Revyu” jurnali shunday deb yozgan edi: “Eski ma’nodagi oila hayotimizdan yo‘qolmoqda va bu nafaqat institutlarimizning erkin xarakterini xavf ostida qoldiradi, balki jamiyatimizning mavjudligini ham xavf ostida qoldiradi”. Bunday mulohazalar ko‘pgina G‘arb mamlakatlari bo‘ylab aks-sado berib o‘tdi. 1980-yilda Britaniyada konservatorlar partiyasi oila tushinchasini siyosiy jihatdan muhokama qildi. 1986-yilda Angliyada bosh vazir lavozimida ishlagan Margaret Tetcher xotin-qizlar konservatorlar konferensiyasida: “*Bizning siyosatimiz oiladan, uning erkinligidan va uning xotirjamligidan boshlanadi,”*[4] degan edi. Boshqa tomondan, oilaning tanqidchilari oila institutining tushkunligini va hatto bora-bora yo‘qolib ketishini bashorat qiladilar.

Oilaning yo‘qolishi to‘g‘risida hali asoslanmagan holda shunchalik ko‘p gapirildiki, bunday umumiy mulohazalarga tanqidiy yondashish lozim. Tabiiyki, oila instituti bugungi kunda fundamental o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ammo G‘arb dunyosida yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarni o‘z holicha Sharq olamiga, xususan, O‘zbekiston turmush tarziga transformatsiya qilish, jamiyatimiz taraqqiyotiga juda katta tahdiddir.

Bugungi kunda oila instituti G‘arb mamlakatlari turmush tarzidan ajralib, tanqid ob’ektiga aylanib qolmoqda. Shuningdek, oilaviy hayotni yashashning boshqa ijtimoiy shakllari bilan almashtirish to‘g‘risida harakatlarni amalga oshirmoqda. Oilaga nisbatan erkinlik va imkoniyatlarni cheklovchi omil sifatida yondashilmoqda. “Bu yo‘nalishda ilmiy asoslangan tavsiyalar va yechimlar yo‘q… Hech kim tashabbus bilan chiqmaydi…”.[5]

Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimizning bu gaplarini negizida keng ma’no mujassamlashga bo‘lib, har bir oilada kamol topayotga bolalar ruhiyatida oilaviy inqiroznig salbiy ta’sir etishi haqida donishmandona fikrlarini uqishimiz mumkin.

Mas’ul va jamoat tashkilotlari, ilmiy tadqiqot institutlari bugungi kunda oilaviy ajrimlar statisikasini yuritish va uni keltirib chiqaruvchi sabab va oqibatlar haqida gapirishdan o‘ta olmayapti. Oddiy va o‘tkir bir haqiqatni tan olishimiz kerak, oilaviy ajrimlar sonini kamaytira olmayapmizmi, hech bo‘lmasa uning inqirozi oqibatida bolalarda kelib chiqadigan ruhiy tushkunlik bilan bog‘liq salbiy omillarni oldini olish borasida birorta

[4] Giddens Entoni. Sotsiologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma / tarj. N.Mamatov va J.Begmatov. – T.: Sharq, 2002.

[5] Mirziyoyev Sh.M. 2019-yil 27-dekabrda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuvi materiallari.

ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarni tashkil etishimiz, respublika va xalqaro miqyosidagi grant loyihalari asosida ularga amaliy va psixologik yordam berish omil va vositalarini topishimiz mumkin. Tahlil qiladigan bo‘lsak, inqirozga yuz tutgan oila bolalarining stress va depressiyaga tushib qolganligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayib ketishi va umidsizlik bilan bog‘liq salbiy psixologik kechinmalar ruhiyatini qamrab olganligi, autizm va ertangi kunga bo‘lgan ishonch hissining yo‘qolishi, jamiyat va odamlardan nafratlanish tuyg‘usining paydo bo‘lishi, aqliy salohiyatining tushib ketishi yoki umuman yo‘qolishi, agressiv xulq-atvor inqirozi yuz berishi, o‘zgalar baxti va omadiga rahna solish hissining ortib borishi, bunyodkorlik va ijodkorik omillarining yo‘qolishi, yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan moyillikning paydo bo‘lishi, ta’lim va tarbiyasi masalasida defektlarni paydo bo‘lishi, individual qobiliyati va kasbiy qiziqishinig so‘nishi, yosh va jins, dunyoqarash bilan bog‘liq inqirozning yuzaga kelishi, umidsizlik (apatiya), maqsadsiz hayot tarziga o‘rganishi, o‘ziga, tanlagan kasbiga va ertangi kuniga bo‘lgan ishonchining yo‘qqa chiqishi, noto‘liq oila farzandlar “nomi” bilan atalishi, suitsidga moyilligini ortib borishiga zamin bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda oilaviy inqiroz yuz bergan bolalar bilan individual psixologik ishlash jamiyat uchun istiqbolli masala bo‘lib, uning mexanizmini ilmiy-amaliy jihatdan yaratish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mamlakatlarida, xususan, O‘zbekistonda oila instituti hayotning abadiyligini, bunyodkorlik, ibratli ishlar va avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odat va qadriyatlarimizni asrab-avaylaydigan, kelajak nasllari qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan betakror tarbiya maskani sifatida e’tirof etiladi. Oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, mehr-muruvvat va oqibat omillari sog‘lom muhitni yaratadi. Zero, sog‘lom tarbiya oila a’zolari o‘rtasida yakdillik, maqsadlar birligini yuzaga keltiradi. Aks holda esa ichdan yemirilish, ma’naviy inqiroz holatlari yuz beradi, bu esa har qanday tashqi ziyonlardan ko‘ra talofatliroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2019-yil 27-dekabrda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuvi materiallari.

2. Giddens Entoni. Sotsiologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma // tarj. N.Mamatov va J.Begmatov. – T.: Sharq, 2002.

Jabbor USAROV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Pedagogika” fakulteti dekani, p.f.d.
Nortoji ESHNAYEV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Psixologiya” kafedrasi dotsenti, f.f.n.

TA’LIM TIZIMIDA AMALIYOTCHI PSIXOLOG KOMPETENTLIGI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarni yoshligidan kasbga bosqichma-bosqich yo‘naltirishning psixologik omillari, unga ilmiy jihatdan yondashish asoslari hamda kasbiy muvaffaqiyatlarga qo‘yiladigan talablar xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif professionalizm murakkab muammolarni yechish usullaridan tashqari, natijalarini tahlil etish, sabablarni tashxis qilish, faoliyatni takomillashtirish kabi usullarda kasbning mutaxassis shaxsi va imkoniyatiga qo‘yilgan talablarni aks ettirishini aytib o‘tgan.
Kalit so‘zlar. Ta’lim, psixologiya, kasbiy psixologik ta’lim, professiogramma, kasbiy professionalizm.

В статье рассматриваются психологические факторы постепенной ориентации студентов с раннего возраста на профессию, основы научного подхода к ней и требования к профессиональной успешности. Также автор отмечает, что профессионализм, помимо методов решения сложных задач, отражает профессиональную личность профессионала и возможные потребности в таких методах, как анализ результатов, диагностика причин, совершенствование деятельности.
Ключевые слова. Образование, психология, профессиональное психологическое образование, профессиограмма, профессионализм.

The article discusses the psychological factors of gradual orientation of students from an early age to the profession, the basis of a scientific approach to it and the requirements for professional success. The author also notes that professionalism, in addition to methods for solving complex problems, reflects the professional personality of a professional and possible needs for such methods as analysis of results, diagnosis of causes, and improvement of activities.
Key words. Education, psychology, professional psychological education, professiogram, professionalizm.

Buyuk kelajak sari intilayotgan mamlakatimizda yoshlar sohasida olib borilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi har jihatdan o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqara oladigan, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya oladigan, ma’lum kasbga yoshligidan qiziqqan, o‘z xalqi, Vatanining sha’ni va qadr-qimmatini, uning yuksak ongi va tafakkurini, intellektual salohiyatini butun dunyoga namoyish etib, mardona himoya qila oladigan kadrlarni tayyorlash va ularni kasbga yo‘naltirib borishni bosqichma-bosqich shakllantirish nazarda tutadi. Buning uchun avvalo, ta’lim tizimida alohida maxsus kasbiy psixologik yo‘naltiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va uni maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab oliy ta’lim tizimi oralig‘idagi dinamik jarayonni tizimli-

lik asosida hayotga joriy etish lozim. Bu jarayon nafaqat professionallik asosida tashkil qilishni, balki ijtimoiy-siyosiy, strategik xarakterdagi tayyorgarlikni talab qiladi. Shuningdek, yoshlarda professional kasbiy tayyorgarlik va kasbga yo‘naltirish tizimining psixologik omillarini tashkil etilishini samaradorlikka olib chiqish uchun mazkur holatni nazariy va amaliy jihatdan ilmiy asoslash kerak bo‘ladi. Darhaqiqat, yuksak salohiyatli kadrlarni tayyorlash siyosati bu davlatimizning kadrlar tayyorlash va ularni o‘z o‘rniga qo‘yish strategiyasi bo‘lib, aynan davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, pedagogik innovatsion ta’lim klasteri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois bugungi kunda, ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda asosiy e’tibor yoshlarning kasbiy qiziqishi, qobiliyati, ko‘nikma va malakasi uyg‘unligini ta’minlashga qaratilmoqda.

Ta’lim tizimini tubdan yangilanishi, zamonaviy yondashuv jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim qismidir. Bu esa yoshlarni professional kasbga yo‘naltirish masalasini tubdan qayta ko‘rib chiqish, uning o‘ziga xos xususiyati va psixologik asoslarini zamonaviy asosda ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Hozirgi davrda amaliyotda mavjud kasblarning sifatlari, professiogrammalari ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ammo ta’lim tizimida psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis kasbi klassifikatori yuzasidan professiogramma zamon talabi darajasida ishlab chiqilmagan. Shundan kelib chiqib ta’limda professional psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis faoliyatida nima uchun professiogramma zarur ekanligiga e’tibor qaratish mumkin.

Rossiyalik olimlar tomonidan oliy harbiy bilim yurtlari uchun tayyorlangan darslikda professiogramma – aniq faoliyat, mehnatning texnik va axborot vositalari, sanitariya-gigieniya va ijtimoiy sharoitlari to‘g‘risida, texnik, texnologik, ergonomik, fiziologik, psixologik, ijtimoiy-madaniy tavsiflar haqida axborot beruvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar majmuidir.[1]

Fikrimizcha, professiogramma – insonning shaxsiy sifatlari, fikrlash imkoniyatlari, ushbu kasbni muvaffaqiyatli egallay olishi uchun zarur bo‘lgan bilimlari, mahorati, ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan, amaliyotchi kadrlarga qo‘yiladigan talablar tizimidir.

Professiogrammaning asosini psixogramma tashkil etadi. Psixogramma – ma’lum bir kasbga nisbatan shaxsda hosil bo‘ladigan ko‘nikma va malakalar uchun zarur psixologik xususiyatlarning bayonnomasidir.

Kasblar malakali mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar asosida boshqariladi. Ta’kidlash lozimki, kasb turlari orasida muhim bo‘linishlar mavjudligi uchun unga aniq ta’rif berish murakkab muammodir. Soha olimlari tomonidan kosmonavt va uchuvchi, shturman va muhandis, aktyor va rejissyor, psixolog va pedagoglarning o‘ziga xos muhim kasbiy sifatlari ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz ta’limida psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis kasbiy sifatlari va professiogrammasini ishlab chiqish muammosi hozirgacha ilmiy tadqiq etilmagan. Aynan shuning uchun ham bu sohada chuqur ilmiy-amaliy psixoloik tadqiqot olib borish va zamon talabiga mos holda va unga javob beradigan ta’limda psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis professionalizmi muammosini ijtimoiy-psixologik jihatdan ochib berish zarur.

Professionalizm – aniq kasbga xos faoliyat turi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassisga imtiyozlar huquqini beruvchi jarayon bo‘lib, ijtimoiy safarbarlik hamda faoliyatlar

[1] Психология и педагогика. Военная психология: Учебник для вузов. / Под ред. А.Г.Маклакова. – СПб.: Питер, 2005. – С. 464.

muvofiqligini ta'minlab, shaxsning kasbiy qobiliyati va imkoniyatini rivojlantirib, jamiyatga foyda keltiradi.[2]

Professionalizm jamiyat rivoji uchun salohiyatli mehnat qilish, ijtimoiy boylik va ma'naviy qadriyatlarni bunyod qiluvchi kuchdir. Shuning uchun ham u amaliy psixolog mutaxassis xizmatini yuksaltiruvchi qadriyat bo'lib qoldi. Professionalizm murakkab ijtimoiy psixologik majmua ekanligi uchun olimlar uni turlicha izohlaydilar. Rossiyalik olim N.Yu. Klochkoning ta'kidlashicha, professionalizm:

Birinchidan, mutaxassislikni mukammal egallash uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar, mahorat va ko'nikmalar, shaxsga oid intellektual sifatlarning rivojlanishini nazarda tutadi.

Ikkinchidan, malaka yuqori bo'lsa, mutaxassis xizmatining sifati, ijtimoiy ahamiyati fuqaro va mamlakatga kutilgan foyda keltiradi.

Uchinchidan, professionalizm, shaxsning xizmatida o'zi va boshqalar foydasi uchun rivojlanishning asosi, faoliyatning erkin namoyon bo'lishi va faol ijodiy mehnat uchun yuqori motivni shakllantirishga yordam beradi.[3]

Bunday holda ta'limda psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis o'z kasbini bilish chegaralarini insoniyatning umumiy madaniyat boyligi talablari asosida kengaytirishga, ijodiy vazifalarni yechishga, tanlagan mutaxassisligining ko'nikma va mahoratini chuqur egallashga intiladi.

Ta'limda psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis professionalizmi, faoliyatninng sermahsulligi bo'lib qolmay, balki kasbiy sohaga bo'lgan shaxsiy munosabati, ruhiy holatining mavjudligi hamdir. Amaliy psixologning professionalligi ta'limning barcha bug'unida zamonaviy psixologik metodikalarni qo'llay olishi va undan maqsadli foydalanishdir. Kasbiy professionalizm baholanayotganida ta'limda psixolog (amaliy psixolog) mutaxassisni nima faollikka undashi, u qaysi qadriyatlarga suyanishi, nima uchun aynan shu faoliyat bilan shug'ullanishi kabi omillar e'tiborga olinishi lozim.

Professional ta'limda psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis kasbiy lavozim majburiyatiga ko'ra quyidagilarni o'zida mujassamlashtirishi zarur:

− kasbiy soha bo'yicha maxsus tayyorlangan, chuqur mantiqiy fikrlay oladigan, yoshlarni ruhiy barqarorligini ta'minlash va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda, o'z faoliyatining o'rnini obyektiv baholaydigan, tezkor qarorlarni qabul qila olishi;

− har bir bolaning individual qobiliyati va kasbiy qiziqishini o'rganish yuzasidan optimal psixologik metodikalarni amaliyotda qo'llay olishi;

− bolaning ma'lum qobiliyat sohibi ekanligini aniqlashi va kasbiy qiziqishini rag'batlantira olishi;

− yoshlarda kasbiy inqirozning oldini olishning ijtimoiy-psixologik omillarini amaliyotda qo'llay olishi;

− yoshlarda maqsadsiz va samarasiz faoliyat turini yuzaga keltirayotgan psixologik omillar diagnostikasi va korreksiyasini amalga oshira olishi;

− har bir bolada o'ziga, tanlagan kasbiga va ertangi kuniga bo'lgan ishonchni rag'batlantira olishi hamda mutaxassis sifatida shakllanishiga motivatsiya bera olishi;

− har bir shaxsni kelajakda kasbiy faoliyatidan qoniqmaslik muammosini bartaraf etishi va kasbiy qobiliyat dinamikasini rivojlantira olishi;

---

[2] Лоусон Т., Гэррод Д. Социология. А–Я: Словарь–справочник. / Пер. с англ. К.С. Ткаченко. – М.: ФАИР–ПРЕСС, 2000. – С. 608.

[3] Клочко Н.Ю. Профессионализм и ценностные ориентации. http: // nostalgia. ncstu.ru / content /_ docs /pdf/conf/ past / 2002 / skgti 2 /philos / 05.

− barcha sohadan yetarli bilim va tushunchaga, ravon nutq madaniyatiga ega bo‘lgan, o‘z kasbiy faoliyatida xorijiy tillardan birini mukammal egallagan bo‘lishi lozim.

Bugungi psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis uchun mahorat va xizmat vazifasini unumli darajada bajarishning o‘zi yetarli emas. Chunki u ta’lim jamoasida xizmat qilish qobiliyatini o‘zida shakllantirishi, yuqori pedagogik mahoratni o‘zlashtirishi va o‘zaro shaxsiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishi zarur.

Olimlar tomonidan professional kadrni tadqiq qilishga sintetik yondashishning maqsadga muvofiqligi ta’kidlangan. Psixologlar kasblarni o‘rganishda shaxs xususiyatlarini, ularning o‘ziga xos uyg‘unlashuvini o‘zida mujassam etishini ta’kidlaganlar. Rossiyalik olim Y.A.Klimov professional ixtisosligini oshiruvchi talaba o‘z ongida nimaning qiyofasini saqlab turishi lozim degan savolga ravshanlik kiritmay turib, biz professional ta’limning yaxshi yo‘lga qo‘yilishiga, mehnatning samarali tashkil etilishiga, professional faoliyatda o‘zining navbatdagi qadamini ongli loyihalashtirishga, insonlarning jamiyatdagi o‘zaro yaxshi munosabati, bir-birini tushunishga ishona olmaymiz, deb ta’kidlagan bo‘lsa, tadqiqotchi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy shayligi – tegishli kasbiy faoliyatga tayyor shaxsning subyektiv holatidir, deya ta’kidlagan.

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi kasbiy bilimdonlik, mahorat, o‘zini boshqarish, e’tiborni tegishli faoliyatga qarata olish qobiliyati va kasbiy (psixologik, ma’naviy va jismoniy) salohiyatining mavjud bo‘lishini taqozo etadi.

Shuningdek, Yu.P.Platonov professional yo‘naltirilganlik shaxsning xulqiy, emotsional xususiyatlarini o‘z ichiga olgan yaxlit va ko‘p qirrali xususiyatlaridir deb ta’riflasa, L.Yu.Krivsov professional bilimdonlik mutaxassisning bilim va mahorat ko‘nikmalarini o‘z ichiga oluvchi integrativ sifat deb hisoblaydi.[4]

Shu bilan birga, professional bilimdonlik – tajriba, bilim, mahorat, kasbiy muhim sifatlar, professional shaylikni o‘z ichiga oluvchi individual tuzilma hamdir.

Kasbiy mahorat – faoliyatda natijaga erishish uchun fanning metod va metodikalarini samarali qo‘llash, psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis tayyorgarligning yuqori darajasidagi ko‘rinishidir.

Ta’lim tizimida, kasbiy muloqot me’yorlari va professional kasbiy mahoratni egallagan, psixolog kasb etikasiga rioya qilgan, milliy va umuminsoniy tushunchalarni o‘zida mujassamlashtirgan shaxsni professional psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis kadr deb hisoblash mumkin. U kasbiy mahoratni o‘zgartiradi, rivojlantiradi o‘z kasbini ijodiy boyitishga intiladi. Professional psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis o‘z kasbining salmog‘i va obro‘sini ko‘tarib, jamiyatda psixolog kasbiga bo‘lgan qiziqishni yanada oshiradi.

Yu.P.Platonov fikricha, professional malaka har bir kadrning xizmat vazifalarini bajarish imkoniyatini ta’minlovchi malakaviy bilimdonlik, kasbiy tashabbuskorlik va mahoratni o‘zida mujassamlashtirgan integrativ qobiliyatdir.[5]

Mutaxassisda professionalizm ko‘rinishlari zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilim va qobiliyati, mohirlik va ko‘nikma mavjudligi bilan izohlanadi. Professionalizm maxsus fanlar uslubiyatlaridan foydalanib murakkab vazifa va muammolarni yechishda, ular mazmunini tasvirlashda namoyon bo‘ladi. Professional psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis faoliyati, shaxsiy-ijodiy jarayon sifatida, kasbiy mahorat esa

[4] Платонов Ю.П. Профессиональное обучение и отбор операторов // Войсковой вестник. – Москва, 2000. – №11. – С. 53.

[5] Платонов Ю.П. Профессиональное обучение и отбор операторов // Войсковой вестник. – Москва, 2000. – №11. – С. 51.

ijodiy xarakterga ega, ijtimoiy-siyosiy natijaga erishish uchun yo‘naltirilgan faoliyatning samarali darajasidir.

Kasb sohalarida professional mahoratni tahlil qilishda maxsus bilim, mahorat, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsning kasbiy sifatlari tizimiga e’tibor berish lozim. Muhim kasbiy bilimlarni, mohirlik va ko‘nikmalarni egallamay, hech qachon professionalizm shakllanmaydi.[6]

Mahorat tushunchasi alohida mohirlikka tegishli emas. U turli darajadagi faoliyatlarni mujassamlashtiruvchi mohirlik majmuasiga tegishli. Mahoratning yuksak ko‘rinishi psixolog (amaliy psixolog) mutaxassisni o‘z kasbiga ijodiy yondashuv hisoblanadi.

Professionalizm murakkab muammolarni yechish usullaridan tashqari, natijalarini tahlil etish, sabablarni tashxis qilish, faoliyatni takomillashtirish kabi usullarda kasbning mutaxassis shaxsi va imkoniyatiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi. Shaxsning kasbiy ta’lim olish jarayonida professionalizmga asos solinadi.

Xulosa qilib aytganda, yurtning kelajagi, uni intellektual kadrlar bilan boyitish, innovatsion va global darajadagi ilmiy loyiha va tadqiqotlarni amalga oshiruvchi mutaxassislarning miqdori va sifati keskin ortishi, dunyoga raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berishda ta’limda psixolog (amaliy psixolog) mutaxassis roli beqiyos bo‘lib, bugungi kunda ularnig kasbiy klassifikatorini zamon talabiga muvofiqlashtirish va professiogrammasini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishning samarali vositalarini yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Психология и педагогика. Военная психология: Учебник для вузов. / Под ред. А.Г.Маклакова. – СПб.: Питер, 2005. – С. 464.*
2. *2. Лоусон Т., Гэррод Д. Социология. А–Я: Словарь–справочник. / Пер. с англ. К.С. Ткаченко. – М.: ФАИР–ПРЕСС, 2000. – С. 608.*
3. *Клочко Н.Ю. Профессионализм и ценностные ориентации. http: // nostalgia. ncstu.ru / content /_ docs /pdf/conf/ past / 2002 / skgti 2 /philos / 05.*
4. *Климов Е.А. Образ мира в разнотипных профессиях // Войсковой вестник. – Москва, 2003. – №6. – С. 72.*
5. *Сластенин В.А., Каширин В.П. Психология и педагогика: Учеб.пособие для студ. Высш. Учеб. Заведений. – М.: Издательский центр Академия, 2001. – С. 480.*
6. *Платонов Ю.П. Профессиональное обучение и отбор операторов // Войсковой вестник. – Москва, 2000. – №11. – С. 53.*
7. *Платонов Ю.П. Профессиональное обучение и отбор операторов // Войсковой вестник. – Москва, 2000. – №11. – С. 51.*
8. *Деркач А.А. Формировние и развитие профессионального мастерство руководящих кадров. – М.: Луч, 1993. – С. 10.*

[6] Деркач А.А. Формировние и развитие профессионального мастерство руководящих кадров. – М.: Луч, 1993. – С. 10.

Shoira ABDIJALILOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika insituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi dotsenti
Xurshida KADIROVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika insituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi o‘qituvchisi
Aziza KADIROVA,
Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY DUNYOQARASHNI VA MEHNATSEVARLIKNI SHAKLLANTIRISHDA KLASTER YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy dunyoqarashni shakllantirish, mehnat tarbiyasi muammosini va bu boradagi qator omillarni, ma’naviy-axloqiy holatni o‘rganish asosida tarbiyaviy imkoniyatlaridan unumli foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Azaliy urf-odat, marosim, an’anaviy ertaklar, maqollar, matallar, topishmoq, mehnatsevarlik, mohoratlilik, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik.

В статье освещены вопросы формирования у будущих учителей национального мировоззрения, эффективного использования их воспитательных возможностей на основе изучения проблем трудового воспитания и ряда факторов, духовно-нравственного состояния.

Ключевые слова. Древние обычаи, обряды, традиционные сказки, пословицы, маталы, загадки, трудолюбие, мастерство, политические, правовые, нравственные, эстетические.

The article highlights the issues of forming the national Outlook of future teachers, effective use of their educational opportunities based on the study of labor education problems and a number of factors, spiritual and moral state.

Key words. Ancient customs, rituals, traditions tales, proverbs, matals, riddles, hard work, skill, political, legal, moral, aesthetic.

Xalq pedagogikasi boy ma’naviy merosimizni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning qonun-qoida, tamoyillari va metodlari bilan shug‘ullanadi. Xalq og‘zaki ijodining barkamol avlod tarbiyasida tutgan o‘rnining nazariy va tarixiy asoslari haqida professor Z. Mirtursunova ilmiy ish olib borgan. Tarbiyaviy ishlarning ta’sirchanligi, samaradorligi ko‘p jihatdan xalqimizning boy milliy, ma’naviy merosining tarixiy ildizlarini o‘rganishga bog‘liq.

Har bir xalqning ijtimoiy-ma’naviy hayotida azaliy urf-odat, marosim, an’ana tarzida o‘ziga xos qadriyat meros sifatida namoyon bo‘lib, avloddan-avlodga yetib keladi. Madaniy-insonparvar yondashuv – bu milliy va umuminsoniy madaniyatlarning tarkibiy qismlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettiruvchi muvaffaqiyatli ravishda kasbni egallash va

mutaxassisning ijtimoiylashuviga imkon beruvchi, qadiriyatli-madaniy fikriy faoliyat sifatida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlar tizimini yaratishdir.

Madaniy-insonparvarlik yondashuvi shaxsning har tomonlama rivojlanishi sharti sifatidagi insonning turli ko‘rinishdagi madaniyatlarini egallashida mujassam bo‘ladigan shaxs madaniyatini boyituvchi g‘oyalar bilan bog‘liq. Bunday g‘oyalar huquqiy, mehnat, axloqiy, oila, iqtisodiy, ekologik, estetik va badiiy madaniyatda o‘z aksini topadi. Madaniyatining butun tayyorlov, emotsional va faoliyat darajasi individning o‘z hayotini o‘zgartirishi, modellashtirish, korreksiyalash, o‘zini-o‘zi realizatsiyalash, baholash asosidagi ijodkorlik ruhida tashkil etishi tushunchasida aks etuvchi shaxsning hayotiy maqsadini o‘zi mustaqil qo‘ya olishi, o‘z faoliyati sohasi va metodlarini taniy olishi orqaligina ro‘yobga chiqishi mumkin.

Ta’limga ma’daniy-insonparvar yondashuv talabaning ijodkorligi keng ko‘lamdagi mustaqil faoliyati madaniyat bilan uyg‘unlashgan bilishdan, ijodkorlik ruhidagi kasbiy ijtimoiylashuvgacha bo‘lgan asosdagi madaniyatga oshno etish yo‘li bilan ta’limni tashkil etishdir.

Xalq milliy an’analari shakllanishida ijtimoiy bog‘lanishlar yetakchi rol o‘ynaydi. Ular empirik ravishda topilgan, amaliyotda tekshirilgan faoliyat va xatti-harakat usulini keyingi avlodga yetkazish zaruriyati tug‘ilgandagina vujudga keladi. An’analar yangi avlodni ijtimoiy muhitga “bog‘lanish” vazifasini bajaradi, shaxs muayyan yo‘nalishda kamol topadi.

An’analar ijtimoiy tajriba to‘plashining mahsuli bo‘lib, shaxs uchun ijtimoiy maqsadlarga va qadriyatlar tizimi sifatida xizmat qiladi. Ana shu jihatdan an’analardagi qadriyatlarni ta’lim olayotgan shaxsning mustahkam e’tiqodga aylantirish masalasi muhim muammolardan biridir. Shunga ko‘ra, an’analarning asosini tashkil etgan g‘oyalar, ideallar yosh avlod shaxsida mujassamlanishi lozim.

Shu nuqtai nazardan an’analarning marosim shakli orqali rasm-rusumlar, urf-odatlar, bayramlar vositasida anglashiladigan hissiy ta’siri katta ahamiyatga ega. Bularning hammasi ko‘rsatmali-hissiy tadbirlar sifatida an’analar tuzilishiga tarkibiy ravishda kirib, ulardan g‘oyalar va tushunchalarni muayyanlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi o‘quvchilar xalq milliy an’analarning ko‘rsatmali gavdalanish orqali ulardan g‘oyalar va tushunchalarni muayyanlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar xalq milliy an’analarning ko‘rsatmali gavdalanishi orqali ulardagi g‘oyalar mohiyatini chuqurroq o‘zlashtiradilar.

Bahor kelishi bilan boshlanadigan qishloq xo‘jalik ishlariga bog‘liq marosim va odatlar (“Navro‘z”, “Boychechak”, “Lola sayli”, “Birinchi ariq ochish”, “Gul bayrami” va h.k.lar), shuningdek, hunarmand va kosiblar mehnatining xususiyatlariga ko‘ra o‘tkaziladigan tadbirlar o‘zbek bolalarida mehnatsevarlikni tarbiyalashining yorqin dalilidir.

Mavsumiy ishlarning boshlanishi va tugallanishiga bag‘ishlangan juda ko‘p marosim hamda udumlarda xalq milliy an’analari g‘oyasi yaqqol emotsional shaklda ifodalanadi va shu bilan tarbiyaviy samaraga erishiladi. Marosimda ijro etiladigan raqslar, musiqalar, qo‘shiqlar, teatrlashtirilgan chiqishlar o‘quvchi-yoshlarning hissiyotiga kuchli estetik ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, an’analar avloddan-avlodga o‘tadigan mehnat tarbiyasining tarixan vujudga kelgan, jamiyat hayotida, g‘oyalarda, me’yorlarda, marosimlar va urf-odatlarda mustahkamlangan ijtimoiy tajribasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalq pedagogikasidagi xalq milliy an’analari deganda, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda tarixan shakllangan va xalq og‘zaki ijodi (ertaklar, maqollar, matallar, topishmoq va h.k.lar) orqali avloddan-avlodga o‘tib kelgan tarbiyaviy tajribalarni, g‘oyalarni, vositalar, shakl va metodlarni tushunamiz.

O‘zbek xalqining asosiy xo‘jalik faoliyati asrlar mobaynida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikdan iborat bo‘lgan. Shuning uchun xalq milliy an’analarining ko‘pchiligi qishloq xo‘jalik mehnati asosida shakllangan. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda hunarmandchilik ishlab chiqarishi ham muhim o‘rin tutgan. Ular faqat mehnat tarbiyasining mazmuni va maqsadini belgilab qolmagan, balki xalq mehnat tarbiyasi tizimi, vositalari, shakl va metodlarining tarkib topishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatganki, bizningcha, uni puxta o‘ylab, ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish kerak.

Mehnat tarbiyasi tarixiy o‘tmishda mavjud hayotiy ehtiyojlarda “sog‘lom fikrlash” deb ataladigan bilimlarni amaliy ravishda egallashga asoslangan yaxlit tizimdan iborat bo‘lgan. Shu yaxlit tizim idealga erishishning muayyan prinsiplari hamda vositalariga ega.

Xalq pedagogikasida yosh avlodni mehnatkash qilib tarbiyalash, hayot bilan bog‘lanish, izchillik va muntazamlik, bolaga insonparvarlik munosabatida bo‘lish, oqilona talabchanlik, yosh xususiyatlarini hisobga olishdan iborat.

Oila, jamoatchillik, tengdoshlar jamoasi, kattalar mehnat jamoalari mehnat tarbiyasi tizimining muhim omillari hisoblangan. Xalq milliy an’analariga muvofiq oila dastlabki jamoa bo‘lib, unda bola axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirgan, ma’lum mehnat ko‘nikma va malakalarni egallagan. Ota-onalar, bobo-buvilar, aka-opalar bolalarning doimiy ustozlari bo‘lgan.

Odatda, oilaga bolalarni tarbiyalash, mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash bo‘yicha katta mas'uliyat yuklangan. Agar bola yalqovlik qilsa, hamqishloqlari faqat uning o‘zini koyish bilan cheklanmay, ota-onasiga ham qattiq tanbeh berganlar. Xalq orasida “Erkalasa onasi, taltayadi bolasi” degan naql bo‘lib, unda ishyoqmas, dangasa bolalar nazarda tutilgan. Kimki yaxshi, tez va unumli ishlasa, hurmatlangan, boshqalarga ibrat qilib ko‘rsatilgan, ota-onasiga rahmat aytilgan. Shunday qilib, jamoatchilik fikri xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasining muhim omili hisoblangan.[1]

Farzandning mehnatga psixologik jihatdan tayyorlanishi unda ma’naviy qadriyatlar shakllanishi asosida qaror topgan. Odatda, ushbu jarayon ona allasidan boshlangan. Ona farzandiga atab turli xalq milliy an’analariga bag‘ishlangan qo‘shiqlarni kuylagan. Bolasini uy-ro‘zg‘or ishlari bilan tanishtirgan. Bundan tashqari, xalq og‘zaki ijodida bolani kattalar bilan muloqotga o‘rganish shakllari ham mavjud bo‘lib, ular bunday tadbirlarning hammasi bolaning mehnat jarayonlarini tushunib olishga qaratilgan va unda mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik hamda maqsadga intilish kabi sifatlar tarkib topishi uchun mustahkam poydevorni vujudga keltirgan.

O‘zbek xalqi qishloq xo‘jalik, hunarmandchilik va uy-ro‘zg‘or mehnati to‘g‘risida bolalarga mo‘ljallangan juda ko‘p raqs-qo‘shiqlar yaratgan. Qo‘shiqlar ohangi, ritm, so‘z va harakatlarga tarkiban moslashgan bo‘lib, ularda urug‘ sepish, ekinga ishlov berish, dala va polizdagi hosillarni yig‘ishtirish harakatlari, shuningdek, hunarmand kosiblar va xalq ustalari mehnatining xususiyatlari ifodalanadi.

Bola nutqi va xotirasini rivojlantirishda, unda mehnatkash inson fe’l-atvorini, mehnatsevarlikni shakllantirishda quyidagilar katta yordam bergan:

[1] Mutalipova M.Sh. Xalq pedagogikasi. – T., 2015. –39 b

– mehnatkash insongina yuksak axloqli bo‘la olishi mumkinligini ifodalaydigan o‘zbek xalq ertaklari;

– donishmandligi va hayotiy tajribasini aks ettiradigan maqollar va hikmatli so‘zlar;

– qishloq xo‘jalik kalendari, ob-havoni kuzatish tushunarli shaklda yoritiladi, aqliy mehnat ahamiyati bayon qilinadi;

– bola shaxsi analitik-sintetik faoliyatini rag‘batlantiriradigan, qishloq xo‘jalik mehnati jarayonini, uy-ro‘zg‘or ishlarini, ishlab chiqarish qurollarini, oziq-ovqat mahsulotlarini aks ettiradigan topishmoqlar.[2]



Mehnat bayramlari va marosimlari har doim yosh avlodning mehnatiga psixologik jihatdan tayyorlanishi jarayonida amaliy vosita bo‘lgan. Ular shaxs bilan jamiyat o‘zaro munosabatlarini amalga oshiruvchi omillaridan biri sifatida shaxs ijtimoiy faolligini oshirgan. Mehnat bayramlari va marosimlari tarbiyaviy vazifadan tashqari, millat rivojlanishining barcha tarixiy davrlarida an’anaviy ehtiyojlarini qondirishdan iborat doimiy va zarur vazifani ham bajargan. O‘tkazgan tadqiqotdan ma’lum bo‘lishicha, milliy mehnat bayramlari va marosimlari:

1. mehnatning inson hayotidagi ahamiyatini yoritgan;

2. mehnatkash inson shaxsini shakllantirgan, ular mehnatga hurmatni tarbiyalangan;

3. shaxs ijtimoiy faolligini oshirgan.

Xalq milliy bayramlari va marosimlari jumlasiga eng avval qishloq xo‘jalik ishlarining muayyan turkumiga to‘g‘ri keladigan, shuningdek, milliy hunarmandchilik ishlab chiqarishi (kulolchilik, o‘ymakorlik, gilamdo‘zlik, kashtaso‘zlik va h.k.lar) bilan bog‘liq

[2] Mutalipova M.Sh. Xalq pedagogikasi. – T., 2011. – 46 b

bayram hamda marosimlar kiradi. Mehnat bayramlari va an’anaviy marosimlarning ko‘pi yangi yilni, bahorni kutish va hosilni yig‘ish bilan bog‘liq.

Masalan, axloqiy va amaliy xatti-harakatlar bo‘yicha o‘tkazilgan marosimlar, jumladan, “Navro‘z” bayrami milliy marosim sifatida alohida mazmunga ega bo‘lib, dehqonlar mehnati boshlanganini nishonlash, mo‘l hosil olish va oilaga muvaffaqiyat tilash istagini anglatgan.

Mehnat mavzusi, qishloq xo‘jalik va hunarmandchilik ishlari bolalar o‘yinlarida o‘z aksini topgan.[3]

Xalq milliy bayramlari hosilni yig‘ib-terib olishga bog‘liq. Qishloq xo‘jalik turmushida hosilni yig‘ib-terib olish hayotiy faoliyat pallasi hisoblanib, nihoyatda qadrlangan va u kishilarning bandligi (hatto, kichik bolalar ham hosilni yig‘ib-teribda qatnashishi) bilan ajralib turgan. Masalan, o‘rin, paxta terish, tomorqadagi ekinlar hosilini yig‘ish paytlarida mehnatsevarlik, mahoratlilik va maqsadga intilish kabi fazilatlar yuksak baholangan. Shunday fazilatlarni namoyish etgan kishilar bayram vaqtida alohida hurmatlangan, hamqishloqlari nazarida obro‘ qozongan.

Oilaning yana bir vazifasi bolalarda nonga hurmat bilan qarashni, uning muqaddasligi haqidagi tushunchani tarkib toptirishdan iborat bo‘lgan. Non to‘g‘risida yomon gap aytish gunoh hisoblangan. Shuning uchun ham xalq orasida nonni e’zozlash odati vujudga kelgan va kishilar yerda yotgan kichkinagina non ushog‘ini ko‘rishlari bilanoq uni o‘pib chetga qo‘yishlari bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston,” 2017. –592 b

2. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. – T., 2008. –56 b

3. Mutalipova M.Sh. Xalq pedagogikasi. – T., 2015. –39 b

4. Mutalipova M.Sh. Xalq pedagogikasi. – T., 2011. – 46 b

5. Xasanboyeva O., Shomaribxo‘jayeva G., Egamnazarova Sh., Qayumova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T., 2014. – 67 b

[3] Xasanboyeva O., Shomaribxo‘jayeva G., Egamnazarova Sh., Qayumova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T., 2014. – 67 b

Akram O‘TAYEV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi

BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLARNING SIYOSIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY-TARIXIY MEROSLAR BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak pedagog kadrlarni siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlari bilan tanishtirishda xalqimizning boy ma’naviy merosining tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, muallif siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlarini o‘rganishda ma’naviy merosimizning ahamiyatini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Siyosat, madaniyat, g‘oya, davlat, tarix, o‘qituvchi, meros, shaxs, jamiyat, qarash, tarbiya, bilim, kasb, ko‘nikma.

В статье рассматривается роль богатого духовного наследия нашего народа в ознакомлении будущих педагогических кадров с социально-историческими корнями политической культуры. Также автор отметил важность нашего духовного наследия в изучении социально-исторических корней политической культуры.

Ключевые слова. Политика, культура, идея, государство, история, учитель, наследие, личность, общество, отношение, воспитание, знания, профессия, мастерство.

The article considers the role of the rich spiritual heritage of our people in familiarizing future teaching staff with the socio-historical roots of political culture. The author also noted the importance of our spiritual heritage in studying the socio-historical roots of political culture.

Key words. Politics, culture, idea, state, history, teacher, heritage, personality, society, attitude, education, knowledge, profession, skill.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogika sohasida ta’limni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “Innovatsion fikrlovchi va faol pedagog kadrlar tayyorlash” vazifasi asosiy masala sifatida qo‘yildi.[1] Shu jihatdan bo‘lajak pedagoglarning yuksak siyosiy ong, siyosiy bilim, siyosiy faollik va siyosiy bilimning jamlanmasi bo‘lgan siyosiy madaniyatli bo‘lishni taqozo etadi.

Bularning barchasi oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagoglar siyosiy madaniyatini birlamchi manbalar asosida shakllantirish, siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Chunki siyosiy madaniyatimizning ijtimoiy-tarixiy ildizlarini o‘rganish va ularni yoshlar ongiga singdirish muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayon quyidagilar bilan bog‘liq:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.// 2020-yil. 27-fevral.

− siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlari, uning shakllanish asoslari va tarbiyaviy vazifalarini bo‘lajak pedagog kadrlarga tushuntirish;

− talabalarning siyosiy madaniyatdan xabardor bo‘lishlarining zaruriyligi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash;

− talabalarni siyosiy jihatdan tarbiyalashda ijtimoiylik, tarixiylik va ma’rifiylik tamoyillariga tayanish;

− talabalarda siyosiy tarbiyaning pedagogik asoslarini to‘liq idrok qilib olish imkoniyatini yaratish.

O‘zbekistonda siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlari keng ko‘lamligi va boyligi bilan e’tiborga molik. Chunki siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizi xalqimizning tarixan milliy davlatchilik sharoitida yashab kelayotgani bilan bog‘liq. Uch ming yetti yuz yildan ortiq davlatchilik tariximiz bor.[2] Bunda yurtimiz tammadduni va tadrijida davlat tuzish va uni boshqarish, jamiyatni uyushtirish, fuqarolarni tarbiyalash va xalq farovonligini ta’minlash uchun o‘z davriga xos bo‘lgan g‘oyalarga tayanilgan. Shu jihatdan ham bo‘lajak pedagoglarga quyidagilar bo‘yicha to‘liq ma’lumot berilishi kerak:

1. xalqimizning o‘troq yashab kelayotganligi, o‘ziga xos turmush tarziga egaligi va davlatchilikka asos bo‘lgan jamoaviylikning ustuvor darajada tarkib topganligi;

2. jamoaviy hayot shaxs tarbiyasi, jamiyat maqsadlari va davlat istiqboli muammolarini muayyan yagona g‘oya asosida hal etganligi;

3. yorug‘ kelajakka asoslangan milliy davlatchilik sharoiti shaharsozlikni yuzaga keltirganligi va unda odamlarning demokratik tarzda har xil ijtimoiy toifalarga bo‘linib yashab kelayotganligi;

4. milliy davlatchilikning turli davrlarida siyosiy madaniyatning turli ko‘rinishlari, shakllari bo‘lganligi va uning xalq ma’naviyati tadrijida muhim rol o‘ynaganligi va h.k.

Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Pedagogika tarixi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Xalq pedagogikasi” kabi fanlar mashg‘ulotlariga e’tibor berish zarur. Chunonchi, qadimgi milliy davlatlarimizdan biri bo‘lgan O‘g‘uzxonning (e.a. XIII asr) markazlashgan davlatida qabilalarning birlashishi (yagona xalq bo‘lish) bo‘lgan, shu asosda qabilalarni birlashtirish, jamiyatni uyushgan holda taraqqiy ettirilishi asosiy maqsad sifatida qabul qilingan. Amir Temurning (1336-1404) mo‘g‘ullar istilosini tugatishida, mustaqillik yillarida birlashish g‘oyasi birlamchi bo‘lganligi bo‘lajak pedagog kadrlarni siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlari bilan tanishtirib borish imkoniyatini beradi.

Shu ma’noda siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlarini o‘rganish xalqimiz ma’naviy madaniyatini, turmush-tarzi va hayotini bilish, milliy o‘zlikni anglash va avlodlar vorisiyligini ta’minlash, yuksak ideallarga intilish, o‘zgalar manfaatlarini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish va yomonlikka bardosh berish, sog‘lom dunyoqarash, yuksak axloq va foydali amaliyotni birlamchi bilishni o‘zlashtirish jarayonlari bilan kechadi.

Siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlarini o‘rganishda ma’naviy merosimiz alohida o‘rin tutadi. Shu ma’noda biz ma’naviy merosimizni shartli ravishda qadimgi davr (“Avesto” davridan VIII asrgacha), o‘rta asrlar davri (VII-XIX asrlar), yangi davr (XX asrdan boshlab)larga bo‘lib o‘rganish tarafdorimiz. Chunki birinchi davrda yaratilgan ma’naviy merosda dunyoviylik xususiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Avesto”dan kelib chiqadigan bo‘lsak, bu davrda ezgulik va uning yovuzlikka qarshi kurashish siyosiy dunyoqarashning o‘ziga xos shakli bo‘lgan.[3] Unga ko‘ra, shaxs, jamiyat va davlat hayotida

[2] “Avesto” ma’naviyatimiz sarchashmasi. –T.: Adolat, 2001.

[3] Alisher Navoiy. Xamsa. –T.: Fan, 1960.

ezgulik hayotbaxsh beruvchi g‘oya, ideal, omil va qadriyat hisoblanadi; aksincha, yovuzlik inqirozga olib boruvchi soxta g‘oyalar, intilishlar va omillardir.

Shu sababli shaxs ongi va axloqida, jamiyat va davlat hayotida ezgulik va yovuzlik kurashi davom etadi. Ammo shaxs 15 yoshida ezgulik va yovuzlikni farqlab balog‘atga yetishi, bu bilan siyosiy yetuklik sifatiga ega bo‘lishi kerak. Diqqat qilinsa, “Avesto”da ezgulik siyosiy faollik shakli sifatida targ‘ib qilingan va u dunyoviy ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan. Ikkinchi davrga diniy-ma’rifiylik xos bo‘lib, unda e’tiqodlik umumiy g‘oya sifatida namoyon bo‘lgan.[4]

E’tiqod shaxs, jamiyat va davlat hayotida diniy va dunyoviy jihatdan uyg‘un holda ehtiyojlarni qondiruvchi omildir, shu sababli o‘rta asrlarda yaratilgan ma’naviy merosimizda ma’rifiy xususiyat bo‘rtib turadi. Chunonchi, bu davrdagi sarkardalarimizdan Amir Temurning (1336-1405) faoliyati, siyosiy qarashlari va tarbiyaga oid fikrlarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Amir Temur ham yurtni mo‘g‘ullar istilosidan ozod qildi, yangi davlat va jamiyat barpo etdi. U jamiyatda murosa-yu madora siyosatiga asoslangan hozirgi terminologiyada “Kompromis-kelishuv” deb ataladigan bu g‘oya istilodan ozodlikka chiqqan jamiyat uchun kislorod vazifasini bajaradi va uning mohiyati “muxolifni do‘stga aylantirish va do‘st-u dushman bilan muomala qilishdan iborat”.[5] Savol tug‘iladi: do‘stga murosa-yu madorali bo‘lish tushunarli, lekin dushmanga nisbatan u qanday bo‘ladi? Dushmanni sabr-toqat bilan g‘oyaviy yengish – unga bo‘lgan murosa-yu madordir. Bu Amir Temurning davlat boshqaruvi va tarbiya borasida qanchalik zukko bo‘lganligini ko‘rsatadi. Negaki, murosa-yu madora siyosati jamiyatda qarama-qarshi kuchlarni kelishish asosida birlashtiradi, asosiy masala bu yo‘lni kerakli vaqtda tanlay bilish va amaliyotga tatbiq eta olishdadir. Albatta, Amir Temurga bu masalada o‘z davrining ziyolilari nazariy jihatdan yordam bergan, misol uchun uning o‘zi tasavvuf olimi Abu Bakr Toyobodiy (XIV asr) xizmatini alohida ta’kidlab o‘tadi. Zero, Amir Temurdek shaxsning murosa-yu madora siyosatiga qat’iy amal qilganligi va o‘zgalarni ham shunga da’vat qilganligi hayratli masaladir. Hatto u muxoliflarni “davlatimga sherik bo‘lasizlar” deb do‘stga aylantirgan.[6]

Murosa-yu madora siyosatiga amal qilishda turli tavsiya va takliflarni eshitishga to‘g‘ri keladi. Bunday vaziyatlarda Amir Temur quyidagicha yo‘l tutganligini o‘zi qayd etadi: “Oldimizdagi ishlarning yaxshi-yomon, foyda va ziyon tomonlari, ularni qilish-qilmaslik to‘g‘risida zukkolardan fikr so‘rar edim. Ularning so‘zlarini eshitgach, ishning har ikki tomonini mushohada qilib ko‘nglimdan kechirardim, ko‘proq xatarli tomonlariga e’tibor qaratar edim; qaysi bir ishda ikki xatar bo‘lsa, undan voz kechar edim va bir xatar bo‘lsa uni amalga oshirishdan qaytmasdim”. Shu ma’noda murosa-yu siyosati temuriylar davlatini eng qudratli davlatga aylantirdi.

Tahlil qilinayotgan masala bo‘yicha Alisher Navoiy (1441-1501) ilgari surgan siyosiy faoliyat va bu faoliyatning temuriy shahzoda Husayn Boyqaro (1438-1505) tomonidan siyosiy faoliyatini ijobiy qabul qilinganligi ham diqqatni tortadi. Alisher Navoiy o‘zining siyosiy faoliyatida turkiy xalqlar birlashishini xohlaydi (“Lison ut-tayr”), butun ijodi va siyosiy faoliyatini ilmiy, badiiy hamda amaliy asoslashga bag‘ishladi. Uning fikricha, ona tili, Vatan, komillik va davlatchilik eng asosiy va ideal tushunchalar hisoblanadi. Zero, Navoiy ijodida o‘z ifodasini siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlari yana quyidagilarda ko‘rinadi:

[4] Alisher Navoiy. Xamsa. –T.: Fan, 1960.
[5] “Avesto” ma’naviyatimiz sarchashmasi. –T.: Adolat, 2001.
[6] Amir Temur. Temur tuzuklari. –T.: Fan va texnologiya, 2014.

Birinchidan, Navoiy shaxsning yoshlikdan bilim va kasb egallashini siyosiy yetuklikning negizlaridan deb bilgan. Buning yorqin misolini “Farhod va Shirin” dostonida yaratilgan Farhod obrazida ko‘ramiz. Unga ko‘ra, Farhod egallamagan bilim va kasb qolmaydi. Shu ma’noda Farhodda Navoiyning yoshligini tasavvur qilamiz. Chunki Navoiyning 8-9 yoshida Fariduddin Attorning (vafoti 1221) “Mantiq ut-tayr” dostonini yod olgani va 12 yoshida mashhur shoir Lutfiyni (vafoti 1472) o‘z iste’dodi bilan qoyil qoldirgani tarixiy fakt.

Ikkinchidan, Navoiy adolatni siyosiy yetuklikning asosiy tamoyili sifatida tushungan. Buni “Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar obrazida ko‘ramiz. Unga ko‘ra, Iskandar G‘arbu Sharqda adolat o‘rnatadi, yovuzlik va zo‘ravonlikka qarshi devor quradi, ya’ni jaholatga to‘siq qo‘yadi. Qolaversa, Navoiyning o‘zi vazir va amir sifatida faoliyat yuritganida adolatga qat’iy rioya qilganligi ma’lum.

Uchinchidan, Navoiy siyosiy faollikning samarasini bunyodkorlikda ko‘rgan. Xondamirning (XV) “Makorim ul-axloq” asarida yozishicha, u o‘nlab madrasalar (ta’lim muassasalari), shifoxonalar, xonaqohlar (ibodat joylari), yo‘llar, ko‘priklar, maqbaralar qurgan va bog‘lar yaratgan. U shu tariqa mamlakatni rivojlantirishga va obodonlashtirishga o‘z hissasini qo‘shgan. Zero, VII-XIX asrlarda yaratilgan ma’naviy merosimizda milliy davlatchiligimizning o‘ziga xos shakllari va ko‘rinishlari mutafakkirlarimiz ijodida kerakli darajada ifodalangan.

Yangi davrga esa ijtimoiylik va ilmiylik xos xususiyat bo‘lib, unda milliy va siyosiy jihatdan uyg‘onish ko‘rinishi tarzida mavjud. Bu davrlarda yaratilgan ilmiy, badiiy, nazariy, ma’rifiy, falsafiy, pedagogik va ijtimoiy asarlar butun bir galereyani tashkil qiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat kabi jadid ma’rifatparvarlari siyosiy madaniyatning asosiy tushunchalariga kiruvchi “milliy uyg‘onish”, “milliy istiqlol”, “milliy ta’lim”, “milliy tarbiya”, “millat”, “zamona ilmi”, “ijtimoiyat”, “Vatan”, “ozodlik”, “savod” kabi yuzlab qadriyatlarga shaxs va jamiyatni da’vat etadilar. Chunonchi, Abdurauf Fitrat “Rahbari najot” asarida siyosiy faollikning ildizlaridan biri sifatida uch narsani ko‘rsatadi:

1) ozodlik;
2) bilim;
3) ijtimoiylik.

Uning fikricha, ozodlik inson uchun non kabi azizdir, bilim uning “ko‘rar va ravshan ko‘zi”, ijtimoiylik esa umr mazmuni. Fitratning bu yondashuvida jadid ma’rifatparvarlarining siyosiy faolliklariga doir qarashlari umumlashma tarzida ifodalangan. Shuningdek, Fitrat diniy va dinlararo bag‘rikenglik tushunchalarini farqlab ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, “diniy bag‘rikenglik” – bu bir dinda bag‘rikeng bo‘lish, “dinlararo bag‘rikenglik” esa bir jamiyatda mavjud bo‘lgan ko‘p dinlar o‘rtasidagi bag‘rikenglikdir. Bu yondashuv siyosiy madaniyatning “dinlararo bag‘rikenglik” tamoyilining muhim ildizlaridan hisoblanadi.

Shu ma’noda mutafakkirlarimizning hayoti va faoliyati siyosiy madaniyatning inson va jamiyat uchun nechog‘li ahamiyatga egaligi masalasida namuna bo‘ladi. Zero, siyosiy madaniyat asosida milliy-ijtimoiy tafakkurning butun dunyoda mashhur nodir namunalari, buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosi, diniy va ilmiy qarashlari, progressiv aholi qatlamlarining dunyoqarashi, xalq orasida keng tarqalgan ezgulik va adolat g‘oyalari, sof ko‘ngillik va olijanoblik, halollik, jasorat, ma’naviy va jismoniy barkamollik kabilarni talaba-yoshlar ongiga yetkazish, ularning siyosiy bilimlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlari uni bo‘lajak pedagoglar ongiga singdirishda muayyan tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi. Bunday tamoyillardan biri keng xalq ommasining manfaatlarini himoya qilishdir. Chunki siyosiy madaniyat o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan birga, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning, ya’ni butun xalqimizning umumiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Siyosiy madaniyat tamoyillaridan yana biri bu o‘zlikni anglashdir. Chunki siyosiy madaniyatning asosiy tayanch nuqtasi ham ijtimoiy darajada siyosiy faollik orqali o‘zlikni anglata olishidadir. O‘zlikni anglash bu xalqni uyg‘otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuch bo‘lib, uning negizida “bu – bizniki” degan egalik hissi yotadi. Sharq va G‘arb, Osiyo va Yevropa xalqlari hayotida ham o‘zlikni anglash tuyg‘usining uyg‘onishi, pirovardida, ularning yuksalishiga, birlashishiga, boshqa xalqlar bilan munosobatga kirishishiga turtki bo‘lgan. Shunday ekan, o‘zlikni anglash uchun siyosiy madaniyatning ijtimoiy-tarixiy ildizlarini chuqur bilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. // 2020-yil 27-fevral.

2. Alisher Navoiy. Xamsa. – T.: Fan, 1960.

3. “Avesto” ma’naviyatimiz sarchashmasi. – T.: Adolat, 2001.

4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: Fan va texnologiya, 2014.

5. A.Fitrat. Najot yo‘li. – T.: “Sharq” NMAK, 2002.

Xol XUDOYQULOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti professori, p.f.d.
Fotima JUMANOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va menejment" kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM OLUVCHILAR ONGIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada o'quv faoliyati davomida o'quvchilar ongiga ta'sir etuvchi, globallashuv jarayonidagi zamonaviy axborot, informatsion texnologiyalarni ta'lim tizimida va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarda qo'llanilishi, uning yutuqlari va o'ziga xos kamchiliklari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mazkur texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning optimal shart-sharoitlarini o'rganish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. Globallashuv, informatsiya, xakerlik, virtual olam, telekommunikatsiyalar, axborot resurslari, mafkuraviy xurujlar, axborot madaniyati, radio, televidenie.

Суть данной статьи заключается в том, чтобы включить современные информационные, технологические, образовательные системы в процесс глобализации, который влияет на сознание студентов в процессе их учебной деятельности. Помимо проблем, связанных с выявлением и устранением негативного воздействия информационных технологий на личность студентов, им показано, как исследовать оптимальные условия использования этих технологий в процессе обучения.

Ключевые слова. Глобализация, информация, взлом, виртуальный мир, телекоммуникации, информационные ресурсы, беречь от пропаганды насилия, информационная культура, радио, телевидение.

The essence of this article is to include the modern information, information technology, education systems in the process of globalization, which affects the minds of the students during their academic activities. In addition to the problems associated with identifying and eliminating the negative effects of information technology on the students personality, they are shown how to explore the optimal conditions for using these technologies in the learning process.

Key words. Globalization, information, hacking, virtual world, telecommunication, information technology, information resources, the media, stupidity, avoid violence, information culture, radio, television.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi turli zarurlari mavjud. Bu, birinchi navbatda, o'quv faoliyati doirasiga o'quvchilarning axborot texnologiyalari bilan bevosita muloqotga kirishishi bilan bog'liq. Bugungi kunda virtual olam texnologiyalari asosida tayyorlangan kompyuter o'yinlari va atraksionlarni ham unutmaslik lozim. Hatto kompyuter bilan bog'liq bo'lmagan holda ham insonlar uyali telefon, animatsion filmlar, kredit

kartochkalari, plastik kartochkalardan foydalanish orqali kompyuterlar bilan o‘zi bilmagan vaziyatlarda muloqotga kirishadi. Qolaversa, o‘qituvchilarning o‘zlari ham axborot texnologiyalari bilan yaqindan muloqot qilishlari ularning ta’sirini kengroq bo‘lishiga yo‘l ochishadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanar ekan, o‘qituvchilar quyidagi holatlarga alohida e’tibor berishlari zarur.

Birinchidan, axborot texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo‘lgan yangiliklar an’anaviy muloqot sharoitlariga olib o‘tiladi. O‘tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlar masalalarning aniqlikligiga, mantiqiyligiga, ketma-ketliligi hamda refleksivligiga talablarning ortishi kuzatiladi. Bu yerda ruhiy muloqot vositalarining roli pasayadi.

Ikkinchidan, teskari aloqa kuchayadi. An’anaviy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari kompyuterlashadi. Ta’lim jarayoni uchun, shu jumladan, kichik yoshdagi bolalar uchun ham mo‘ljallangan dasturiy va texnik vositalarning “insonlashuvi” kuzatilmoqda. Ularda foydalanuvchilar o‘z faoliyatlarini mavjud bo‘lmagan, ammo qandaydir amallarni bajarish uchun zarur bo‘lgan elementlar bilan to‘ldirishmoqda. Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bunday vaziyatlar axborot texnologiyalari bilan aloqador faoliyatning turli ko‘rinishlarining (shu jumladan, ta’lim olish bilan bog‘liq faoliyatda ham) murakkab va ziddiyatli tuzilmasini shakllantiradi.

Bugungi kunda shaxsning to‘la o‘zgarishi masalasi olimlar tomonidan batafsil o‘rganib chiqilmagan. Shu bois ta’lim jarayoni uchun mo‘ljallangan zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish jarayonida pedagoglar va psixologlar faol ishtirok etishlari zarur. Ular axborot texnologiyalarining o‘quvchilar shaxsiga bo‘lgan salbiy ta’sirlarini aniqlash va bartaraf etish bilan bog‘liq masalalardan tashqari mazkur texnologiyalardan ta’lim jarayonida foydalanishning optimal shart-sharoitlarini o‘rganishadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Butun O‘zbekiston yoshlarini Vatanimiz, jamiyatimizning hal qiluvchi kuchi deb bilamiz va sizlar hamisha xalqimizning mana shunday yuksak ishonchiga munosib bo‘lasiz, deb ishonamiz”.[1] deb, yoshlarga umid bildirdi.

Bugungi barcha yoshlar axborot-texnologiyalarini o‘rganishi zaruriy ehtiyojlardan biridir.

Intensiv intellektual va ijodiy rivojlanish o‘quvchilarni mavjud ijtimoiy muhitga moslashishini ta’minlay olmaydi. Ular turli kompyuter manbalariga, shu jumladan, internatga bog‘lanib qolishlari mumkin. Bu esa kelajakda shaxsini boshqalardan ajralib qolishiga sabab bo‘la oladi. Bolalarning ruhiyatida keskin o‘zgarishlar ro‘y berib, ularda o‘z do‘stlarini virtual olam qahramonlari bilan almashtirish, ruhiy javob reaksiyalarida pasayish, qiziqishlar doirasida torayish kabi holatlar kuzatilishi mumkin.

Bundan tashqari, olimlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalari ta’sirida olingan ruhiy komponentlarning qaysilari faoliyatning “kompyuterlarsiz” doirasiga olib o‘tilishini hamda ta’lim axborotlashuvining ruhiyatga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini aniqlash ham muhim hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida pedagoglar uchun ham o‘ta dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi pedagoglar ta’lim faoliyati aniqlik, samaradorlik va bashorat qilish kabi sifatlar evaziga o‘zgarishini ta’kidlashmoqda. Bu o‘rinda ta’lim oluvchilar ongini rivojlantirish usullariga o‘rgatuvchi

[1] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”. – T.: O‘zbekiston, 2017. “Gazeta. uz”

va boshqa kompyuter dasturiy vositalarining ta’sirini inkor etmaslik lozim. Vaziyatni to‘g‘ri tushuntirish, o‘quvchilarga ongli ravishda masalalarni yechish usullari orasidan optimalini tanlashga o‘rgatish pedagoglar uchun asosiy masalaga aylanib qoladi.

